

N.M. Quchqorova, F.M. Bekchanova, M.A. Durdiyeva

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Quchqorova Nargiza Mamajonovna
Bekchanova Feruza Marimboy qizi
Durdievva Mohinur Adilbek qizi**

**MAKTABGACHA TA'LIMDA
PEDAGOGIK JARAYONLARNI
LOYIHALASHTIRISH**

(DARSLIK)

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi	5111800 - Maktabgacha ta'lim

**"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2023**

UO'K: 372.211

KBK: 74.100

Q 53

Quchqorova N.M., Bekchanova F.M., Durdiyeva M.A.
Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish
[Matn] : darslik / N.M. Quchqorova, F.M. Bekchanova, M.A. Durdiyeva.
– Toshkent: Bookmany print, 2023. – 198 b.

Mazkur darslik 5111800 – maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarni Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fani mavzularini o'rganishlari uchun mo'ljallangan.

Darslikda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan faoliyatlar loyihalashtirish hamda pedagogik faoliyatni qanday qilib olib borish borasida muhokamalar o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlari, bo'lg'usi tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik faoliyat yurituvchi kadrlar samaradorlikka erishish uchun darslikdagi ma'lumotlardan ijodiy foydalanishlarini tavsiya qilamiz.

Mualliflar:

Quchqorova Nargiza Mamajonovna - Urganch davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti, Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Bekchanova Feruza Marimboy qizi – Urganch davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi - Urganch davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

A.Xudayberganov – Urganch davlat universiteti, Pedagogika fakulteti dekani dotsent

S.Sharifzoda – Urganch davlat Pedagogika instituti (PhD) dotsenti v.b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© **Quchqorova N.M., Bekchanova F.M., Durdiyeva M.A.**
ISBN 978 9910 9900 3 8 © "Bookmany print" nashriyoti, 2023.

Kirish

Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi. Har bir ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fani bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun tarbiyachi maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fanini chuqur egallashi lozim. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fani o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to'g'ri hal qilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning yechimini topishga yo'naltiradi. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fani eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi. Ushbu fan bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu sababli darslikda maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fani inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, jahonning mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi. Ushbu darslikni tayyorlash O'zbekistonda barkamol avlod ma'naviyatini shakllantirish borasidagi islohotlar, maktab faoliyatini modernizatsiyalash, ya'ni ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga doir MT Konsepsiyasi, "Davlat talablari", MT Nizomlari hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida yaratilib, amaliyotda qo'llanilayotganligi masalalariga e'tibor qaratildi. Mazkur darslik oliy ta'limning maktabgacha ta'lim yo'nalishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagogika kasb-

hunar kolleji o'quvchilariga mo'ljallangan. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fanini chuqur o'rganib, har bir bola qalbini zabt etuvchi murabbiy — ustoz bo'lishlarida talabalarga omad tilaymiz.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. Fan, texnika va texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, Oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta'limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o'qituvchidan yuksak texnologik bilim salohiyat va mehnatni talab qiladi. Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi va shiddatli axborot oqimi davrida XX asrning ikkinch yarmida paydo bo'lgan "Ta'lim texnologiyalari" fani mazku muammoni hal etadi. Ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim texnologiyalarining har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy ishlab chiqilgan, asoslangan, loyihalashtirilgan, kafolatlanuvchi sifatli yakuniy natijaga mo'ljallangan pedagogik jarayonni tuzish va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ta'limning yangi modelir amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash Milliy dasturid

“O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash” uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ta‘lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o‘zida didaktik masalalar va ta‘lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta‘lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to‘g‘ri belgilash, tanlash va samarali qo‘llay olishga bog‘liqdir. Barchaga ma‘lumki, zamonaviy ta‘lim talabalar uchun informativ, qiziqarli va maroqli bo‘lsa, kutilayotgan o‘qitish maqsadlariga erishish mumkin. Ta‘lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o‘qitish usullari, shakllari, vositalarini qo‘llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. Shu sababli ham, ilg‘or pedagog olimlar, novator professor-o‘qituvchilar va amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta‘lim texnologiyalarini o‘z faoliyatlarida keng qo‘llashga intilmoqdalar.¹ Mazkur darslikda “Maktabgacha ta‘limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish” fanining tuzilmasi va mazmuni bayon etigan, uning asosini O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda bajarilgan ishlanmalar tashkil etadi. Darslikning tuzilishi, mavzularning bayon etilishida tanlangan stilistik uslub, yangidan kiritilgan ma‘lumotlar uning talabalar tomonidan maqbul tarzda idrok etilishiga imkon beradi. Ushbu darslikni pedagog va talabalarga taqdim eta turib, kitob ma‘lum darajada o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz. Muallif kitobxonlar, talaba va magistrilar, professor-o‘qituvchilar tomonidan bildiriladigan har qanday fikr va mulohazalarni qabul qiladi va keyingi nashrlarda, albatta, ularni inobatga oladi.

Mualliflar.

¹ SH.M.Mirziyoyev “Tanqidid y tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Toshkent 2017, 45-bet.

I BOB. "MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH" FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish

Reja:

1. Pedagogik faoliyat haqida tushuncha.
2. Pedagogik faoliyat turlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogika, pedagogik faoliyat, jamiyat, oila, diagnostika, o'qitish, rag'bat, tadqiqot, loyiha.

1. Pedagogik faoliyat haqida tushuncha.

Pedagogika qadim qadimdan ishlatilib kelinayotgan so'zlardan biridir. Pedagogika yunoncha so'z bo'lib "Bola yetaklovchi" degar ma'noni bildiradi. Pedagog - tarbiya beruvchi shaxs. Bu insoniya tomonidan to'plangan tajribani keksa avloddan yosh avlodga o'tkazish, shuningdek, yosh avlodning rivojlanishi uchun sharoit yaratishga va jamiyatda muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning maxsus turini anglatuvchi shaxsdir. Shubhasiz, bu faoliyat nafaqat tarbiyachilarga balki ota-onalar, jamoat tashkilotlari, korxonalar va muassasalarning rahbarlari, ishlab chiqarish va boshqa guruhlar, shuningdek ma'lu darajada ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo, birinchidan bu faoliyat jarayoni professional, ikkinchidan esa har bir shaxs o'ziga nisbatan ixtiyoriy holatda o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadigan umumiy pedagogikadir. Kasbiy faoliyat sifatida esa bu jamiyat tomonidan alohida tashkil etilgan quyidagi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim;

Pedagogik faoliyat asli keyingi avlodning ma'naviy va tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holatda qo'yiladigan talablarning ijtimoiy rivojlanish tendensiyasi sifatida ishlab chiqilgan va takomillashgan. Bu bir jihatdan jamoaviy guruhlarning qiziqishlarini, ikkinchi jihatdan har bir insonning ehtiyoji hamda qiziqishlarini qamrab olgan.

Pedagogik faoliyat maqsadi - bu ta'lim jarayonining sharoitini yaxshilash hamda ijtimoi-pedagogik vazifalarni hal qilish va shakllantirish.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik faoliyatlarning barcha shakllarining (dars, ekskursiya, individual suhbat va boshqalarga) o'ziga xos bo'lgan umumiy holatini ifodalaydi. Shu bilan birga, pedagogik harakatlar bu shaxsning umuminsoniy va barcha boyliklarini ifoda etadigan maxsus tizimdir.

Pedagogik faoliyat – bu yosh avlodni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, estetik maqsadlarga muvofiq tarzda tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos turidir.

O'qitish - pedagogik faoliyat bo'lib, bunda bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarda shakllantirish, shuningdek pedagogik faoliyatga rahbarlik qilishdir. Pedagogika mutaxassisligiga ega bo'lgan, har bir yosh bilim oluvchini tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, o'qituvchi (tarbiyachi) deyiladi.

2. Pedagogik faoliyat turlari.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda pedagog har bir jarayonni belgilab borishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyat quyidagi turlarga bo'linadi

- Diagnostika;
- Yo'nalish-prognozlar;
- Konstruktiv dizayn;
- Tashkiliy;
- Ma'lumotlar va tushuntirish;
- Kommunikativ-rag'batlantirish;
- Tahlil-taxmin qilingan;

-Tadqiqot va ijodiy.

Diagnostika faoliyati – Pedagoglar har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini, ularni har tamonlama rivojlanishi, o'qitishi, ta'lim olishi va boshqalarni o'rganishi bilan bog'liq faoliyatdir. Bu o'z navbatida psixologik va pedagogik tashxis qo'yish uchun samarali hisoblanadi. Mazkur diagnostika faoliyatlar orasida eng keng tarqalgan metodlar ilmiy pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, talabalarning o'quv faoliyati natijalarini tahliliy o'rganish, hujjatlar, har xil savolnoma, psixologik testlar va boshqalar.

Yo'nalish-prognolar - Pedagogning maqsadi bo'yicha psixologik va pedagogik tashxis natijalari va tarbiyaviy ishlarning vazifalari asosida aniqlanishi, uning natijalarini oldindan bilish faoliyatidir. Pedagogik jihatdan bashorat qilish obyektning pedagogik jarayoni, uning naqshlari va prinsiplari, shuningdek shaxsning yosh, individual va ruhiy rivojlanish xususiyatlariga hamda ishonchli bilimlarga tayanadi. U o'quv jarayonini to'g'ri boshqarishni belgilaydi. Kasbiy va muhim shaxsiy fazilatlarni shakllantirish nuqtai nazaridan, ushbu turdagi tasavvur, mavhum tafovut turini va yuqori intellektual rivojlanishning yuqori darajasini talab qilgan holda talabalarning pedagogik ish natijalarini oldindan bilishni talab qiladi. Pedagog quyidagi maxsus prognozlarni shakllantirishi kerak:

-Tashxis qo'yilgan o'quv jarayoni hamda rivojlanayotgan o'quv maqsadlari va vazifalarini tahrirlash;

-O'quv yutuqlariga usullarni tanlash;

-Natija va istalmagan hodisalarga erishish va ularning oldini olish yoki yengib o'tish usullarini tanlashda mumkin bo'lgan og'ishlarni oldindan tanlash;

-Aqliy (mavhum, ideal) shaklda tashkil etilgan pedagogik jarayonning individual tarkibiy qismlarini o'rganish;

-Mablag', mehnat va ishtirokchilarning o'quv jarayonini baholash.

Pedagog maqsad hamda vazifalarni aniq bashorat qilish uchun, kelgusida bajariladigan ishning mazmunini, pedagogik tadqiqotlar usulini modellashtirish, gipotezalar, ruhiy tajriba va boshqalarni o'zlashtirishi kerak.

Konstruktiv dizayn - bu pedagog tomonidan o'quv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha muayyan mashg'ulot jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Dizayn ko'nikmalariga o'quv faoliyatining o'ziga xos shakllarini, ish uslublarini sinchkovlik bilan tanlashni talab qiladigan ta'lim faoliyatining o'ziga xos shakllari, pedagogik jarayonning individual bosqichlarini to'g'ri aniqlash qobiliyati kiradi.

Tashkiliy faoliyat - talabalarni rejalashtirilgan o'quv ishlariga jalb qilish. Pedagogning talabalar bilan maslahatlashgan holda ularni faoliyatni maqsad va vazifalarni oldindan rejalashtirib, muayyan amaliy topshiriqlarni bajarish faoliyatidir.

Ma'lumotlar va tushuntirish - Pedagogik faoliyatda juda muhim rol o'ynaydi. Axborot va tushuntirish faoliyati pedagog uchun pedagogik mahoratini namoyon qilish uchun juda muhimdir. Axir, barcha o'rganish va ta'lim bir shaklda yoki boshqasiga asoslangan axborot jarayoni. Pedagog bir vaqtning o'zida ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy va estetik ma'lumotlarning eng muhim manbai sifatida harakat qiladi. Pedagogning axborot-tushuntirish faoliyatini samarali amalga oshirish ko'p jihatdan uning pedagogik nutqiga bog'liqdir. Pedagogik nutq - bu pedagoglarning guruhda yoki undan tashqarida, umumiy madaniy talablarga qo'shimcha ravishda pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan professional talablarga javob beradigan pedagogik mahoratidir.

Kommunikativ-rag'batlantirish - Bu o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida, pedagogik aloqaning maqsadli munosabatlarini o'rnatishga qaratilgan faoliyatdir. Pedagogik faoliyatning ushbu turi pedagogning shaxsiy jozibasi bilan bog'liqdir. Pedagogning kommunikativ va rag'batlantiruvchi faoliyati nafaqat shaxsiy jozibasi, balki juda ko'p miqdordagi maxsus ko'nikmalari bilan bo'g'liq.

Tahlil-taxmin qilingan - U pedagogga talabalarni tarbiyalash va o'qitishda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan narsalarni taqqoslashda yordam beradi. Bunday qiyosiy tahlil asosida pedagog pedagogik jarayon sifatini yaxshilash va takomillashtirish usullarini izlash bilan birga va ularni rejalashtiriladi.

Tadqiqot va ijodiy - mazkur faoliyat mohiyati va tarkibi pedagogik mehnatning ijodiy tabiati bilan belgilanadi. Tadqiqot va

ijodiy faoliyatning bir xil tomoni yangi pedagogik amaliyotda, pedagogik nazariyada taniqli va allaqachon tasvirlangan pedagogik amaliyotda rivojlanishidir.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsulidir.

Loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatdir.

Har qanday holatda ham loyihalash g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, kompyuter texnologiyasi yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

1) pedagogik faoliyatning mazmunini tahlil qilish;

2) natijalarni oldindan ko'ra bilish;

3) rejalashtirilgan faoliyatning amalga oshirish loyihasini yaratish.

MTTda tashkil qilinadigan mashg'ulotlar, ya'ni ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayoni yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilar shaxsiga turlicha ta'sir ko'rsatadigan barcha shakldagi mashg'ulotlar, sayr va ekskursiyalar, shuningdek tarbiyaviy va shaxslararo munosabatlar jarayoni o'zaro aloqador va uzviy bog'liqdir. Mazkur tashkiliy komponentlarning o'zaro bog'liqligi pedagogik jarayonning yaxlitligini ifodalaydi. MTTda tashkil qilinadigan barcha shakllardagi mashg'ulotlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tizimli yondashuvni joriy qilishda pedagogik ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar majmui yaxlit tizim, ya'ni tarbiyalanuvchilar shaxsiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan murakkab pedagogik tizim sifatida inobatga olinishi muhim hisoblanadi.

Dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi.

Mazkur tizimga mahalliy hokimiyat organlari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, diniy va jamoat tashkilotlari, jismoniy shaxslar tomonidan e'tibor ko'rsatiladi. Qator davlatlarda ish vaqti davomiyligi turlicha bo'lgan MTM, boshlang'ich sinflarda maktabgacha bo'limlar, onalar maktablari hamda maydonchalar faoliyat yuritadi. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi bu yosh avlodning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hamda ta'lim va tarbiya dasturlari asosida faoliyatlarni amalga oshirish. Bu maqsadni amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarning o'yin faoliyatini tizimli yondashuv asosida tashkil qilishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish, tizimli yondashuv asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarilari subyektlarining ota-onalar bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash, tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda bolalarning individual va yosh xususiyatlari, ehtiyojlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilanganidek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi – bolalarda umumiy asosiy kompetentsiyalar va rivojlanish sohalari kompetentsiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (3-7 yosh) bolalarning umumiy muhim 4 ta kompetentsiyasi aks ettirilgan:

-kommunikativ kompetentsiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish;

-o'yin kompetentsiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish, u o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi;

-ijtimoiy kompetentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish;

-bilish kompetentsiyasi – atrof olamni ongli idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.²

MTTda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarni takomillashtirishda sanab o'tilgan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq qilish muhimdir.

Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin ekani to'g'risida qat'iy xulosaga kelingan.

MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning yo'nalishiga ko'ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

-maqsadi, vazifasi va shakliga ko'ra turli mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish;

-loyihalash, ya'ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni oldindan belgilash;

-yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida rag'batlantirish. MTTda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda takomillashtirishni ta'minlash uchun pedagoglar o'z faoliyati bolalarni loyihalash ishlarida faolligini ta'minlashi zarur.

Nazorat uchun savollari:

1. Pedagogik texnologiya nima?
2. Jahon ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni targ'ib qiluvchi jurnallar qachon, qaysi davlatlarda nashr qilingan?
3. Pedagogik texnologiyalar jamiyat taraqqiyotida qanday kuchga ega deb hisoblaysiz?
4. Pedagogik texnologiya mezonlari nimalarni qamrab oladi?
5. Pedagogik texnologiyalar qo'llanish darajalariga ko'ra necha turga ajratiladi?
6. Pedagogik texnologiya aspektlari deganda nimalar nazarda tutiladi?

² "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi

7. Ta'limda innovasion jarayonlarning o'ziga xosligi nimada?
8. Innovasion jarayonlarning bosqichlariga nimalar kiradi?
9. O'qituvchining innovasion faoliyati deganda nimani tushunasiz?
10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari?

2-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining texnologiyalari

Reja:

1. Loyihalashtirish texnologiyasi hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi.
2. Bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi.
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usullari.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs, , bilim, ko'nikma, standart, malaka, aqliy harakat usullari, loyihalashtirish, pedagogik faoliyat, o'qituvchi, hamkorlik, izchillik, fikr, shaxs sifatlari, sifat.

1. Loyihalashtirish texnologiyasi hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi.

Hamkorlik texnologiyasi bu pedagog bilan talabalar o'rtasidagi tenglik, demokratiya hamda sub'ektlar orasidagi o'zaro aloqa vositasidir. Pedagog va talaba o'zaro hamkor va ijodkor sifatida ish yuritib birgalikda mashg'ulot mazmuni, maqsadini aniqlaydilar va birgalikda uni baholaydilar. Lekin fanda "Hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasi ham mavjud. Uning o'ziga xos mazmuni va rivojlanishi jarayoni mavjud. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillaridan boshlab rivojlana boshladi. "Hamkorlik pedagogikasi" texnologiyalari asosida taniqli rus va chet el pedagoglarning tajribasi yotadi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim, amaliyotchi va "Hamkorlik pedagogikasining" asoschisi hisoblanadi.

Mumtoz pedagogik qarashlarda pedagog pedagogik jarayonning subyekti, talaba esa obyekt, deb hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida pedagog o'z o'quv faoliyatining subyekti tarzida qaraladi. Bunda pedagog va talaba pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashadi va hamkorlik pedagogikasi jarayoni jadallashadi. Ular o'zaro hamkor, hamfikr, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard va boshqaruvchi tarzida faoliyat yuritadilar. Hamkorlik munosabatlari pedagoglar orasida, jamoalari, rahbarlar, ota-onalar va keng jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasi ta'lim oluvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

2. Bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri yaratildi. Mazkur dasturning "MTTning maqsad va vazifalari" nomli 2-bobi, 5-bandi "Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" masalalariga bag'ishlangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi tashkilotning sifatini muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbat pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);

- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarni ota-onalar bilan online va oflayn uchrashuv va yig'ilishlar o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haq ma'lumot berishi va boshqalar);

• ota-onalarni guruh va yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);

• ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);

• maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);

• bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).³

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Oila bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalari tahlil qilinib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari,

ochiq eshiklar kunini tashkil etish orqali ota-onalar diqqatini jalb qilish mumkin.

“Bolani qanday sevish kerak?”, “Bola hayotida kitob”, “Bugun biz nima bilan shug‘ullandik”, “Ota-onalar burchagi”, “Maslahat va tavsiyalar”, “Ko‘chma papkalar va boshqalar”. Bundan tashqari ruhshunoslar tomonidan tashkil etilgan testlarga murojaat etish ham foydadan holi emas. Masalan, “Biz qanday ota-onamiz?” (Test) “Farzandimizning nihoyatda qiziquvchanligi”. (Test)⁴

Bugungi kunga kleib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qatnaydigan bolalarning ota-onalarini quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh - bunda ishda juda band bo‘lgan ota-onalardir. Bu guruhda ota-onalar juda bandligi sabab majlislar, seminarlar va treninglarda faol qatnasha olmaydi. Lekin pedagog tomonidan to‘g‘ri tashkil etilgan hamkorlik asosidagi, oilaning bola bilan birgalikda vaqt o‘tkazishi uchun topshiriqlar, uyda bajariladigan tanlov, ko‘rgazmalar ota-onaga qulay vaqtda oldindan e‘lon qilinadi. Shu asnoda bola e‘tibordan chetda qolmaydi.

Ikkinchi guruh - ish tartibida qulaylikka ega bo‘lgan ota-onalar, nafaqadagi bobo va buvilar. Bunday oilalarning bolalari MTTga bormasliklari mumkin, lekin ota-onalar bolani to‘laqonli tarbiyadan mahrum qilishni xohlamaydilar. Bolalar muloqotda, tengdoshlari bilan o‘yinlar o‘ynashda, jamiyatga moslashishda to‘laqonli rivojlanishga erishishi lozim. Pedagoglarning asosiy vazifasi bu ota-ona guruhining passiv kuzatuvchi pozitsiyasiga tushib qolishini oldini olish, bolalar bilan o‘tkaziladigan tanlov, seminar, mashg‘ulotlarga jalb qilishni davom etishlari kerak.

Uchinchi guruh - bu guruhdagi oilalar ishsiz ota-onalardir. Bu ota-onalar farzandini tengdoshlari bilan qiziqarli muloqot qilishi, jamoadagi xulq-atvor ko‘nikmalarini egallashi, to‘g‘ri kun tartibiga rioya qilib, bolani intellektini oshirish uchun MTTga berishadi. Pedagogning vazifasi bu ota-onalar guruhidan ota-onalar qo‘mitasi a‘zolari va tarbiyachilarning faol yordamchilari bo‘ladigan onalarni ajratib ko‘rsatishdir. Ota-onalar yig‘ilishini tayyorlash, bayramlar, musobaqalar, ko‘rgazmalar va hokazolarni o‘tkazishda pedagog ota-

⁴ Джанпеисова, Б.Ходжимуратова. Математик тасавурларини шакллантириш. Т.: “Инновация-Зиё”, 2020.

onalar guruhiga tayanishi kerak. Ota-onalar bilan ishlash mazmuni turli shakllar orqali amalga oshiriladi. Pedagoglarning asosiy vazifasi bilimlarni ota-onalarga yetkazishdan iboratdir.

3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usullari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bunda shaxsiy imkoniyatlar pedagogik muhitga moslashtirilishi nazarda tutiladi. Bunda har bir ta'lim oluvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'limda o'qituvchi-o'quvchi hamda o'quvchi-o'quvchi hamkorligini ko'zda tutgan holda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Mazkur texnologiyada ommaviy kommunikativ metodlardan foydalaniladi. Quyida ularning ayrim asosiy belgilari berilgan.

1. Har bir ta'lim oluvchiga buyuk shaxs sifatida qarash va uni hurmat qilish, tushunish, har bir so'zini qabul qilish, unga ishonish.

2. Pedagogik muhitni yaxshi yaratish kerak va unda o'quvchi o'zini shaxs sifatida ko'rsin, unga ajratilgan e'tiborni his qilsin.

3. Ta'lim oluvchiga tazyiq o'tkazmasdan hamda uning kamchiligini bo'rttirmasdan, bilimlarni o'zlashtirmasligi va o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlab va ularni shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

4. Ta'limda «muvaffaqiyat muhitini» tashkil etish. Ta'lim oluvchiga o'qish jarayonida muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, o'z kuchi va iqtidoriga tayanish ishonchini orttirish. Ularga atrofda har bir insonning o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoada tashkillashtirilgan aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. Ta'lim oluvchining hurmati va ishonchini qozonish, hamda ularga shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir. Bu nafaqat rivojlanishida bundan tashqari sinf xonalarida, balki ta'lim muassasasiga kirishda, yo'laklarda, sport va dam olish maydonchalarida ham yaratilgan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xona va bino-bu bolaning rivojlanishi uchun ichki omil, binodan tashqaridagi sport, dam olish va o'yin maydonchalari, maktab va boshqalar tashqi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi muhit ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olingan holda eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Uning asosiy talablari quyidagicha:

-Ta'lim oluvchining salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug'lik bilan ta'minlangan bino va o'quv xonalari.

-Binoning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joy bo'lishini ta'minlash.

-Ta'lim oluvchining harakati, kashf qilish va tajriba qilish, raqobatlashishi uchun sharoit yaratish. Masalan, sport, dam olish va o'yin maydonchasida jihozlarning yetarli bo'lishi, turli o'simliklarning o'sishini kuzatish, xonada o'quv fanlariga doir ma'lumotlar, kutubxonada turli kitoblar bo'lishi va boshqalar.

-Ta'lim oluvchining ishlagan barcha qo'l ishlari, ashyo va qo'llanmalar u ko'ra oladigan joyda bo'lishi.

-Ta'lim oluvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotga rag'bat bildirish, ya'ni darsda kichik guruh va juft bo'lib ishlashlari, darsdan tashqari vaqtda o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

-Ta'lim oluvchilarda ta'lim muassasasiga nisbatan tegishlilik ya'ni xavfsizlik va erkinlik hissi bo'lishi.

-Turli madaniyatlarning mavjudligini his qildirish.

Sinf xonasi ta'lim oluvchini har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi uchun alohida mavzular bo'yicha qismlarga bo'lingan hamda har bir qismlar o'z mavzulari bo'yicha kerakli va qiziqarli bo'lgan hom ashyo, mebel va jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k.bilan jihozlanganligi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda ayrim noan'anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho'ng'ish darsi- ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o'rganish darsi.

Musobaqa darsi- o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash darsi.

Konsultatsiya darsi- dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish darsi.

Ijod darsi- o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi- o'quvchilarning o'zlashtirishini turli shakllarda sinash uchun tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi- dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar noto'g'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi- o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti darsi.

Umumlashtirish darsi- ilgari o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o'tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi- o'quvchilarning o'rgangan bilimlari asosida ijodiy hayol, taxminlar o'ylab topishlari mashqini o'tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi- dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishni ta'minlash darsi.

"Paradokslar" darsi- o'quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o'rganilayotgan mavzuni har turli "paradokslarga" bog'lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o'tkazish asosida to'g'ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi- yangi dars mavzusiga doir savollar bo'yicha o'quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to'g'risida ma'lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsni o'zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta'minlash darsi.

Ekskursiya darsi- bu darslarda o'quvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, korxonalar, ustaxona, tabiat obyektlari, ilmiy muassasa, kasb-hunar maktabi, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog'lash va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo'lgan obyektlarga, ular to'g'risida

filmlar, turli ko'rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo'lgan hollarda, ularni o'quvchilarga namoyish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

Nazorat uchun savollari:

1. Ta'lim jarayonida temperament tiplarining o'ziga xosligi qanday ro'l o'ynaydi?
2. Shaxs sifatleri tuzilishi darajalarini izohlang?
3. Aqliy harakat usullari tarkibiga nimalar kiradi?
4. Analiz va sintez bir-biridan qanday farq qiladi?
5. Taqqoslash nima?
6. Shubha bildirish darsi nima?
7. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim nima?
8. Seminar darslari qanday tashkil qilinadi?
9. Ekskursiya darslari qanday tashkil qilinadi?
10. Hamkorlik texnologiyalari nima?

3-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari

Reja:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bosqichlari.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.

Tayanch so'z va iboralar: an'anaviy o'qitish modeli, noan'anaviy o'qitish modeli, rivojlantiruvchi ta'lim, modellashtirish, an'anaviy masho'ulot, hamkorlikda o'rganish modeli, tadqiqot modeli.

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalar o'ziga xos o'ringa egadir. Chunonchi maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy hamda jismoniy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya samaradorligini

oshirib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta'limga joriy qilish ularni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda innovatsion jarayonlar tushunchasi XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi e'tirof etilgan vaqtda paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. O'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat "ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar yig'indisi" deya talqin etildi.

Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashdagi ijodiy yondashuvidir. Pedagog innovatsion faoliyatning subyekti va tashabbuskori sifatida yangilikni yaratish, qo'llash va ommalashtirishda ishtirok etadi. Zero, pedagog innovator sifatida muayyan fan asoslari, an'alariga xos o'zgarishlar mazmunini tahlil eta olishi kerak. "Innovatsion faoliyat" tushunchasi "innovatsiya", "innovatsion" jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligi sabab ushbu tushunchalar mazmunini anglamasdan turib, innovatsion faoliyat mohiyatini tushunish mumkin emas.

Tarbiyachi innovatsion pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari

Innovatsion pedagogik faoliyatning maqsadi	Innovatsion pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti	Innovatsion pedagogik faoliyatning vositasi
--	--	---

Innovatsiya (ing. "innovation" – yangilik kiritish) – tizimning ichki tuzilishini o'zgartirish, deya ta'riflanadi. Innovatsiya – nazariya va amaliyotning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'jekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan harakat tizimidir. Bu

g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb va muhim ahamiyatga ega hisoblanib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbol bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya-ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bosqichlari.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. O'quv fanini bir butun deb qarab, «makro modul» deb qabul qilib, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, «katta», «o'rta» va «kichik» modullarga ajratiladi, so'ng, ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanadi.

2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratiladi.

3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash tur va mezonlari belgilanadi.

4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlanib olinadi.

5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar aniqlanib, joylari topib qo'yiladi.

6. O'quv muassasasida mavjud axborot texnologiyalari va har bir kichik modulda o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot texnologiyalarining qo'llanish joylari belgilanadi.

7. O'quv mashg'uloti jarayonida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarning turi va joyi aniqlanadi.

8. O'rta modul mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi o'quv mashg'uloti ssenariysi yoziladi.

Loyihalash strategiyasi — loyihachi tomonidan rejalashtirilgan faoliyatning texnik vazifalariga muvofiq muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish tizimidir. Loyihalash strategiyalari: chiziqli, davriy, o'zgartirish, tarmoqlangan, moslashtirish va tasodifiy izlanish strategiyalaridan iborat. Loyihalashning chiziqli strategiyasi 1-bosqich, 2-bosqich va hokazo bosqichlardan iborat bo'lib, harakatlarning birinchidan to o'n beshinchigacha ketma-ket, qaytmasdan bajarilishini anglatadi.

Strategiya o'qituvchi tomonidan faoliyatni muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish rejalashtirilganda (jumladan, o'quv jarayonini turli shaklda tashkil etish variantlari puxta o'ylanmasdan qulay standart vositalar qo'llanilsa) qo'llaniladi. Bu strategiyaning umumiy mohiyati quyidagicha:

- mavzuga oid ma'lumotlar tizimini aniqlash;
- to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish - tahlil natijalari (o'quv materiallari);
- o'quv materialini mazmunini saralash;
- mazmunni modellashtirish - o'zlashtirish faoliyati modeli;
- ta'lim texnik vositalarini tanlash;
- shaxsga oid texnologiyalarni belgilash
- ta'limning samarali vositalari;
- boshqaruv uslubini belgilash;
- ta'lim vositalaridan foydalanish uslubini aniqlash
- o'qituvchi faoliyatining mazmuni;
- ta'lim metodlarini tanlash;
- metodlardan foydalanish imkoniyatini aniqlash
- vositalar tizimi;
- nazariy tajriba;
- loyihani rasmiylashtirish.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.

Pedagogik innovatsiyalar - bu maqsadlarga erishishga yordam beruvchi ta'lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayonidir.

Ular orasidagi ta'lim jarayoni vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, mehnat bozori bo'lajak hodimlarga yangi talablarni qo'yadi va

o'qitish o'zgartiriladi, yangi maqsadlarga moslashtiriladi, bunga erishish uchun yangi pedagogik usullar, uslublar zarur.⁵

Ta'limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

- Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;
- Talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish;
- Ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;
- O'quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan o'zgartirishlari.

Pedagogik jarayonga faol joriy etilayotgan yangi yondashuvlar belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Ular ta'lim muassasalarida ishning yangi uslub va uslublarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limga yondashuv - bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami.

Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir.

Pedagogik innovatsiyalar ikkita asosiy yondashuvga asoslanadi:

• Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonini har bir ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir o'quvchining o'ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste'dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o'z ichiga oladi (talabalar o'zlari hohlagan sohalarni tanlashlari mumkin), ishonch (o'qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo'qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, subyektivlik, individuallik;

• Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. U asosiy e'tiborni o'rganish natijasiga qaratadi, natijada esa bilimlar yig'indisi emas, balki ko'nikmalar yig'indisi, o'quvchining muammolarni, konfliktlarni hal qilish, turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir.

Talabaning qanchalik bilishi muhim emas. Eng muhimi, uning o'zgarishlarga javob berish, moslashuvchan bo'lish, his-tuyo'ularni

⁵ Джанпеисова, Б.Ходжимуратова. Математик тасавурларини шакллантириш. Т.: "Иновация-Зиё", 2020.

boshqarish va to'g'ri ma'lumotni tanlash qobiliyatidir. Bu yangilik ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, ta'limni baholash va tashkil etish tamoyillarini isloh qilishni taqozo etadi.

Nazorat uchun savollari

1. An'anaviy ta'limning o'ziga hos jihatlari aytib bering?
2. «Noan'anaviy ta'lim» tushunchasini izohlang?
3. Zamonaviy o'qitish jarayonini takomillashtirish zarurati nima uchun paydo bo'ladi?
4. Noan'anaviy – masho'ulotga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?
5. Loyiha ishi nima?
6. Universitetdagi inovatsiyalarga misol?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi innovatsiyalar?
8. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar haqida nimani bilasiz?

4-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari

Reja:

1. Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni.
2. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning afzalliklari.
3. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashtirishdagi kompetentligi.

Tayanch so'z va iboralar: innovatsiya, innovatsion ta'lim, pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, innovatsion ta'lim texnologiyalari, loyiha ta'limi, hamkorlik ta'limi, hamkorlik, loyiha.

1. Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni.
Loyihaviy ish – Ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan faoliyat turi. Loyihalarning maqsadi yangilash va amaliyotda foydalanish, olingan bilimlarni

kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat. Loyiha ustida ishlash individual, juftlik yoki mikroguruhlarda amalga oshirilishi mumkin, u muammoni hal qilishni, optimal yechimlarni izlashni o'z ichiga oladi. Maktablar loyihalarda fanlarning integratsiyalashuvidan faol foydalanadilar, masalan, ular talabalarga til va adabiyot, matematika va kimyo, tarix va biologiyaning fanlararo aloqalarini o'rganishni taklif qiladilar. Ushbu yangilik murakkab fikrlashni, tahlil qilish, aloqalarni o'rnatish va yangi o'oyalar yaratish, dunyoning yaxlit manzarasini ko'rish qobiliyatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

O'yin texnologiyasi- o'yin xonalari bir nechta funksiyalarni bajaradi: ko'ngilochar, terapevtik, diagnostik, ijtimoiy. O'yin davomida o'quvchilar erkin rivojlanish faoliyati bilan shug'ullanadilar, nafaqat natijadan, balki jarayondan ham zavqlanadilar va ta'sir qiladilar. O'quv jarayonida o'yin kengroq texnologiya elementi, darsning bir qismi yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlar sifatida ishlatiladi. Pedagogik o'yin aniq shakllantirilgan maqsadga ega bo'lib, u o'yin vazifasi shaklida taqdim etiladi, o'yinning barcha ishtirokchilari oldindan tayyorlangan va e'lon qilingan qoidalarga bo'ysunadilar.

Masofaviy ta'lim - bu Yevropa mamlakatlari va AQShda faol joriy etilayotgan yangilik. Kurslar maxsus mo'ljallangan saytlarda yaratilgan bo'lib, ularda ma'ruza davrlari, topshiriqlar, o'qituvchi bilan yuzma-yuz maslahatlashuvlar jadvali mavjud. Talabalar o'z vaqtlarini tartibga soladilar va mustaqil ta'lim olish uchun o'zlarini tartibga soladilar.

Interfaol texnologiyalar - bu o'qituvchi va o'quvchilarga joyini almashtirishga yordam beradigan usullar. Guruhlarda muloqot qilish, ma'lumotlar ustida ishlash, talabalar o'z-o'zini o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni kashf etadilar. Interfaol texnologiyalar maktablarda seminarlar, bahs-munozaralar, muammoli ma'ruzalar, munozaralar orqali amalga oshiriladi, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari, o'z fikrini bahslashishni o'rganishlari mumkin.

Portfolio-o'quv natijalari dinamikasini baholashga yordam beradi. Undan ta'lim yutuqlari va kashfiyotlarini tasavvur qilish uchun foydalanish mumkin. Ushbu yangilik ma'lumotlarni to'plashning bunday usullari orqali amalga oshiriladi: elektron

portfoliolar, "yutuq papkalari", "o'sish kundaliklari". Ular barcha ishlanmalarni, loyihalarni qayd etadilar, loyihalarda ishtirok etish, muhokamalar va ijodiy faoliyat natijalarini tasdiqlovchi materiallarni to'playdilar.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar - ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etish bilan bog'liq. Zamonaviy ilm-fanda yetakchi o'rinni egallagan ta'lim jarayoni o'quvchilarga shaxs, fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida boshlangan islohotlar samaradorligini tekshirishning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardir:

• Hujjatlarni konkretlashtirish usuli. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni baholash uchun ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy etish imkoniyati bostiriladi.

• Bo'lak-bo'lak ineksiya usuli. Bu alohida yangi innovatsion elementni joriy etishni nazarda tutadi.

• "Abadiy tajriba" uzoq vaqt davomida olingan natijalarni baholashni o'z ichiga oladi.

Parallel amalga oshirish eski va yangi ta'lim jarayonining birgalikda mavjudligini, bunday sintezning samaradorligini tahlil qilishni nazarda tutadi.⁶

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar turli sabablarga ko'ra "sekinlashmoqda".

1. Ijodkorlik to'sig'i. Eski dasturlar bo'yicha ishlashga odatlangan o'qituvchilar hech narsani o'zgartirishni, o'rganishni va rivojlanishni xohlamasligi.

2. Konformizm. Oportunizm, rivojlanishni istamaslik, boshqalarning ko'ziga qora qo'y kabi ko'rinishdan qo'rqish, kulgili tuyulishi tufayli o'qituvchilar g'ayrioddiy pedagogik qarorlar qabul qilishdan bosh tortadilar.

3. Shaxsiy tashvish. O'ziga ishonchsizlik, kuchli tomonlar, o'zini past baholash, o'z fikrlarini ochiq aytishdan qo'rqish tufayli ko'plab o'qituvchilar ta'lim muassasasidagi har qanday o'zgarishlarga oxirgi imkoniyatgacha qarshilik ko'rsatadilar.

⁶Джанпенсова, Б.Ходжимуратова. Математик тасавурларини шакллантириш. Т.: "Иновация-Знѐ", 2020.

4. Fikrlashning qattiqligi. Eski maktab o'qituvchilari o'zlarining fikrlarini yagona, yakuniy, qayta ko'rib chiqilmaydigan deb bilishadi. Ular yangi bilim, ko'nikmalarni egallashga intilmaydilar, zamonaviy ta'lim muassasalaridagi yangi tendentsiyalarga salbiy munosabatda bo'lishadi.

Innovatsiyalarni qanday qabul qilish kerak? Innovatsion xulq-atvor moslashishni anglatmaydi, u o'z shaxsiyligini shakllantirishni, o'zini-o'zi rivojlantirishni nazarda tutadi. O'qituvchi innovatsion ta'lim barkamol shaxsni tarbiyalash usuli ekanligini tushunishi kerak. "Tayyor shablonlar" unga mos kelmaydi, doimiy ravishda o'z intellektual darajangizni oshirish muhimdir. "Komplekslar", psixologik to'siqlardan halos bo'lgan o'qituvchi innovatsion o'zgarishlarning to'la huquqli ishtirokchisi bo'lishga tayyor.

O'qitish texnologiyasi

Ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanma hisoblanadi. Bu ilmiy bilimlardan didaktik foydalanishga, o'qituvchilarning empirik innovatsiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishga, maktab o'quvchilari va talabalarining motivatsiyasini oshirishga qaratilgan tizimli toifadir. Ta'lim muassasasining turiga qarab, ta'limda turli xil yondashuvlardan foydalaniladi.

Universitetlardagi innovatsiyalar

Oliy ta'limdagi innovatsiyalar bir necha tarkibiy qismlardan iborat tizimni nazarda tutadi:

- o'quv maqsadlari;
- ta'lim mazmuni;
- motivatsiya va o'qitish vositalari;
- jarayon ishtirokchilari (o'qituvchilar, talabalar);
- ishlash natijalari.

Texnologiya bir-biri bilan bog'liq ikkita komponentni nazarda tutadi:

1. Talaba faoliyatini tashkil etish.

2. O'quv jarayonini nazorat qilish.

Ta'lim texnologiyalarini tahlil qilishda zamonaviy elektron vositalardan (AKT) foydalaniladi. An'anaviy ta'lim o'quv fanlarini ortiqcha yuklashni o'z ichiga oladi. Innovatsion ta'lim bilan o'quv jarayonini boshqarish o'qituvchi zimmasida bo'ladi. Bunga

qo'shimcha ravishda, talaba vaqt va pulni tejash orqali masofaviy o'qitishni tanlashi mumkin. Talabalarning ta'lim olishga nisbatan pozitsiyasi o'zgarmoqda, ular tobora ko'proq noan'anaviy ta'lim turlarini tanlamoqda. Innovatsion ta'limning ustuvor vazifasi analitik fikrlashni rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirishdir. Innovatsiyalar samaradorligini baholash uchun quyidagi bloklar hisobga olinadi: o'quv-uslubiy, tashkiliy-texnik. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi omillar orasida yetakchi o'rinlarni quyidagilar egallaydi:

- ta'lim muassasalarida kompyuter va elektron vositalari yetarli emasligi (ayrim oliy o'quv yurtlarida barqaror internet mavjud emas, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun elektron qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar yetarli emas);
- professor-o'qituvchilarning AKT sohasidagi malakasini kamligi;

- ta'lim muassasasi rahbariyatining o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda bee'tiborligi.

Bunday muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash, seminarlar, videokonferensiyalar, vebinarlar o'tkazish, multimedia kabinetlarini tashkil etish, talabalar o'rtasida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ma'rifiy ishlarni olib borish zarur. Oliy ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etishning eng yaxshi varianti global va mahalliy jahon tarmoqlaridan foydalanish orqali masofaviy ta'limdir.

Maktabgacha ta'limdagi innovatsiyalar

Maktabgacha ta'lim sohasidagi innovatsiyalar eski ta'lim standartlarini modernizatsiya qilish bilan bog'liqdir. Zamonaviy o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish imkoniyatlarini izlashga harakat qilishi lozim. O'qituvchi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim. Innovatsiyalar erta bolalik ta'limi uchun zarurdir. Avvalo, ular otalarning ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beradi. Innovatsiyalarsiz maktabgacha ta'lim tizimi boshqa shunga o'xshash muassasalar bilan raqobatlashishi qiyin. Yangi ta'lim dasturlarini joriy etishdan tashqari, innovatsiyalar boshqa sohalarda ham bo'lishi mumkin. Ularni to'g'ri qo'llash bilan maktabgacha ta'lim tizmi uzluksiz ishlaydi, bolalarning barkamol shaxsini rivojlanishini

ta'minlaydi. Ta'limdagi innovatsiyalarni ifodalovchi texnologiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- loyiha faoliyati;
- talabalarga yo'naltirilgan ta'lim;
- salomatlikni tejaydigan texnologiyalar;
- tadqiqot faoliyati;
- axborot va kommunikatsiya ta'limi;
- o'yin texnikasi.

Salomatlikni tejaydigan texnologiyalarning xususiyatlari Ular maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarini shakllantirishga, chaqaloqlarning jismoniy holatini mustahkamlashga qaratilgan. Ekologik vaziyatning sezilarli darajada yomonlashishini hisobga olgan holda, ushbu innovatsion texnologiyani maktabgacha ta'limga joriy etish dolzarbdir. Metodikani amalga oshirish maktabgacha ta'lim tizimi tomonidan qo'yilgan maqsadlarga bog'liq.

1. Asosiy vazifa - bolalarning jismoniy salomatligini saqlash. Bular salomatlik monitoringi, ovqatlanish tahlili, ta'lim muassasasida salomatlikni tejaydigan muhitni shakllantirish.

2. Nafas olish, ortopedik, barmoq gimnastikasi, cho'zish, qotib qolish, hatha yoga bilan shug'ullanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatlik holatini yaxshilash.

Oddiy nuqsonsiz bolalar bilan ishlashdan tashqari, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishi ham zamonaviy innovatsiyalar bilan ham ta'minlanadi. Maxsus bolalar uchun loyihalarga misollar: "Erkin muhit", "Inklyuziv ta'lim". Bolalarni rivojlantirishda pedagoglar rang, ertak, art-terapiyadan tobora ko'proq foydalanmoqda.

Loyiha faoliyati

Yangi ta'lim standartlariga asosan pedagoglar o'quvchilar bilan birgalikda loyiha faoliyatida faol ishtirok etishlari shart. Uning maqsadi muayyan muammoni hal qilish, ishning dastlabki bosqichida qo'yilgan savollarga javob topishdir. Loyihalarni bir necha turlarga bo'lish mumkin:

- individual, frontal, guruh, juftlik (ishtirokchilar soniga qarab);
- o'yin, ijodiy, axborot, tadqiqot (o'tkazish uslubiga ko'ra);
- uzoq muddatli, qisqa muddatli (davomiyligi bo'yicha);

• madaniy qadriyatlarni, jamiyatni, oilani, tabiatni (mavzuga qarab) kiritish bilan.

Tadqiqot faoliyati

Ta'limdagi innovatsiyalarni tahlil qilganda, tadqiqotda misollar keltirish mumkin. Uning yordamida bola muammoning dolzarbligini aniqlash, eksperimentlar o'tkazish, mantiqiy xulosalar chiqarish va ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar istiqbollari aniqlashni ham o'rganadi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan asosiy usullar orasida: eksperimentlar, suhbatlar, vaziyatlarni modellashtirish, didaktik o'yinlar keng tarqalgan.

AKT. Ilm-fan taraqqiyoti davrida uzluksiz ta'limdagi bunday yangiliklar ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Kompyuter maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, kollejlarda, oliy ta'limda odatiy holga aylandi. Turli qiziqarli dasturlar bolalarda matematika va o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga, mantiq va xotirani rivojlantirishga, ularni "sehr va o'zgarishlar" olamiga kiritishga yordam beradi. Monitorida miltillovchi o'sha animatsion rasmlar chaqaloqni qiziqtiradi, diqqatini jamlaydi.

Masofadan boshqarishda o'yin texnikasi. Ular zamonaviy maktabgacha ta'limning haqiqiy asosidir. GEFni hisobga olgan holda, chaqaloqning shaxsiyati birinchi o'ringa chiqadi. O'yin davomida bolalar turli xil hayotiy vaziyatlar bilan tanishadilar. O'yinlar ko'plab funksiyalarni bajaradi: ta'lim, kognitiv, rivojlantiruvchi. Innovatsion o'yin mashqlari quyidagilardan iborat:

• maktabgacha yoshdagi bolalarga obyektlarning ayrim xususiyatlarini ajratib ko'rsatishda va bir-biri bilan solishtirishga yordam beradigan o'yinlar;

• obyektlarni tanish belgilariga ko'ra umumlashtirish;

• bolalarning haqiqatni fantastikadan ajratishga o'rgatadigan mashqlar

Inklyuziv ta'lim. Sog'lig'ida jiddiy muammolar bo'lgan bolalar to'laqonli ta'lim olish imkoniyati.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va turlari

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda bugungi kun tendentsiyalariga mos bo'lgan ta'lim faoliyati uchun

shart-sharoitlarni, mavjud usullar va vositalarni sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin

2. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning afzalliklari.

Pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning afzalliklari bu loyihalar taqdimoti, loyiha guruhlarini shakllantirish, loyihalarni himoya qilishdir. Talabalarning loyiha faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib talabalarga amaliy, nazariy masalalar yoki turli fan sohalaridagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladigan muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini beradi. Loyihada o'qituvchiga koordinator, ekspert, murabbiy roli beriladi, lekin ijrochi emas. Umuman olganda loyiha bu talabalar tomonidan mustaqil ravishda, lekin o'qituvchi rahbarligida muhim muammoni amaliy yoki nazariy hal qilish maqsadida amalga oshiriladigan qidiruv, tadqiqot, hisoblash, grafik va boshqa turdagi ishlar majmuasidir. Loyiha metodologiyasi yuqori kommunikativlik bilan ajralib turadi hamda talabalarning o'z fikrlarini bildirishlari, real faoliyatda faol ishtirok etishlari, o'qishdagi muvaffaqiyatlar uchun shaxsiy javobgarlikni o'z ichiga oladi. Fikrni ifodalash va idrok etilayotgan narsani tushunish erkinligi uchun sharoitlar yaratiladi. Shuningdek loyihani tayyorlash, loyihalash va taqdim etish an'anaviy topshiriqlarni bajarishdan ko'ra ancha qiziqarli ekanligini ta'kidlash o'rinlidir, ya'ni bu uslub o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quv loyihasi ustida ishlagan holda, talabalar nafaqat turli xil masho'ulotlar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishadi, balki kelgusi kasb uchun tajriba orttirib, ushbu faoliyatni amalda o'zlashtiradilar. So'nggi paytlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning interfaol usullariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan ta'lim muassasasi ta'limda innovatsion maqomga ega bo'la olmaydi. Zero, ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga tashkiliy, didaktik, texnik va texnologik yangiliklarni keng joriy etsa

va shu asosda bilimlarni o'zlashtirish sur'ati va hajmini, shuningdek, kadrlar tayyorlash sifatini real oshirishga erishsa, innovatsion hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 16-moddasi yangi ta'lim texnologiyalariga bag'ishlangan bo'lib, unda elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari nazarda tutilgan. Elektron ta'lim deganda nafaqat "...axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil etish" tushuniladi eng muhimi, "o'qituvchilar va talabalarning o'zaro hamkorligini" tashkil etish, masofaviy ta'lim texnologiyalari deganda esa "...axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari "o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi bilvosita (masofadagi) aloqalarni" tashkil etish. Bunday yondashuv elektron va masofaviy texnologiyalardan interaktiv ta'lim shakllarini tashkil etishda faol foydalanish imkonini beradi, Masalan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, talabalarning loyihalar bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish. Shuningdek, real vaqt rejimida foydalanuvchi va axborot tizimi o'rtasida faol habar almashish imkonini beradi. Interfaol vositalar va qurilmalardan foydalangan holda kompyuterni o'qitish dasturlari, foydalanuvchi va kompyuter o'rtasidagi uzluksiz interaktiv o'zaro ta'sirni ta'minlaydi, o'quvchilarga o'quv jarayonini nazorat qilish, materialni o'rganish tezligini sozlash, oldingi bosqichlarga qaytish va h.k. Bu o'qitish sifati va samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalari, shuningdek, o'qituvchi va talabaning interfaol rejimda o'zaro ta'sirini ta'minlaydi, kognitiv faollikni oshirish, zamonaviy, yangi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi va ko'rish printsipini eng yaxshi tarzda amalga oshirishga imkon beradi. Kompyuter dasturlari o'rganishni qiziqarli va xilma-xil qiladi. An'anaviy metodlar va o'quv qo'llanmalarining kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unligi o'quv faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, mustaqil ishlarni faollashtiradi. Eng katta samaraga o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan vazifalarga muvofiq turli xil o'qitish usullarini tanlashga tizimli yondashish orqali erishiladi. Shunday qilib, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish va faol qo'llash o'qitish metodikasini

o'zgartiradi, bu an'anaviy usullar, uslublar va o'zaro ta'sir usullari bilan bir qatorda o'quvchilarda umumiy madaniy va kasbiy qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalardan foydalanishga imkon beradi. Yangi ta'lim kiritilishi o'qituvchining o'ziga xos shaxsiyatiga bog'liq. Bordovskaya N.V.ning so'zlariga ko'ra: "Eng qat'iy instrumental texnologiya inson mazmuni va ma'nosi bilan to'ldirilishi, unga jon berishi, unga ma'lum darajada mualliflik qilishi, subyektlar, guruhlar yoki jamoalarning individual va shaxsiy xususiyatlarini, sharoitlarni hisobga olishi kerak.

3. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashtirishdagi kompetentligi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularning o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogik an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim. Pedagogik texnologiyaning tom ma'nosini bilish va uning hududimizga mos turini yaratish uchun majmualar nazariyasini to'la egallab olish zarur. Chunki pedagogik texnologiya majmualar nazariyasining qonuniyatlariga yuz foiz suyangan bo'lib, yangicha falsafiy tafakkur, yangicha dunyoqarashni ifoda etadi. Pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDX ga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida ilmiy asoslab bergan Rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, «PT-bu o'qituvchining maxoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsni shakllantirish jarayoni loyihasidir». PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv

bo'lib. Pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy asosini standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'lik hodisadir. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy uslublaridan asosiy farqi, uning to'la-to'kis majmualar nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir. Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublaridan afzalligi, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuaga keltirib, ta'lim bosqichlarini loyihalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim jarayonini baholash kabi qismlarni o'zaro uzviy bog'lab majmuaga keltirib turib, uning loyihasini tuzishidadir. Uning an'anaviy usullaridan keyingi farqi, talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishga yo'naltirilganidadir. Pedagogik texnologiyaning boshqa ta'lim uslublaridan navbatdagi farqi, uning yordamida o'quv jarayonini tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir. Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham, a'lo bo'lmasa-da yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagogik olim metodis va ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. PT- bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarni samarali shakllaniruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmua sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ma'lum sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatilgan ta'sirni nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.⁷ Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining birinchisi-muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish; ikkinchisi maqsaddan kelib chiqib, darsni, ikki o'quv predmetini modullariga ajratib, har bir moduldan kutilgan

⁷ Жанпенсова, Б.Ходжимуратова. Математик тасавурларини шакллантириш. Т.: "Иновация-Зиё", 2020.

maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; uchinchi modul modul ichida yechiladigan masalalarni har biri bo'yicha test savollari tuzilgandan keyin, maqsadlarga yetish usullarini tanlab, ularni ishlatadigan aniq joylarini belgilab olish. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, majmua tamoyillariga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi xalqlarining asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo qilish hamda odil fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soha oldiga qo'ygan ko'rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir. Pedagogika sohasini umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, ya'ni g'oyadan kelib chiqib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyatining talablariga javob beruvchi kishilarni tarbiyalab berishdan iboratdir. O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- Aqlli-mustaqil fikr yurita oladigan;
- Odobli-millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega;
- Mehnatsevar-mehnat kishining ijtimoiy ehtiyojiga aylanganligi;
- Bilimli-diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p chuqur egallab olib, ularni hayotda qo'llay olishi;
- Sog'lom-jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomat;
- Milliy g'ururga ega- ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi;
- Vatanparvar-vatan uchun, xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muhofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi;
- Baynalminal-o'z millati qatorida millatlarni hurmat qiluvchi;

• Insonparvar-inson zotiga faqat yaxshiliklar o'ylovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi;

• Jasur va shijoatli-har bir ishga mardonavor kirishi buni shijoat bilan oxiriga yetkazuvchi;

Bu o'nta ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umum soxaviy metodologiyani birinchi qismi hisoblanadi. Umumiy metodologiyani ikkinchi qismini hamma pedagoglarga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillarini tashkil etadi. Ta'lim uslubi-o'qituvchi va talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirlar. O'qitish uslublari o'quv jarayonini asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchi (talaba)larning bilim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublar: tushuntirish illiyustrativ (informatsion retseptiv), reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot uslublari qo'llanishi mumkin. Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini uzatish, qabul qilish anglash, esda saqlash va amalda qo'llay olishni nazarda tutadi. Hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu uslublarni qo'llashda o'qituvchi (pedagog) so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchi (talaba)lar esa tinglash orqali uni faol qabul qiladilar.

Hikoya. Ushbu uslubda o'quvchilarga beriladigan bilim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Hikoyaning bir nechta turi mavjud: hikoya-muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa. Birinchisining maqsadi- talabalarning suhbatlari orqali yangi bilimni qabul qilishga tayyorlash. Hikoyaning bu turi bayonning nisbatan qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga ehtiyoj uyg'otadi.

Hikoya-muqaddima vaqtida o'quvchi (talaba) faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda habar beradi.

Hikoya-bayon davrida o'qituvchi (pedagog) yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko'rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qilib beradi.

Hikoya-xulosa odatda, mashg'ulotning oxirida kelitiriladi. O'quvchi (pedagog) ushbu uslub orqali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi. Mazkur mavzu asosida mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beriladi.

Hikoya uslubini qo'llashda muayyan pedagogik usullaridan foydalaniladi. Bular diqqatini faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarni ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlardir. Hikoya-samaradorligining shartlari rejani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, misol va ko'rgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayondan kerakli emossionallikka erishish.

Ma'ruza- bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, so'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazi isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi. Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish uzoq vaqt davomida o'quvchi (talaba)larning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, dalillash, isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi. Ma'ruzalar orqali asosan umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litsey, kollej va Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. Ma'ruza rejasi aniq o'ylash va uni texnologiyalashtirish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birini maqsad, yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bulmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, o'quvchi (talaba)larning uning muhim joylarini yoza olsinlar. Shuning uchun ham o'qituvchi (pedagog) ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, zarur bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun takrorlash lozim. Ma'ruza zerikarli bo'lmasligi uchun hamda o'quvchi(talaba)larning fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi (talaba)lar orasidagi suxbatni

ko'zda tutib, ular talabalarning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarini o'zlashtirishga olib keladi. Suhbat uslubini qo'llashda savollarni qo'yish (asosiy qo'shimcha yo'lovchi va h.k) talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzish usullaridan foydalaniladi. Suhbat uslubini va unga tarkibiy qism bo'lib qoluvchi usullardan foydalanishda pedagogning samimiyligi, chehrasining ochiqligi, ruhining ko'tarinkiligi yetakchi o'rin egallaydi. Ta'limning ko'rgazmali uslubini shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali va namoyish qilish usublari. Ko'rgazmali uslub, talabalarga namoyish yetiladigan qo'llanmalar-xarita, harakat, doskadagi chizma va rasmlar, allomalarning sur'ati va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish qilish uslub, odatda, qurilma, asboblari, tajribalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'lik. Namoyish qilish uslubiga, shuningdek, diafilm, kinofilm ko'rsatishni ham kiritishgan. Ko'rgazmali usublarni qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi: Ko'rsatish, yaxshi ko'rinishni ta'minlash, o'tkazilgan ko'rsatuv, namoyish va hokozolar natijalarini muhokama qilish. Keyingi yillarda amaliyotda-ko'rgazma uslubini bir qator yangi vositalar bilan boyiydi. O'qitish amaliyotiga shaffof plyonkada tayyorlangan rasm, chizmalarni sinfni qorong'ulashtirmasdan ko'rsatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va kompyuterlar kirib keldi. Darslarda botman qog'oziga keng flamasterlar yordamida chizilgan, o'rganilayotgan narsa va hodisaning tadrijini birin-ketin ochib berish imkonini beruvchi chizma va sur'atlar qo'llanila boshlandi. O'quv jarayonida filmlardan foydalanishga tayyorlanishda pedagog uni oldindan ko'rishi, namoyish qilish davomida talabalar oldida qo'yiladigan asosiy savollarni tuzishi, darsning tegishli laxzasida ko'rsatiladigan parchalarni, savollarini tuzishi, aloxida parchalarni ajratish lozim. Nihoyat, film bo'yicha yakuniy suhbat rejasini belgilashi kerak. Ta'limning ko'rgazmali uslublarining o'ziga xos xususiyati shundaki ular bilan ifodalash uslubini bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki, ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo'llanishini taqozo etadi.

Amaliy uslublar tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi amalda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifa (maksad)ni qo'yish, uni bajarish uslubini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish.

Amaliy uslublarga yozma mashqlar-ona tili va chet tili, matematika va boshqarish fanlar bo'yicha topshiriqni bajarish mashqlari kiradi. Mashq davomida talaba olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llaydi.

Amaliy mashqlarning konkret turlaridan biri mashqni sharxlash hisoblanadi. Uni bajarishda talaba bo'lajak xatti-harakatni faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi, bo'lajak voqeani sharxlaydi. Harakatni sharxlash talabalarga o'zining tipik xatosini aniqlashga va harakatiga tuzatishlar kiritishiga ko'maklashadi. Amaliy tarbiya uslublarining ikkinchi guruhini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Keyingi yillarda maktab, akademik litsey kasb-hunar kolleji va Oliy o'quv yurtlarida frontal laboratoriya ishlari mustahkam o'rin oldi. Shuningdek, amaliy uslublarga ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish sexlari, talabalar brigadasida mehnat topshiriqlarini bajarish ham kiradi. Bu topshiriqlar o'quv mashq harakteriga ega bo'lish mumkin. Bolada o'quv ustaxonasidagi qog'oz, karton metall bilan ishlash, mashq qildirish, turli asboblardan foydalanish, dastgoh va mexanizmlarni boshqarish va xakozo ishlar bilan bog'lik barcha amallarni kiritish mumkin. Ta'limning shunday usublari ham qo'llaniladiki, bunda o'quv jarayonida konkret bir korxonaning ishlab chiqarish topshirig'i bajariladi.

Tarbiya uslublariga, shuningdek talabalar ovoz yozish va ovozni qayta ishlash apparatlari bilan bajariladigan ishlar ham kiritiladi. Amaliy uslubga o'rgatuvchi mashinalar bilan trenajyor mashinalar va repetitor mashinalar yordamidagi mashq ham kiradi. Bu mashinalar, odatda, o'quv materiallarini dasturlash, uni modullarga bo'lish, har bir modul uchun nazorat savollarini tanlash, javobni mustahkamlash yoki yangi yo'naltiruvchi va yo'llovchi savollarni kiritishni tashkil qiladi. Muammoli- qidiruv usullari ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu usublardan foydalanishda pedagog avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni ,

eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining tug'riligini tasdiqlaydi. Talabalar oldindan bilim va tajribalarga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risidagi takliflarni aytadi. Oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, hodisalarning sabablarini aniqlaydi, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub talabalarning bilimga qizikishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni taxlil qilish, talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari: ta'lim maqsadlarini kuchaytirish, o'quv motivatsiya (qiziqtirish)ni kuchaytirish, ta'lim mazmunidagi axborot sig'imini kengaytirish, ta'limda faol metod va shakllarni qo'llash, o'quv amallarini bajarish sur'atini oshirish, o'quv mahoratini rivojlantirish, ta'limda kompyuter va boshqa texnika vositalarini qo'llash. Lekin, bu an'anaviydagi ishlar manzilga uzoq va notekis yo'l bilan gohida adashib ketayotgan yo'lovchining harakatiga o'xshaydi. Ilg'or davlatlardagi pedagogik texnologiya esa bu ko'zlangan manzilga tezroq borayotgan va qisqa yo'l tanlangan harakatga o'xshaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Texnologiya" va "innovatsiya" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
2. Ta'lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
3. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?
4. Pedagogning innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
5. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish necha bosqichda kechadi?
6. Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni?
7. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning afzalliklari?
8. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashtirishdagi kompetentligi?

5-mavzu: Zamonaviy Maktubgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati

Reja:

1. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirish turlari.
2. Bolalarni har tamonlama rivojlantirishda loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: an'anaviy o'qitish modeli, noan'anaviy o'qitish modeli, rivojlantiruvchi ta'lim, modellashtirish, an'anaviy mashg'ulot, hamkorlikda o'rganish modeli, tadqiqot modeli.

1. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirish turlari.

Ta'limiy loyiha—aniq reja, maqsad asosida pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqish, uning natijasini kafolatlashga qaratilgan harakat mahsuli bo'lsa loyihalashtirish esa boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatlardir. Shunga asosan pedagogik faoliyatni loyihalashtirish turlarini quyidagilarga ajratish mumkin.

-Ta'lim maqsadini loyihalash. Bunda maqsadning qo'yilishi va unga muvaffaqiyatli erishish o'qituvchi uchun qanday ochiq, tushunarli bo'lsa, o'quvchi va ota-onalar uchun ham shunday bo'lishi lozim. Maqsadni qo'yish va loyihalashtirishda yetarlicha yordamchi so'zlardan o'rinli foydalanish.

-Ta'lim shaklini loyihalashtirish. Bizga ma'lumki, ta'lim individual, guruhli va frontal shakllarda amalga oshiriladi. O'qituvchi aynan ana shu shakllarda o'quvchilarga ta'lim mazmunini yetkazadi. Shuning uchun, har doim o'qituvchi "Nimani, qachon, qayerda o'rgatish"ni loyihalab olishi zarur.

-Ta'lim mazmunni loyihalashtirish. Ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlarida, fanning o'quv dasturida ko'rsatilgandek darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, o'quv-uslubiy majmualarda o'z aksini topadi. O'qituvchi mazmunni loyihalashtirishda oddiydan murakkabga, osondan qiyinga tamoyilini hisobga olib, o'quvchi

tushuna oladigan tilda, bajara oladigan topshiriqlar asosida yetkazishi va o'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirishga erishishi lozim.

-Ta'lim metodini loyihalashtirish. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda turli noan'anaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanilmoqda. Ta'lim metodini loyihalashda o'qituvchi qaysi mazmunni qanday an'anaviy, interfaol metoddan foydalanib, qancha vaqt davomida qanaqa tartibda yetkazib berishni loyihalaydi.

-Ta'lim vositalarini loyihalashtirish. Ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi, o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish, o'rganish, shu bilan birga ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar ta'lim vositalari bo'lib, o'qituvchi dars mazmunining qaysi qismini, qanaqa vositadan foydalanib, qanday yetkazib berilishini loyihalaydi.

-Ta'lim nazorat va baholashni loyihalashtirishda ta'limni oldindan kutilgan, natijasiga erishish, ta'lim natijasi monitoringini olib borish, nazorat qilish, tashxislash va to'g'rilab borishni nazarga tutib, joriy, oraliq yakuniy baholash mezonlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

O'qituvchi tomonidan tayyorlanadigan loyihalar - dars ishlanmalarida, texnologik xaritalarda, o'quv-uslubiy majmualarda o'z aksini topadi.

2. Bolalarni har tamonlama rivojlantirishda loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.

Bolalarni har tamonlama rivojlantirishda mashg'ulotlar jarayonida ananaviy hamda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida interfaol mashg'ulotlarni tahlil qilishimiz mumkin:

1. O'quv reja asosida interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun ta'loim oluvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy

tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda ta'lim oluvchilar mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida A.Navoiy o'zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o'quvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...". Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llanilib kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib yetishishlariga xizmat qilgan.

Hozirda interfaol mashg'ulotlarni olib borishda asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Xulosa qilib uni quyidagicha ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir pedagog tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi - har bir pedagog barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Ta'lim jarayonini sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillar mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda tarbiyachiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- Pedagoglardan trenerlar guruhini tashkil etish;
- Tarbiyachilarga mashg'ulotlarni tashkil qilishni o'rgatish;
- O'quv xonasi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- Ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

-Sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;

-Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;

-Davomatni va intizomni saqlash;

-Nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS hamda DS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-Mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-Interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-Mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-Zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

-O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

-Interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

Tarbiyachiga tegishli salbiy omillar:

-Mavzuni sayoz bilishi;

-Nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

- O'zini tutishi hamda pedagogik xulqidagi nuqsonlar;
- Kiyinish madaniyati va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;
- Ta'lim vositalaridan unumli foydalana olmasligi;
- Kuzatuvchanlik, vaqtni taqsimlash ko'nikmasi yetishmasligi;
- Tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;
- O'quvchiga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;
- Mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

O'quvchilarga tegishli salbiy omillar:

- Davomat pastligi hamda mashg'ulotga kechikib kelishi;
- Kerakli tayyorgarliksiz kelishi;
- Ilmiy terminlarni bilmasligi;
- Diqqatni jamlay olmasligi;
- Eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- Qiziqish va fikr yuritishning sustligi;
- Mashg'ulot yuzasidan tayyorgarlik darajasining pastligi;
- Manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli salbiy omillar:

-Ta'lim vositalarining yetishmasligi yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-Mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vosita turlari va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-Vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;

-Vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham mumkin.

Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

2. **Moderator** – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

3. **Trener**–o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

4. **Tyutor**—masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.
5. **Fasilitator**—darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
6. **Mentor**—ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
7. **Kouch**—ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy masho'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
8. **Konsultant**—maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.
9. **Lektor**—nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
10. **Ekspert** — kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
11. **Innovator**—yangiliklarni ta'lim mazmuni va masho'ulotlar jarayoniga joriy qilish.
12. **Kommunikator**—o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.
13. **Tarbiyachi**—mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmuni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.
14. **Menejer**—tashkiliy—pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.
15. **Spekter**—kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
16. **Assistent**—mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.
17. **Sekretar**—zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.
18. **Texnolog**—pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.
19. **Metodist**—ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.
20. **Koordinator**—loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

21. **O'quvchilar** – ta'lim oluvchilar.
Mashg'ulot jarayonida vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun kerakli vositalarni to'g'ri tanlash hamda vazifalarni aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Nazorat uchun savollari:

1. O'quvchilarning bilim darajasini oldindan tashhis qilish mumkinmi?
2. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyilining mohiyatini yoritib bering?
3. Ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini qanday baholaysiz?
4. O'quvchida bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj (rag'bat)ni qaror toptirish mumkinmi?
5. Bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni hosil qilishning qanday yo'llari mavjud?
6. O'quvchilar jamoasiga nisbatan beqaror munosabatda bo'ladigan o'qituvchilarga sizning munosabatingiz qanday?
7. Interfaol metodlar nima?
8. dars jarayonidagi texnologik yondashuvlar?

6-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish

Reja:

1. Maktabgacha ta'limda bolalarning yosh xususiyatlari.
2. Qurish yasash faoliyatini loyihalashtirish.
3. Qurish yasash faoliyati orqali matematik bilimni shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: Qurish yasash, elementar matematika, qurilish materiallari, sanoq cho'plar, legolar, geometrik shakllar, yosh davrlari, qo'shiq, jarayon, loyiha.

1. Maktabgacha ta'limda bolalarning yosh xususiyatlari.
Maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga nisbatan turlicha yosh xususiyatlariga ega.

Ilk yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bir yoshdan ikki yoshgacha bolaning hulqi va boshqalar aytgan

so'zlarni tushunish qobiliyati jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgarar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi. Bu davrda bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi. Shu sababdan ham unga huddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshda bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan huddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilishi lozim.

3 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg., bo'yi 90-95 sm. ga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar tezda o'z harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ulardagi mustaqillik ortib, hissiyot va sensor idroki rivojladi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida olib boriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat va qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etib faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi.

4 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashib bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanib, katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'lib, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi.

Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

5 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari
Bu davrda bolaning bo'yi 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanib, og'irligi 20-22 kg.ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi sabab tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashadi ammo muskullari hali yetarli darajada mustahkam bo'lmaydi.

6 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari
Olti yoshda bolaning miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shu sababli ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikrini ifodalashi uchun yetarli bo'lishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.⁸

7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari
Bu yoshda unda harakatlar ko'lami kengayib aniqlashadi va uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish, shuningdek o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu davrda o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanib kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi, og'irligi esa 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshdagi bola chiniqadi va qiziquvchan bo'lib, o'z salomatligini nazorat qila oladi.

⁸ Ф.П. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

Uning idrok kuchi, tafakkuri jadal rivojlanib, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola ham maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi lozim. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. O'qituvchining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 7 yoshli bolalarni qabul qiladigan maktablar, bu bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

2. Qurish yasash faoliyatini loyihalashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi. Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori⁹ hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilo'or xorij tajribalarini tadbir

⁹ Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori

qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,

1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi.

2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan boo'liq masho'ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika masho'ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash masho'ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish masho'ulotlari)¹⁰

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazid bolalarning sensor tarbiyasi va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Bol biror bir vazifani bajarish orqali ham qurish-yasash hamd matematika bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolal o'yin jarayonida tinglansa "Menga yashil rang kerak", "Me yasagan uycha ikki qavatli", "Seniki kichkina, meniki esa kattakon

¹⁰ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

“Meni mashinamga 10 ta odam sig‘adi” degan jummalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni – o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘shib qo‘yish mumkin. Tajribalarga ko‘ra, "lego" toifasidagi yio‘ma o‘yinchoqlarni bolalar yaxshi ko‘rishadi. "Lego" ularga qanday qilib kichkina qismlardan katta va murakkab qurilmalarni yasash mumkinligini tushunib olishda ko‘maklashadi.

3. Qurish yasash faoliyati orqali matematik bilimini shakllantirish.

Asosiy matematik qonuniyatlarni bilish bugun deyarli hamma uchun kerak. Ko‘p kasblar bevosita matematika bilan bog‘liq. Moliya, kompyuter texnologiyalari, injeneriya va boshqalar. Shuning uchun ham, garchi bu oson bo‘lmasada, farzandlarimizga “fanlarning shohi”ni ya‘ni matematikani o‘rgatish juda muhim. Bolada matematikaga ilk qiziqish konstruktor yio‘ish jarayonida paydo bo‘ladi. Bu fikrga aksariyat ota-onalar qo‘shilishsa kerak. Aynan qurish yasash markazida olib boriladigan ta‘limiy va o‘yinli faoliyatlar bolalarni matematikaga qizishini uyg‘otadi. Qurish-yasash o‘yinlari har doim ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan o‘yinlar bo‘lib, bolalardan murakkab o‘quv, malaka va bilimlarni talab qiladi. Bunday o‘yinlarida bolalar turli narsalarning detallarini (ya‘ni ayrim qismlari) faqat tashqi tomondan emas, balki ichki tomondan ham o‘zaro uzviy bog‘liqligini bilib oladilar. Odatda biron bir narsani qurish-yasashga kirishishdan avval ya‘ni konstruksiyalashdan oldin unga sinchiklab qarab va diqqat bilan idrok qilinadi. Shundan

keyin kerakli qismlarni yig'ib ishga kirishadilar. Qurish-yasash o'yini rasm chizish yoki applikatsiyaga nisbatan qaraganda bolalardan butunlay boshqa malaka va bilimni talab qiladi. Shuning uchun ham qurish-yasashga bolalar juda qiziqsalarda ilk yoshdagi bolalar bu ishning uddasidan chiqa olmaydilar. Ularga ayrim malaka, epchillik, tajriba yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalar yog'och va taxtachalarni ustma-ust qo'yib, ko'priikka o'xshagan narsalar yasashdan nariga o'ta olmaydilar. Kattaroq yoshdagi bolalar esa rasmga qarab turli narsalar yasashni uddasidan chiqa oladilar. Odatda qurish-yasash faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi:

Qurish-yasash ishlari.

- a) andozaga qarab qurish-yasash;
- b) ma'lum bir shart yoki ko'rsatmalar asosida qurish-yasash;
- d) tasavvurlarga tayanib qurish-yasash.

Qurish-yasash ishlarida bolalar yolg'iz o'zi yoki jamoa asosida shug'ullanishlari mumkin. Har ikki holatda ham qurish-yasash faoliyati bolalarning idroki, diqqati, kuzatuvchanligi, xotirasi va tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar qurish-yasash o'yinlarida bolalarga ko'rsatma va yo'llanma berishi kerak. Kattalar bolalarning ishini baholashi va boshqa bolalarni ish jarayoni natijasi bilan qiyoslashi - bolaning o'z harakatlarini to'g'ri nazorat qilishiga va o'z bilim va imkoniyatlarini baholashiga sabab bo'ladi. Bajarilgan o'quv topshirig'iga nisbatan bolalarning o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmalari yuzaga keladi. Ko'p hollarda maktab yoshiga yaqinlashib qolgan bolalar o'zlari istamagan holatda, oson tuyilgan topshiriqlarni bajaradilar va bola nuqtayi nazaridan qaraganda, erishilgan bilim va qobiliyat darajasiga mos keladigan natijalarga intiladilar.¹¹ «Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari»da bolaning rivojlanishi va bilim egallashiga oid nazariy tamoyillar bolaga yo'naltirilgan amaliyot O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «Maktabgacha ta'limni rivojlantirish» loyihasida (Maktabgacha muassasalar hodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o'quv-metodika Markazi tomonidan 2012 yili ishlab chiqilgan) maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va bilim

¹¹ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

olishiga oid quyidagi nazariy tamoyillar, bolaga yo'naltirilgan amaliyotda (BYA) juda muhim sanaladi.¹² Mazkur tamoyillar J.Piaje, L.S.Vigotskiy, Erikson va boshqalarning ilmiy qarashlariga asoslangan. Tamoyil amaliyot bolalarning jismoniy holati va ruhiy ehtiyoji inobatga olingan bo'lsa va bolalar o'zlarini xavfsiz his qilsalar, yaxshi bilim oladilar. BYA bolalarning biologik ehtiyojini inobatga oladi. Masalan, bolalarni uzoq vaqt davomida yozuv, chizuvga yoki kattalarning ma'ruzasini tinglashga majbur qilinmasligi kerak. BYA bolalarni faol o'yinlar va dam oladigan sokin mashg'ulotlarda bilim beradi. Hamma bola bir xil qabul qilgandagina muhitni xavfsiz deb atasak bo'ladi. Bolalar bilimni yaratishadi. Bilim – shaxs hamda jismoniy va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqaga kirishi bilan yaratiladi. Bola esa bilimni faol tajribalar o'tkazish orqali kashf qiladi. Tajribaga yo'naltirilgan «mazkur xatolar» bolaning aqliy rivojlanishida juda muhim hisoblanadi. Bolalar aqlni ishga solib o'zining shaxsiy faraz va jismoniy turtkilarini yaratadi, atrofni kuzatib, solishtirib, savollar berib va javoblar kashf qiladi va yangi ma'lumotni qabul qilish uchun aqliy farazni moslashtiradi.



Nazorat uchun savollari:

1. Tarbiyaviy ishlar va ularning tashkil etish hamda boshqarishning nazariy aspektlari nimalardan iborat?
2. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga qandan odatlanish mumkin?

¹² Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori

3. Ma'naviy qo'llab-quvvatlash vao'z kuchiga ishonchni mustahkamlash yo'llarini bilasizmi?
4. Markazlar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
5. O'quvchi imkoniyatlarni namoish etishda tarbiyachi harakatlarini izohlab bering?
6. Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar?
7. Rivojlanishning asosiy mazmuni nima?
8. Bola shaxsini rivojlanishida tarbiyaning mohiyati?
9. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini gapirib bering?
10. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishi nima?

7-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markaz faoliyati haqida tushuncha
2. Syujetli-rolli o'yinlar turlari.
3. Sahnalashtirishga raxbarlik qilish.

Tayanch so'z va iboralar: Markaz, ertak, aktyorlik mahorati, niqoblar, syujet, rol, jihozlash, ertak qahramonlari rasmlari, kiyimlari.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markaz faoliyati haqida tushuncha.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markazi bolalarning iqtidori namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay hisoblanadi. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz ham deyish mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi

muhitni o'rganish) imkoniyatini beradi. Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va hayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir.

Bolalar biror bir narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan, bolalar "paroxod" o'yinini o'ynamoqchi bo'lishdi. Bunda o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda dastavval g'oya paydo bo'lib, keyin mazmun rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masol uchun Afrikaga bormoqchi bo'lsalar, sayohat uchun kerakli ishlarni oldindan belgilab oladilar.¹³

Bundan ko'rinib turibdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega bo'lib bunda bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar.

Rolli o'yinda har bir bola o'zi tanlagan rolni bajaradi masalan, ona, haydovchi, tarbiyachi, enaga, san'atkor va hokazo.

2. Syujetli-rolli o'yinlar turlari.

Rolli o'yinlarda didaktik, qoidali - harakatli o'yinlardagi kabi qat'iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda asosan bolalar o'zi hayol qilgan narsalar asosida harakat qiladilar. Misol uchun "Raketada oyga uchadilar", "Paroxodda suzadilar", "Kasalni davolaydilar". Shunga qaramasdan bolalarning hayollari bilan o'ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi? degan savol tug'iladi, yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yaxshi biladilar.

Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlarini barchasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan, "Shifokor" rolidaga bola kasal to'g'risida qayg'uradi.

O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchi hamda bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Rolli o'yinlarining mazmun mohiyati yoki uning mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uni tuzilishi hamda o'yin shartlari ham o'zgaradi, bunda bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi.

¹³ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

Avvaligi bolalar alohida o'ynaydilar ammo sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yin jarayonida kishilar orasidagi munosabatni aks ettirish bilan birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga kichik guruhlarda 2-3 kishidan iborat bo'lib o'ynaydilar. Ular katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

O'yinda har xil rollar bolalarning o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

O'yinning tuzilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi turlichadir. Uch yoshga to'lgan bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola qo'g'irchoqni va o'zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan, deb so'rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi. Yoki qizcha qo'g'irchog'iga ovqat pishiryapti. "Sen kimsan?"- degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi.

Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga qo'g'irchog'iga ovqat berishadi, uxlashga yotqizishadi, mashinada tortishadi.

Uchinchi yoshning oxiriga kelib bola o'zi uchun rol tanlay boshlaydi. "Men oyisiman", "Men – shifokorman" deb ular enaga, tarbiyachi, shifokor bo'lib qolishi mumkin.

Bola to'rt yoshga qadam qo'yganda syujetli-rolli o'yinlar ancha rivojlana boshlaydi. O'yinlarning mavzui har xil bo'lib, boyib boradi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, MTMni, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar.

Bola tevarak-atrofni kuzatishi natijasida tasavvurlari kengayib, ularning o'yin mazmuniga ta'sir etadi: bayramlar, magazin, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Biroq bu yoshda ular hayotdagi voqealar orasidagi bog'liqliklarni hali tushunib yetolmaydilar.

Bola besh yoshga to'lganda uning kuzatuvchanlik tafakkuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o'yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Hayolning rivojlanib borishi bilan ertak va hikoyalarning mazmuni bo'yicha murakkab bo'lmagan o'yinlarni

o'ynashadi.

O'yin mazmuni bilan bir vaqtda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Odatiy hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo'ladi. O'yin jarayoni birinchidan, xursandchilik bilan hamohang kechadi. Ikkinchidan esa bolalar kattalarning hislarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o'yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zi eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, ko'nikma, malakalarini, his-hayajonlarini to'la qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'lim- tarbiyaning natijasi yaqqol ko'rinib, sezilib turadi.¹⁴

Bolalar bir-biri bilan kim bilan o'ynashi yoki o'yinning qanday borishi to'g'risida o'zaro kelishib oladilar. O'yinlarning davomiyligi ham uzoqroq davom etadigan bo'lib boradi. Bitta o'yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun ham o'ynashi va har gal unga yangilik kiritib borishi mumkin.

Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga kelib, o'z qoidasiga ega bo'ladi. Bolalardagi birgalikdagi ijod qilish qobiliyatlari rivojlanib, ular o'rtoqlarining fikri bilan kelishib, fikriga quloq soladigan bo'lib boradi.

Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Har bir bolaning o'ziga xos xususiyati bor. Shuning uchun ham bolalar faol tashkilotchi, o'ziga ishonadigan va aksincha, tortinchoq, indamaslarga bo'linadi.

O'yin inson o'zligi namoyon bo'ladigan jarayondir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamrohi" ham deyish mumkin. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini hisoblanadi. O'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun keng foydalaniladi. Zero:

¹⁴ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

- O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- O'yin bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- O'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- O'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkoniyani beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarni boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarini tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biri hisoblanadi. Ko'pchilik bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga hohish va qiziqish bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilanoq bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Yetakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik proseslari anchagina o'sadi. O'yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin. O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo'ladi. Chunki o'yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutqi, xayoli, hissiyoti, mehnatga oid malakalari va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

3.Sahnalashtirishga raxbarlik qilish.

Bunday o'yinlarda bolalar o'zlarining qiziqishlarini to'g'ridan-to'g'ri qondirish, dunyo haqidagi g'oyalarini tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun men hamma narsani emas, balki asosiy narsani, faktlar yig'indisini, ularni yaxlit tushunishni, maksimal ma'lumot berishni emas, balki uning oqimida qanday harakat qilishni o'rgatish, mustahkamlash uchun maqsadli ish olib borishga intilish lozim. Ta'limni rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir modelig muvofiq tashkil etadi, unga ko'ra bola ta'lim obekti emas, balk

ta'lim subekti hisoblanadi. Bolalar bilan ishlashda loyiha va tadqiqot faoliyati usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Loyiha usuli har doim bolalarning mustaqil faoliyatiga qaratilgan - bolalar ma'lum vaqt davomida bajaradigan individual, juftlik, guruhidir. Loyiha usuli har doim qandaydir muammoni hal qilishni o'z ichiga oladi, bu bir tomondan, turli xil usullar, o'quv qo'llanmalaridan foydalanishni, ikkinchi tomondan, turli bilim va ko'nikmalarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bolalarning yoshga bog'liq psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, loyihani amalga oshirishning bosqichma-bosqich rejasini ishlab chiqish, unda ushbu sohadagi ishlarning eng yorqin shakllari aks etadi. Loyihaning maqsadlariga qarab pedagog o'quvchilarning oilalari bilan yaqin hamkorlikda loyihalar ustida ishlashga harakat qilishi lozim. Ana shunda reja - loyihani birgalikda muhokama qilib, kelgusidagi ishlarni amalga oshirishga qaratilgan ota-onalar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirokchi va yordamchiga aylandilar.



Nazorat uchun savollari:

1. Syujetli-rolli o'yinning bola hayotidagi ahamiyati?
2. Sahnalashtirishning o'ziga xos jihatlari?
3. Markazning jihozlanish qoidalari?
4. Bolalarning maxsus kiyimlari?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markaz faoliyati haqida tushuncha?
6. Syujetli-rolli o'yinlar turlari?
7. Sahnalashtirishga raxbarlik qilish?
8. Sahna madaniyati haqida tushuncha?

8-mavzu: Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish

Reja:

1. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi haqida tushuncha.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish.
3. Nutqiy faoliyatni loyihalashtirish usullari

Tayanch soʻz va iboralar: korreksion pedagogika, rivojlanish, nuqson, fan, tushuncha, malaka.

1. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi haqida tushuncha.

Mazkur markazdagi faoliyatlar tahliliga toʻxtaladigan boʻlsak, til va nutq markazida bolalarning doʻstlari orasida oʻz fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud boʻladi. Bola markazda oʻzi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin. Bu markaz bolalar bilan ish olib borish uchun tarbiyachi pedagog korreksion pedagogikadan habardor boʻlishi lozim.

Til-insoniyat jamiyatida tabiiy ravishda paydo boʻlgan, eng muhim aloqa vositasi boʻlib xizmat qiluvchi ijtimoiy moʻljallangan belgilar tizimidir.

Tilning imo-ishora tizimi tovushlar toʻplami (ifoda rejasi) va maʼnolar majmuasi (tarkib rejasi) oʻrtasidagi muvofiqlikni oʻrnatishdan iborat.

Til ikki shaklda mavjud: ogʻzaki va yozma. Tovush shakli yozma shaklga nisbatan birlamchi hisoblanadi.

Nutq- bu ogʻzaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan oʻziga xos nutq boʻlib, uni amalga oshirish til vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

«Nutq» tushunchasi «nutq faoliyati» tushunchasiga nisbatan kengroq boʻlib, birinchisi ham nutq jarayoni (nutq faoliyati), han uning natijasi (nutq ishlari) tushuniladi.

NUQT	TIL
aloqa jarayoni	aloqa vositalari
vaziyatga va kontekstga bog'liq (ya'ni motivatsiyalangan)	vaziyatdan, aloqa muhitidan mustaqil (ya'ni motivatsiyasiz)
qasddan va aniq maqsad sari yo'naltirilgan	Etiborsiz
moddiy, o'ziga xos vaqt ichida ochiladi va kosmosda amalga oshiriladi	mukammal, mavhum haqiqatning ushbu parametrlaridan mavhum haqiqat qiymati qo'llanilmaydi
haqiqat hodisalari bilan bog'lanishi va haqiqat yoki yolg'on nuqtai nazaridan baholanishi mumkin	
tasodifiy va tartibsiz elementlarga ruxsat beradi	Muntazam
O'zgaruvchan	nisbatan o'zgarmas (bir mavjudlik davrida)
Chiziqli	darajadagi tashkilotga ega
Cheksiz	Cheklangan
Muvofiq	Salohiyat
Faol	Passiv
dinamik, mobil	statik, barqaror
sub'ektiv	Obektiv
Individual	Ijtimoiy
shaxsning tajribasini aks ettiradi	jamoat tajribasini qamrab oladi
O'zboshimchalik bilan	majburiy (majburiy)

TIL FUNKSIYALARI:

1. Aloqa vositalari (aloqa oluvchiga qarab, bu funktsiyaning turlari farqlanadi: kommunikativ (odamlar bilan aloqa vositalari) va sehrli.

2. Og'zaki badiiy obrazlar yaratish vositasi.

3. Tuyg'ularni, shaxsning ichki holatini va irodasini ifodalash vositasi.

4. Bilim vositalari.

5. Til quyi tizimlarining yangi birliklarini hosil qilish vositalari.

6. Ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash va saqlash vositasi.

NUTQ FUNKSIYALARI:

1. Aloqa jarayonini amalga oshirish (funktsiyaning navlari: kommunikativ (odamlar bilan muloqot qilish jarayonini amalga oshirish) va sehrli.

2. Badiiy obrazlar, asarlar yaratish jarayonini amalga oshirish (estetik funktsiya).

3. Tuyg'ularni, shaxsning ichki holatlarini va irodasini ifodalash jarayonini amalga oshirish.

4. Bilish jarayonlarini amalga oshirish.

5. Til quyi tizimlarining yangi birliklarini hosil qilish jarayonlarini amalga oshirish.

6. Jamoat tajribasi va bilimlarini to'plash va saqlash jarayonini amalga oshirish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish.

Bugungi kunda barcha defektologlar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolalarning yoshi, nuqsonlar o'rnini to'ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash- sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksionprofilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va

korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim das turiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi vo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.¹⁵

O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli tarbiyachilar tomonidan o'qitish munosabati yuzaga keladi. Bu orqali ularda kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari shakllana boshlaydi. Masalan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan tarbiyachilarni ajratmaydilar, balki ularni ko'proq hurmat qiladilar, yaxshi ko'radilar va ular bilan bo'ladigan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar. 10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadi.

Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik yoshlar o'zlariga shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari ularning o'z-o'ziga bergan bahosi differensial xarakterda (xulqatvor, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishi va ayrim xatti-harakatlar) namoyon bo'la boshlaydi. Pedagogika oliy o'quv yurtida bo'ijak tarbiyachilarni psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish talabalardagi o'z kasbiga bo'lgan psixologik qarashni qayta qurish hamda "ideal tarbiyachi" obraziga tayangan holda olib borilishi zarur. Kasbiy faoliyat bo'ijak tarbiyachi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi sababli talabalarning uzluksiz amaliyotda qatnashish jarayonini sifat va miqdor jihatdan kuchaytirish lozim.

3. Nutqiy faoliyatni loyihalashtirish usullari.

Tarbiyalanuvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri ostida uning ruhiy dunyosiga umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonmaslik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyo'ular namoyon bo'ladi. O'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonmaslik,

¹⁵ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida ayrim yoshlar juda zararli oqimlarga – aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo'shilib qolishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yo'llarga kirib qolishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot doirasi kengayadi, bu boladan muloqot vositalarini to'liq o'zlashtirishni talab qiladi, ularning asosiysi nutqdir. Bola faoliyatining tobora murakkablashishi nutqni rivojlantirishga ham yuqori talablarni qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bir necha yo'nalishda boradi: uning boshqa odamlar bilan muloqotda amaliy qo'llanilishi takomillashtirilmoqda, shu bilan birga nutq aqliy jarayonlarni qayta qurish uchun asos, fikrlash vositasi bo'ladi. Bolalarning nutqini rivojlantirish tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Tilni o'zlashtirish aqliy rivojlanishning muhim shartidir, chunki ontogeneza bolaning tarixiy tajribasining mazmuni umumlashtiriladi va nutq shaklida va birinchi navbatda, so'zlarning ma'nolarida aks etadi. So'z boyligini o'z vaqtida rivojlantirish maktabga tayyorlashning muhim omillaridan biridir. So'z boyligi etarli bo'lmagan bolalar o'z fikrlarini ifodalash uchun to'o'ri so'zlarni topa olmay, o'rganishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, so'z boyligi boy o'quvchilar arifmetik masalalarni yaxshiroq yechishadi, o'qish ko'nikmalarini, grammatikani oson o'zlashtiradilar, darsda aqliy mehnatda faolroqdirlar. Bolalarning so'z boyligini rivojlantirishda maktabgacha yosh ikki tomoni bor: lu'o'atning miqdoriy o'sishi va uning sifat jihatdan rivojlanishi, ya'ni so'z ma'nolarini o'zlashtirish. Maktabgacha yosh - so'z boyligini tez boyitish davri. Uning o'sishi hayot va tarbiya sharoitlariga bog'liq, shuning uchun adabiyotda bir xil yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning so'zlari haqidagi ma'lumotlar juda katta farq qiladi. Ot va fellarning soni ayniqsa tez ortadi, ishlatiladigan sifatlar soni sekinroq o'sadi. Bu, birinchidan, tarbiya sharoiti (kattalar bolalarni predmetlarning belgi va sifatleri bilan tanishtirishga unchalik ahamiyat bermaydilar), ikkinchidan, sifatdoshning nutqning eng mavhum qismi sifatidagi xususiyati bilan izohlanadi. Birinchi so'zlar juda o'ziga xos bo'lib, ular polisemantizm bilan ajralib turadi. Bu birinchi so'zlar, aslida, hali

so'z emas. Haqiqiy so'z obektning belgisi sifatida tuo'iladi va ob'ektga ishora qiluvchi imo-ishora bilan bevosita bog'lanadi. 4-5 yoshdan so'ng nutq so'zlaydigan bolalar yangi so'zni bitta emas, balki ko'plab obektlarga bog'laydilar. Kattalardan tayyor so'zlarni o'zlashtirib, ular bilan ishlashda bola hali ular ifodalagan barcha semantik tarkibni bilmaydi. Bolalar so'zning mavzu bilan bog'liqligini o'rganishlari mumkin, ammo uning orqasida joylashgan abstraktsiyalar va umumlashmalar tizimi buni o'rgana olmaydi. So'zlarning majoziy ma'nolari bolalar tomonidan darhol o'zlashtirilmaydi. Birinchidan, asosiy ma'noning assimilyatsiyasi mavjud. Bolalar so'zlarining ma'nolari dinamikdir. L.S. Vigotskiy atrofda dunyoning obektlari va hodisalariga bir xil munosabatda bo'lgan bir xil so'z bola uchun "vosita" ekanligiga e'tibor qaratdi. Turli yoshdagilarva turli darajadagi rivojlanish darajasi har xil. 3-5 yoshli bolada so'zlarning mavzuga oid aniq munosabatini va ularning o'ziga xos ma'nolarini o'zlashtirish jarayoni markaziy o'rinni egallaydi, 5-6 yoshda esa dunyoviy tushunchalar tizimi; lekin qaysilarida emotsional-majoziy, vizual aloqalar hali ham hukmron. Shunday qilib, o'ziga xos boo'liq shaklda so'zning ma'nosi tushunchadan oldin paydo bo'ladi va uning shakllanishi uchun zarur shartdir. So'z bilan ifodalangan tushuncha voqelikning umumlashtirilgan tasviri bo'lib, bola rivojlanishi bilan o'sib boradi, kengayadi, chuqurlashadi, uning faoliyat doirasi kengayib, rang-barang bo'lishi bilan u muloqotga kirishadigan odamlar va ob'ektlar doirasi kengayadi. Rivojlanish jarayonida bolaning nutqi hissiy vaziyatga boo'liq bo'lishni to'xtatadi.

Nazorat uchun savollari

1. Ta'lim texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Til va nutq faoliyati qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
3. Diagnostika so'zi qanday ma'noni anglatadi?
4. Rivojlantiruvchi til va nutq markazida ishlash usullari qanday?
5. Rivojlantiruvchi til va nutq markazining avfzalliklari nimada deb o'ylaysiz?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish?

7. Nutqiy faoliyatni loyihalashtirish usullari?
8. Nutqiy faoliyatni shakllantirish yo'llari?

9-mavzu: Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish.

Reja:

1. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsad va vazifalari.
2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlari va usullari.

Tayanch so'z va iboralar: o'yinli texnologiyalar, nazariy aspekt, tadbirkorlik o'yinlari, o'yin funksiyalari, o'yin tuzilmasi, pedagogik o'yin, sotsial-psixologik muammolar, muammoli o'qitish texnologiyasi.

1. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsad va vazifalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish shakllari natijalariga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko'nikmalarni hosil qilish tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi. Bola rasm chizish jarayoniga qiziqsa va chiroyli chizishga harakat qilsa, bunday jarayon o'yin yoki samarali harakat hisoblanadi. Lekin qachonki bola rasm mashg'uloti vaqtida o'z oldiga ma'lum maqsad qo'ysa, bu harakatlar ta'lim ko'rinishiga ega bo'ladi. Misol uchun, avvalgi chizgan rasmlariga nisbatan yaxshiroq rasm chizish, rasmni to'g'ri bo'yash yoki tekis chiziqlar chizish ham shunday harakat turlariga kiradi. Ta'lim olishni bolalar oldingi avlod tajribalari, bilim va ko'nikmalarining aksariyat qismini kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko'rsatmalarini bajarish davomida o'zlashtiradi. Shu bilan birga o'yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqotlar ham bolaning bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi. Kattalarning bola bilan har xil uslubdagi muloqotlari negizida ta'lim yotadi. Ammo u bolaning rivojlanishida sistematik

xarakterga ega bo'ladi. Bolalar ijtimoiy ta'lim va tarbiya sharoitidagi muayyan dasturlar asosida tashkil qilingan mashg'ulotlarda ta'lim oladilar. O'yin usullari hamda samarali topshiriqlardan foydalanish ayniqsa muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga mashg'ulotlar vaqtida bolalar to'liq va sifatli bilim va ko'nikmalar hosil qilishi, tarbiyachini tinglashi va uning ko'rsatmalarini to'g'ri bajarishi lozim.

Mashg'ulotlar orqali bilim berish o'quv faoliyatini boshlang'ich qoidalarini egallash demkadir. O'quv faoliyati bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllanishini va o'rganish qobiliyatini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Atrof-muhit haqidagi xilma-xil ma'lumotlar bolada qiziquvchanlik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kattalar tomonidan gapirib berilgan va ko'rsatilgan narsalar yoki bolaning o'z ko'zi bilan ko'rganlari ham unda yangiliklarga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin. Maktab yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning o'sishi, aksariyat hollarda ular tomondan berilayotgan savollar soni va ular turini o'zgarishida namoyon bo'ladi. Uch-to'rt yoshli bolalar savollari yangi bilim olishga, tushunarsiz narsalarni aniqlashtirishga qaratilgan bo'lsa, maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar savollarini aksariyat qismini quyidagi savollar tashkil qiladigan bo'ladi. Turli xil hodisa sabablariga, ular orasidagi bog'liqlikka qiziqishi sababli «Nimaga yomg'ir yog'yapti?»; «Nima uchun o'simliklarni sug'orish kerak? »; «Nimaga shifokor kasalni urib, eshitib ko'radi?»; «Yulduzlar qayerdan paydo bo'ladi?»; «Traktorga kichik uyni joylashtirsa olib keta oladimi?»; «Agar barcha suvlar dengizga quyilsa, keyin ular qayerga g'oyib bo'ladi?». Bu olti yoshli bolaning doim berishi mumkin bo'lgan savollarining kichik ro'yxatidir. Shunday bo'lsada qiziquvchanlik bolani o'qishga, sistematik tarzda bilim olishga hali tayyorligini ta'minlay olmaydi. U yoki bu hodisaga qiziqish bolada tez sodir bo'ladi va shuningdek tez yo'qoladi va boshqa bir qiziqishga aylanadi. Yuqorida keltirilgan savollar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, bolani turli xil voqelik sohalariga oid bo'lgan hodisalar qiziqtiradi. Rivoj topgan uslubga ko'ra esa, hodisalarni aniq turlariga va jihatlariga bo'lgan barqaror qiziqish ta'lim tomonidan talab qilinadi. Bunday hodisalar matematika, ona tili, biologiya kabi o'quv fanlarining mazmunini tashkil etadi. Tasviriy faoliyat san'at markazida olib boriladi va

tarbiyachi unga raxbarlik qiladi. San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni uda yuqori. Bu markazda bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo'llab-quvvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.¹⁶

2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlari va usullari.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida o'yin momentlaridan foydalanish ko'rgazmali usulga kiradi. Bola qancha kichik bo'lsa, o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'rin tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolalarning ishga diqqatini yaxshi jalb qiladi va xayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. O'yin usullari kichik guruh uchun birinchi marta E.A.Flerina tomonidan tashkil qilingan, keyinchalik A.A. Volkova, T.G. Kazakova tomonidan davom ettirilib, T.G.Kazakova tomonidan kichik bog'cha bolalari uchun har bir mashg'ulotni o'yin obrazi bilan bolaga katta bir sistema ishlab chiqildi.

Kichik guruhlarda o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish hamda qo'l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari bilan havoda, so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: "Bolakay yo'lda chopib ketyapti" kabi iboralar bilan hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuvi bola tomonidan chiziqlarni va sodda shakllarni tasviriy malakasiga ega bo'lishni ancha tezlatadi. Kichik guruhda predmetlarni tasvirlashda ham o'yin usullaridan foydalaniladi. Masalan, qo'g'irchoq mehmonga keladi va bolalar unga noz-u ne'matlar yasaydilar, non, pirog, pechene va hokazo. Bunday ish mobaynida bolalar sharni yassilashga urinadilar.

¹⁶ Ф.Р. Қодирова Мактабгача педагогика Т.: Тафаккур 2019

O'rta guruhda bolalar o'z o'yinchoqlariga qaragan holda rasm chizadilar. Bu rasmlarni ham obrazlar yoki voqea-hodisalarni sahnalashtirish orqali ham qiziqtirib qilish mumkin. Mashg'ulot yakunida u rasmlarni baholashda qatnashadi va yaxshi rasmlarni o'zi tanlaydi.

5-6 yoshli bolalar bilan ham tasviriy faoliyat o'tkaziladi. Lekin kichik guruhga nisbatan o'yinlar ancha kamayadi. Masalan, sayrda bolalar o'zlarinig "fotoapparatlari" bilan atrofni rasimga oladilar: Bog'chaga kelib, o'zlari olgan rasmlarni chiqaradilar, ya'ni ko'rganlarini qog'ozga tushiradilar. Tarbiyachi o'yindan foydalanganida butun mashg'ulotni o'yinga aylantirib yubormasligi kerak. Chunki bu bolalarning diqqatini topshiriqni bajarishdan tortib, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish tizimigacha buzishi mumkin.

Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki, u atrof-muhitni o'rganishda, bilish hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shunchalik ko'p bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bolalarni tasvirlash usullariga, turli xil tasvirlash materiallaridan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur. Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasvirlash usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi. Rasmlar asosan bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullar, vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlarida, 2 yoshdagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar deb belgilangan. Lekin rasmdagi qahramonlarning orasidagi bog'liqlikni, ya'ni harakatlarni tushunish 4-5 yoshlarda yuzaga keladi. Masalan: 2 yoshli bola rasmdagi hayvonlarni "turibdi" deydi, 4-5 yoshligisi esa "gapiryapti", "yuryapti", "kelyapti" va hokazo deydi. Bolalarning kuzatishlari ko'pincha qisqa muddatli bo'ladi onlarni kuzatish).

Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun xarakterli bo'lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmlar ana shunday sharoitlarda kerak bo'ladi: kerakli predmet qo'l ostida yo'q paytida, yoki bo'lmasa tekislikda tasvirlashning ayrim usullari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollari:

1. Tasviriy faoliyat texnologiyalari qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Tasviriy texnologiyalarning nazariy asoslari kimlar tomonidan ishlab chiqilgan?
3. Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlar qanday tanlanadi?
4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish?
5. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsad va vazifalari?
6. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlari va usullari?
7. Tasviriy faoliyat haqida tushuncha?
8. Mashg'ulotlarning bola hayotidagi ahamiyati?
9. San'at markazi qoidalari?

10-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida jismoniy harkatlarini loyihalashtirish.
2. Mashg'ulotlar orasida chalg'ituvchi jismoniy harakatlarni rejalashtirish.


Tayanch so'z va iboralar: tabaqalashtirilgan o'qitish, o'qitish texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish, ta'limni individuallashtirish.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida jismoniy harkatlarini loyihalashtirish.

Bolaning biologik rivojlanish jarayonini tabiiy fanlar majmui o'rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular

izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi, shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:



Sog'lomlashtiruvchi vazifalar. Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko'rishini ta'minlash.

Ta'limiy vazifalar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga xos bo'lgan o'ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o'zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta'limiy vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chamalash)ni o'stirish, to'g'ri qaddi - qomat, gigiyena ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish. Boladagi harakat ko'nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k) nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarini egallash bilan bog'liq bo'lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mashg'ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni

o'tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o'yinlar va hokazolar haqidagi tushuncha va bilimlarni berish muhimdir.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo'nalishini (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga), to'la aylanish, fizkultura asboblarning nomi va qay maqsadda ishlatilishi, ularni asrash va tutish, kiyim - kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilishlari kerak.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Bolalarda sport mashg'ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, o'rtoqlik hissi, o'zaro yordam), jamoada shug'ullanish malakasi, fizkultura asboblari ehtiyot qilish, topshiriqni mas'uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar) ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o'ziga xos xususiyatidir.

Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;

2) organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, to'g'ri qaddi - qomatni uyg'un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga qudratli rivojlanishni ta'minlovchi xususiyatlar ham xosdir. Bu barcha to'qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda

almashinuvi jarayonlarining jadalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning o'zgarishiga, jismoniy zo'riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o'ziga tushunarli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga idroki baland bo'ladi, bu esa bir qancha ta'limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

1) jismoniy mashqlar bilan Shug'ullanish va madaniy gigiyena ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan bog'liq dastlabki bilimlarni

2) kelgusida sport bilan shug'ullanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hayotiy zarur harakatlar, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish


3) shaxsiy va ijtimoiy gigiyena ko'nikmalarini singdirish

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.

2. Mashg'ulotlar orasida chalg'ituvchi jismoniy harakatlarni rejalashtirish.

Chiniqtirish. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o'zgarishi)ga eng ko'p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o'zgarishlariga tez ta'sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemogloblin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularni organizmlari kasalliklarni yengadi.



Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham, organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga badanni ozoda tutishga, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

Jismoniy harakatlarni rejalashtirish. shartlari:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.

2. O'zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o'rgatish.

3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.

4. Bolalarning madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.

5. Bolalarning kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish. Jismoniy mashqlar - jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, harakat faoliyatining murakkab turlaridir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U modda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Massaj. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri - massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon tarkibi, asab tizimi vazifalari, shuningdek teri va muskul-larning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar

kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida butun ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taomni yeyishga ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Muayyan vaqtda, 3,5-4 soat oralig'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroyli tashqi ko'rinishga ega bo'lgan taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo'lgan hamma narsa oldindan tayyorlab qo'yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo'zg'atadi. Stolni enaganing o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirok etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan puxta o'ylanadi va bolalarga aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat katta ahamiyatga ega.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash. Butun maktabgacha yosh davomida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishdagi fikrlashdagi ro'y bergan katta siljishlar bolalarning o'ziga-o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo'lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llarni bir-biriga ishqab sovun surish, sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artish)ni, tish yuvishni (dastlab oddiy xo'l cho'tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og'izni chayqashni, dastro'molchadan foydalanishni, stol atrofida o'zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to'kmaslikni) bilishi kerak. Bolalar o'yinchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, ozodalik va tartib saqlashni o'rganadilar.

5 yoshga qadam qo'ygan bolalar ancha mustaqil bo'lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, bo'yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko'rinishlaridagi noqisliklarni atrofda nuqsonlarni seza boshlaydilar.

6- 7 yoshli bolalar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho'l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o'z tashqi ko'rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko'nikmalariga katta talablar qo'yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to'g'ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar. O'yin burchaklarini yig'ishtirish, navbatchilik turlari majburiyatlari va ko'nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy gigiyenik ko'nikmalarni muntazam mustahkamlab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o'zgarishi, malakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e'tiborning yo'qligi ularning tezda yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun jismoniy mashqlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o'rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarni egallagan, xilma-xil harakatli o'yinlarni o'ynashni o'rgangan bo'lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gigiyenik gimnastika shaklida; haftasiga ik-ki marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tirib bajariladigan mashqlardan jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg'ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o'tkaziladi. Sayr chog'ida sport mashqlari, harakatli o'yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlar bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo'shib o'tkaziladi. Sayr chog'ida va xonada bolalarning turli qo'llanmalar va motorli o'yinchoqlar bilan mustaqil o'yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta'lim bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalaniladi: 1) harakatli o'yinlar o'tkazilib, ularga eng ko'p o'rin beriladi; 2) asosiy gimnastika

(asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari);
3) sport mashqlari (konkida uchish, chang'ida yurish, suzish, velosipedda uchish); 4) bolalar turizmi.

Ko'rsatilgan vositalardan uyg'un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishini ta'minlash mazkur jarayonda tabaqalashtirilgan yondashuvni tadbiq etishni taqozo etadi. Ana shu sababli tarbiyachi maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda jismoniy rivojlanishdagi o'ziga xosliklarni to'liq o'zlashtirib olishi lozim.

Kichik guruh (3-4yoshli) tarbiyalanuvchilarni jismoniy rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) bola harakatlarining shakllanishiga yordam berish, gavdasini tik tutishga o'rgatish;

2) bolalarni mustaqil o'ynayotgan paytlaridagi harakatlari faolligining barqarorlashuviga yordam berish;

3) tarbiyachi tomonidan ko'rsatilayotgan turli harakatlarga bolaning tushunib borishiga va birgalikda harakat qilishga undash;

4) bolalarni turgan joyda sakrashga, ikki oyoqni juftlab sakrashga va yengil tushishga, emaklashga, tirmashib chiqishga, to'p bilan harakat qilishga, dumalatish, uloqtirishga o'rgatish;

5) bolalarda ertalabki badantarbiyaga nisbatan qiziqish, ijobiy munosabatlarni uyg'otish o'yinlarda ishtirok etishga o'rgatish.

Kichik yosh guruhi tarbiyalanuvchilarini asosiy harakatlarga tizimli odatlantirib borish lozim. Jumladan:

1) to'p-to'p bo'lib yurish, y'nalishni o'zgartirib yurish, doira bo'ylab juft-juft bo'lib qo'l ushlab yurish, yurishdan yugurishga o'tishga, yon tomonga yurish, ketma-ket yurishga o'rgatish;

2) tarbiyachining orqasidan yugurish, dumalatib yuborilgan buyumni quvib etish, ikki chiziq orasidan chiqmay yugurish, 20-40 metr masofaga o'rtacha tezlikda, 70-80 metrga asta sekin yugurishga o'rgatish.

3) ikki oyoqni juftlab turgan joyda sakrash, balandlikka sakrash hamda 20-30 sm masofaga hatlashga, 10-15 sm balandlikdagi predmetdan sakrashga o'rgatish;

4) to'pni bir-biriga qaratib dumalatish, to'pni ikki qo'llab oldinga pastdan, ko'krak oldidan, boshidan oshirib otish, 50-100 sm oraliqdagi to'pni ilib olishga harakat qilish, shuningdek, to'p yoki qum xaltachasini 1m masofaga bir qo'llab o'ng yoki chap qo'l bilan irg'itish;

5) 3—4 m masofaga emaklash, 30-40 sm, to'siq tagidan o'tish, arqonli narvoncha, tik devorchadan bola uchun qulay bo'lgan usulda yuqoriga tirmashib chiqishga o'rgatish; 6) to'g'ri yo'lak bo'ylab yurish, eni 20 sm, uzunligi 2-3 m, ilon izi yo'lakchadan, doira bo'ylab tashlab qo'yilgan arqonchadan qiya taxtachadan yurish yoki emaklash, halqadanhalqaga, doiradan-doiraga o'tishga, shuningdek, 10-15 sm balandlikdagi to'siqlardan hatlab o'tishga, balandlikda qo'llarni yonga qilib turishga, aylanishga, oyoq uchida ko'tarilishga o'rgatish.

O'rta guruh (4-5 yosh) bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashda bolalarni jismoniy harakat turlari bilan tanishtirish, ularni faol bo'lishga undash hamda turli o'yin va mashqlarga qiziqish uyg'otish nazarda tutiladi.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish zarur:

1) mashg'ulot vaqtida bolalarni qo'l va oyoq harakatlarini mashqqa muvofiq ravishda oyoqni sudramay, boshni egmay yengil yurishga odatlantirish;

2) narvonga-tirmashib chiqish, to'pni panjalar yordamida ushlab olish, shuningdek, turli usullar yordamida top uloqtirishda boshlang'ich holatni to'g'ri egallash, velosiped uchish malakasini tarkib toptirish;

3) turli tartibda saflanib yura olish, fazoda chamalashni o'rgatish hamda muvozanat saqlashga o'rgatib borish.

Jismoniy tarbiyaga doir vazifalarni hal etish orqali tarbiyalanuvchilarda quyidagi malaka va odatlar tarkib topdiriladi:

1) badantarbiya vaqtida yurish, yugurish, sakrash qo'l-oyoq mashqlarini faol egallashga, gavda holatini tikka tutishga erishish;

2) jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

3) o'yinlarni bolalarning o'zlari mustaqil ravishda tashkil etishlariga imkoniyat yaratish;

4) bolalarda velosiped, ehanada uchish, to'p, halqa va boshqa narsalar yordamida bajariladigan harakat malakalarini takomillashtirish;

5) jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida birgalikda dam olish daqiqalaridagi o'yinlarga erkin qo'shilishlariga odatlantirish.

6) oyoq uchida, tizzalarni baland ko'tarib yurish, tovonda, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan yurish, turli buyumlar oralab yon tomonga yurish; harakat tezligi va yonalishlarini o'zgartirib safda yurish;

7) oyoq uchida, tizzalarini baland ko'tarib katta qadamlar bilan yugurish, safda juft bo'lib, turli yo'nalishda doira bo'lib, qo'lini ushlab, ilon izi bo'lib, yugurish hamda yugurishni yurish bilan almashtirish, to'xtovsiz 1,5 daqiqagacha yugurishga, 30 metrga tez, 40-60- metrgacha o'rtacha tezlikda yugurishga, 200-240 metr masofaga sekin tezlikda yugurishga o'rgatish;

8) turgan joyida ikki oyoqlab aylanib sakrash, qo'llarni yuqoriga ko'tarib sakrash, oldinga qarab yurish vaqtida sakrash, bir oyoqlab turgan joyida va yurgan holda sakrash: to'siqlardan sakrab o'tish, 70 sm uzunlikka 20-30 sm balandlikdan sakrab o'tish, arqon bilan sakrashga urinish, dumalatish, uloqtirish, ilib olish; aylana orasidan to'pni dumalatish, koptokni yuqoriga otib va yerga urib ilib olish;

9) kamida 10 m masofani emaklab o'tish, turli balandlikdagi buyumlar ostidan emaklab o'tish; gimnastika kursisida qo'llarga tayangan holda, qorin bilan sudralish; to'rt oyoqlab yurish, gimnastika devoriga o'ngdan chapga o'tib tirmashib chiqish; 20-30 sm balandlikda tortilgan arqon tagidan, halqa orasidan emaklab o'tish;

10) to'pni bir-biriga irg'itib, devorga yerga urib ilib olishga, navbatma-navbat o'ng va chap qo'l bilan to'pni urishga, og'irligi 0,5 kg bo'lgan oddiy va havo to'plarini yerda dumalatib, uloqtirishga o'rgatish;

11) uch g'ildirakli velosipedda o'ngga va chapga burilib, doira bo'ylab, yerga qo'yilgan buyumlarni chetlab olib haydash va buyruq bo'yicha to'xtashga o'rgatish;

chiziq bo'ylab muvozanat saqlab yurish, biror narsani kaftga, bosh ustida qo'ygan holda yurish, gimnastika o'rindig'ida bir-biri

bilan almashib o'tish, taxta ustida oyoq uchida yurish, yugurib kelgandan so'ng o'rindig'ida muvozanat saqlab turish, bir oyoqni bukib, ikkinchisida turish hamda ikkala tomonga aylanish, qo'llar belda, yon tomonlarda ko'zni yumib yurish va **Katta guruh (5—6 yosh)** tarbiyalanuvchilari bilan tarbiyachi jismoniy tarbiya faoliyatiga oid turli usullarni bolalar bilan birgalikda ularning xohishlarini hisobga olgan holda tanlashi maqsadga muvofiqdir. Ularni jismoniy tarbiya bo'yicha mashqlarni ongli ravishda tushunib, aniq va to'g'ri bajarishga, harakatli o'yinlarning qoidalariga rioya etishga, yengil yurish va yugurish, yurish vaqtida tayanchga kuchliroq tayanib itarilib chopish, oyoqni balandroq ko'tarish, qadam oralig'ini oshirish uchun sekin, o'rtacha tezlikda, tez yugurishga, yugurish vaqtida turli to'siqlardan sakrab o'tishga o'rgatib boriladi.

Mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida quyidagi jismoniy ko'nikma va malakalar tarkib toptirilishi lozim:

1) yugurib kelib balandlik va uzunlikka sakrash, sakrashning turiga qarab yerga tushish, tushayotgan vaqtda o'zini yig'ishtirib olish ko'nikmalarini shakllantirish, bir qo'l bilan ko'ptokni otish va ilib olishga, tirmashib chiqish va tushishning turli xil usullarini o'rgatish, bolani o'z harakatini bajarishga, tahlil qilishga, o'zga bolalar xatti-harakati bilan qiyoslashga, qomatni to'g'ri tutishga, muskullarni mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlarni bajara olish;

2) velosipedda uchish, suzishga oid turli usullar, har xil sport o'yinlarining qonunqoidalari, kurash tushishning ayrim usullari, qoidalarini o'rganish;

3) jismoniy sifatlarni o'stirish, muvozanat saqlash, harakatni boshqarish hamda fazoda mo'ljalga ola bilish;

4) turli usullarda yarim otirgan holda tovonda barmoq uchlari bilan qadam tashlab turli tomonga oyoqni yonlama qilib, qarsak chalib yurish, oyoq uchida, qo'llarni bosh orqasiga qo'yib yurish; ko'zni yumgan holda 3-4 metr masofani o'lchash, oyoqlarni chalishtirib yurish; harakatlarni bajarib yurish;

5) oyoq uchida kichik va katta qadam tashlab to'siqlarni oshib yoki aylanib o'tish, yugurish vaqtida turli buyumlar orasida ilon izi

bo'lib yugurish (yugurish 1.5-2 daqiqa davom etadi) hamda 60-100 metrda o'rta tezlikda yugurish;

6) turgan joyda oyoqni juftlab sakrash, oyoqni chalishtirib to'g'irlab, galma-galdan o'ng yoki chap oyoqdan sakrash, oyoqni juftlab yonlamasiga pastroq to'siq ustidan sakrab o'tish; goh o'ng oyoqda, goh chap oyoqda sakrash, 80 sm uzunlikka sakrash, yugurib kelib balandlikka, uzunlikka sakrash, qimirlab turgan va qimirlamay turgan argimchoq ustidan sakrash.

Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) tarbiyalanuvchilarini jismoniy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) jismoniy mashqlar va o'yinlar yo'li bilan harakatlarni takomillashtirish jarayonida jismoniy sifatlarni o'stirish hamda kundalik harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish;

2) yugurishning mustaqil mashq qilish, unchalik murakkab bo'lmagan o'yin va musobaqalar uyushtirish; mashqlar va o'yinlarni tanlashda mashg'ulotlar uchun joylarni tayyorlashda va jihozlarni saqlashni ta'minlashda tashabbus ko'rsatish:

3) mashg'ulotlar vaqtida barcha harakatlantiruvchi mashqlarning tabiiy holda, yengillik bilan va to'g'ri bajarilishiga erishish hamda yurishning har xil turlaridan sharoitga qarab foydalanishga o'rgatish;

4) bolalarga predmetlarni uzoqqa va nishonga irg'itishda barmoqlarni oxirgi marta kuchli harakatlantirib otishga o'rgatish hamda turli usullar bilan gimnastika narvonchasiga, arqonli narvonchaga tirmashib chiqishni mashq qildirish:

5) jismoniy sifatlarni-tezkorlik, chaqqonlikni o'stirish: mashqlarni bajarish paytida chidamlilik va kuch korsatishga imkon berish; muvozanat saqlashni his etishni, harakatlarni boshqarishni va bo'shliqda chamalashni takomillashtirish;

6) ertalabki badantarbiya mashqini muntazam ravishda bajarish ishtiyoqini shakllantirish, uni o'tkazayotganda uyushqoqlikka, mashqlar kompleksini mustaqil bajarish ko'nikmasiga erishish;

7) kuchli aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlarda charchashning oldini olish va ishlash qobiliyatini saqlash maqsadida bolalarni yengil jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirish;

8) mustaqil faoliyat jarayonida harakatlarning turli xillarini muntazam mashq qilish odatini shakllantirish. Turli xil jismoniy

mashqlarni va sport o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda yoki ochiq havodagi o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda o'yin estafetalarida va yengil musobaqalarida borgan sari yuqoriroq natijalarga erishishga intilishlarini rag'batlantirish.

12) boshqalar.

Nazorat uchun savollari:

1. O'qitishni tabaqalashtirishda nimalar e'tiborga olinadi?
2. O'quvchining individual o'zlashtirishi nimalarga bog'liq holda namoyon bo'ladi?
3. Mualliflik texnologiyalari asoschilari kimlar?
4. Jismoniy tarbiyaning bola hayotidagi ahamiyati?
5. Jismoniy tabiya vazifalari?
6. Jismoniy tarbiyaning maqsadi?
7. Kun tartibi nima va u qanday tashkil qilinadi?
8. Madaniy-gigienik ko'nikmalar va uni bola hayotidagi ahamiyati?

11-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ta'lim jarayonida testlardan foydalanish.

Tayanch so'z va iboralar: mezonlar; kontseptuallik; tizimlilik; boshqaruvchanlik; qaytuvchan aloqa; aspektlar; darajalar; umumpedagogik; xususiy metodik; lokal (modul) daraja.

1. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzluksizligini ta'minlashga erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat e'tiborlarini jalb etib kelgan. Yosh avlodning ta'lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlarini o'z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Yan Amos Komenskiy, Dmitriy

Konstantinovich Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy va boshqalar chuqur o'rgangan.

Axborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o'sib borishi o'z o'zidan o'quvchilarga ular borasida tezkor sur'atda va batafsil ma'lumotlar berishni kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay, maqbul shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o'quv manbalari (o'quv dasturi, rejasi, darslik, qo'llanmalar) saviyasi, shuningdek, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bevosita boq'liqdir. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi, tarbiyachi xamda o'quvchilar o'rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili bu muayyan, ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashhishlash hamda ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlari oldida o'quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o'quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat'iy nazar tashkil etiladigan ta'lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlar ham qo'lga kiritilgan, ular to'q'risidagi ma'lumotlarga biz pedagogik texnologiya va uning mohiyatini ochib beruvchi, chunonchi, B.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.Slastenin, M.O.Ochilov, N.Saidahmedov, K.Zaripov va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar orqali xabardor bo'lishimiz mumkin. Quyida biz yuqorida nomlari keltirilgan

pedagog olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda ta'lim jarayonini loyihalash borasidagi shaxsiy mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1 bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlash tirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish tarbiyachi uchun o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu (faoliyat mazmuni) xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini beradi.

2 bosqich. Ikkinchi bosqich o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'lim (band)lar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lda ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi tarbiyachi, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi o'quv predmeti (faoliyat mazmuni)ning mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifa larni qayd etish bilan tavsiflanadi.

3 bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifalariga tayanilgan holda, o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek,

o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4 bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muxim bosqichi sanalgan to'rtinchi bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulot shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, baxs munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turki beradi. Mana shu holatdagana o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, tarbiyachining zimmasida esa ular ning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l yo'riq ko'rsatish, maslaxatlar berish hamda ular faoliyatini baxolash kabi vazifalar qoladi.

5 bosqich. Navbatdagi (beshinchi) bosqichda o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun yetarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya'ni, o'quvchilarda muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6 bosqich. Oltinchi bosqichda mashq (topshiriq)lar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan mashq (topshiriq)lar tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimining quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- a) mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan yechilishi (hal etilishi) lozim bo'lgan mashqlar;
- b) darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar (uy vazifalari).

O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, boq'liqlik va eng muximi evolyutsion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7 bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning ettinchi bosqichida o'quvchilarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi o'quvchilarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan muayyan tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-biri bilan uyq'un bo'lishlariga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

8 bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi, ta'lim jarayonining yaku niy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan ni hoyalaniadi. Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan choratadbirlar belgilanadi.

Bildirilgan fikrlardan anglanganidek, har bir bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyat (o'quv jarayoni)ning muvaffaqiyatini ta'minlashga olib keladi. Bugungi zamonaviy ta'limning asosini tashkil etayotgan

rivojlantiruvchi ta'limda shaxs o'qitishning diqqat markazida bo'lib, shunga binoan, ta'lim maqsadi, mazmuni va shakllari o'quvchiga, uning shaxsiga qaratilganligi bilan o'zgacha mazmun kasb etadi. Bu ta'limning maqsadi mazmunida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilinib, ushbu jihatlar bo'lajak mutaxassis shaxsida kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan birga, o'quv topshiriqlari, ularni tahlil etish va yechish borasidagi zaruriy ko'nikma hisoblangan ijodiy tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Pedagogik texnologiya kafolatli ta'lim-tarbiya maqsadga erishish bilan ahamiyatli va dolzarbdir. Shuning uchun maqsadning aniqligi, unga mos mazmun, maqsadga bosqichma-bosqich erishishda tarbiyalanuvchining va tarbiyachi faoliyatining uyo'unligi pedagogik texnologiyaning talabidir. An'anaviy ta'lim-tarbiya tizimida ham maqsad pedagogning asosiy muammosi bo'lib kelgan. Chunki quruvchi oldindan nimani qurayotganini bilganidek, tarbiyachi ham kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini bilishi shart. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi-kishi shaxsining modeli sifatida qoida mavjud. Ammo pedagogik texnologiyada maqsad va unga erishish kafolatli butun pedagogik jarayon, texnologiya jarayonining mezoni, kalitidir. Avvalo jamiyat va davlat buyurtmasidan kelib chiqadigan ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadiga asoslaniladi. Bugungi kunda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan islox qilishdek tashkiliy tadbirlarda bevosita ta'lim-tarbiya vazifalarini qo'yadi. Shuningdek, ta'lim mazmuni asosida maqsad qo'yish pedagogik faoliyati asosida; o'quvchilarning qobiliyati, xissiy ta'sirlanishi asosida, ichki jarayon asosida, o'quvchini o'rganish faoliyati asosida, maqsad qo'yish texnologiyasini tavsiya etadi. Maqsadga bosqichma-bosqich erishilganiga qarab, u muvofiqlashtiriladi, maqsadga to'la erishish uchun o'ziga xos texnologik yo'l qo'llanadi, yangi-yangi o'quv maqsadlari qo'yiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning odatdagi didaktik maqsaddan farqi diagnostika asosida maqsad qo'yilishidir. Sinf, guruh yoki alohida o'quvchiga qo'yilgan diagnoz qanchalik to'g'ri bo'lsa, qo'yilgan maqsad shunchalik to'la va oson bajariladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek pedagogik texnologiyada maqsadga to'la

erishish prinsipi yetakchilik qiladi. Shuning uchun M.V.Klarin maqsadga erishish texnologiyasini alohida taxlil qiladi. Uni uchga bo'lib o'rganadi: etalon maqsadga "mezoniy baxolash", "ta'limiy jarayon" va "maqsadga to'la erishish".

2. Ta'lim jarayonida testlardan foydalanish.

Bugungi kunda test nazoratini joriy qilinishi didaktik vazifani amalga oshirishda qo'l keladi. Chunki testda ta'lim maqsadi, asosida erishiladigan mezon o'z aksini topadi. Shu sababli har bir bosqichda test orqali natijani aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim maqsadini testga tushirish muhim masaladir. O'qitishda takrorlovchi bosqich alohida o'rin tutadi. Takrorlashda: ta'limning umumiy maqsadi; umumiydan ma'lum aniq maqsad belgilanishi va har bir bosqichda o'quvchining o'zlashtirish dajarasini aniqlash; shunga asosan ta'lim jarani muvofiqlashtirilib boshqariladi.

Ta'lim jarayonida takrorlash texnologiyasi.

Masalan, darsning tuzilishini texnologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsa:

A)diqqatini tashkil etish;

B)maqsad haqida axborot berish;

V)bilim-malakalarni rag'batlantirish;

G)ta'sir etuvchi o'quv materialini ko'rsatish;

D)o'quvchilar javobini rag'batlantirish;

E)o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

J)olingan mustaxkam bilim malakani rag'batlantirish;

Z)o'quvchilar faoliyatini baholash;

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi qanchalik tezligini va mukammaligi bilan belgilanadi. Ularning o'zlashtirish bo'yicha qobiliyati uch guruhga bo'linadi:

Iqtidorli ,ular tez o'zlashtirishi mumkin-30%.

Oddiy o'rtacha o'quvchilar-50 %.

Qobiliyati past o'quvchilar-20 %.

Maqsad qo'yishda barcha o'quvchilarni o'zlashtirishi hisobga olinadi. To'la o'zlashtirishi maqsadi, uni amalga oshirish metodikasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1.Kirish qism-o'quvchilarni to'la o'zlashtirishga yo'naltirish;

2.Har bir o'quvchini to'la o'zlashtirishga erishish;

3.Har bir o'quvchini to'la o'zlashtirish darajasini baholash;

4. Har bir o'quvchi bahosini tashkil qilishh.
Keyin o'qituvchi har bir o'quvchini to'la o'zlashtirish
imkoniyati bilan tanishtirad
Sinf to'la o'zlashtirish uchun yangi metodika bilan o'qitadi.
Har bir o'quvchi oxirida, fanni o'zlashtirib bo'lganda
baholanadi.

O'quvchilar qiyosiy baholanmaydi, balki o'quv matni etalon,
mezoni bilan baholanadi.

"Etalon darajasiga" erishgan o'quvchi "a'lo" baxo oladi.

A'lo baholar cheklanmaydi.

Har bir o'quvchiga istagancha yordam ko'rsatadi.

Har bir o'quvchi fanni o'zlashtirish jarayonida diagnostik
kuzatiladi.

Agar o'quvchi ma'lum topshiriqdan qiynalsa boshqa yo'l
qo'llaniladi.

Shunisi xarakterliki, pedagogik texnologiyaning prinsipi
kafolatli to'la o'zlashtirish ekan unda o'quv materialini bosqichma-
bosqich o'zlashtirish, izchillik metodikasi asos bo'ladi. Aslida sharq,
aniqroo'i, O'zbekiston maktablarida o'rta asrlardan boshlangan
metodikadir. Tarixdan ma'lumki, fanning o'zlashtirishda izchillik va
uzluksizlik printsipligiga asoslanilgan. Ya'ni har bir fan o'rganib
bo'lingandan keyin musobaqa metodi orqali bilimlar tekshirilgan va
to'la o'zlashtirgandan so'ng undan keyingi fanga (yoki bosqichga)
o'tilgan.

Shunga o'xshash, pedagogik texnologiya doirasida qayta
takrorlanadigan o'qitish siklini amalga oshirish uchun, uning
yakunlovchi bosqichida pedagogik-texnologik xaritalar ishlab
chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil
etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish siklini ro'yobga
chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik
texnologiyani ko'p nusxada ko'paytirishga va o'quv yurtining
qayerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish
natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik
xarakterlarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida
tuziladi. Ularning majmuasi pedagog texnologik xaritalar albomini
tashkil etadi.

Qayta takrorlanadigan o'qitish sikli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv fanining umumiy maqsadini o'rnatish. O'quv rejadagi har bir fan mutaxassisning shakllanishi uchun ma'lum bir maqsadga ega. Bu maqsad aniq ifodalanishi va fanni o'rganishdan oldin har bir talabaga yetkazilgan bo'lishi kerak.
2. Har bir mavzuni o'zlashtirishi uning o'rganishdagi o'quv maqsadini to'g'ri qo'yilishiga bo'liq. O'quv fanini to'la o'rganishdagi mavzuning ahamiyati o'quv maqsadi toifasini belgilaydi.
3. Dars boshlanishida o'quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan bog'liqligi talabalarga yetkaziladigan bo'lishi kerak.
4. Har bir mavzu (bo'lim va modul) bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash Pedagogik texnologiyada o'qitishning moduli tizimini qo'llash samaralidir, u fanning bir yoki bir necha fundamental tayanch iboralarini qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.
5. Dars boshlanishida o'quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan bog'liqligi talabalarga yetkaziladigan bo'lishi kerak.
6. Har bir mavzu (bo'lim va modul) bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash. Pedagogik texnologiyada o'qitishning moduli tizimini qo'llash samaralidir, u fanning bir yoki bir necha fundamental tayanch iboralarini qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.
7. Har qaysi tayanch ibora, modullar uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Bu testlar talabalarning bilim olishini tashxislash maqsadida, joriy nazorat uchun ishlatiladi. Bilimlarning o'zlashtirilish darajasiga ko'ra, har bir tayanch ibora uchun testlar tuziladi.
8. O'qitish. Yangi o'quv materialini bayon etish va uni ishlab chiqish, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Butun o'quv faoliyati, aniq va ravshan ifoda qilingan o'quv maqsadlari asosida quriladi.
9. O'quv maqsadi toifasiga ko'ra, o'quv materialining birligi, tarkibi, turli xil bo'lishi mumkin.

10. Test o'tkazish. Joriy test diagnostik xarakterga ega bo'lib teskari aloqa vazifasini o'taydi, Uni o'tkazishdan asosiy maqsad tuzatishlar va qo'shimcha o'quv tadbirlar zaruriyatini aniqlashdan iboratdir.

11. O'quv maqsadlariga erishilganligini baholash. U joriy test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Test sinovlari natijasiga ko'ra talabalar guruhi ikkiga bo'linadi:

- Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishganlar.
- Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishmaganlar.

O'quv materialini to'la o'zlashtirmagan talabalar, o'qituvchi rahbarligida shu materialni o'rganishni davom etadilar. Ular bilan qo'shimcha (tuzatish) o'quv ishlari tashkil etiladi. Test natijalari asosida, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Kamchiliklarni tuzatish uchun o'quv materialini o'zlashtirmagan talabalarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Materialni takroriy bayon qilishda boshqa yangi usullardan foydalanish lozim: birinchi marta ishlatilmagan ko'rgazma qurollar, va o'qitishning texnik vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish zarur. Shu yo'llar bilan o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish lozim. Har qaysi talaba o'quv materialini to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega, chunki u davlat kirish test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgandir. U oliy ta'lim muassasida o'qishga yaroqlilik tanlovidan o'tgandir. Bilimlarni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash muammosida alohida masala bo'lib, o'qitish sur'atlari turadi. Aynan shu bilan talabaning qobiliyati aniqlanadi. Iqtidorli talabalar uchun (ular taxminan 5 % ni tashkil etadi) o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» talabalar uchun ulardan ko'ra ko'proq vaqt, «bo'sh» talabalar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalariga o'tish dolzarbligi shu bilan asoslanadi. Bunda har bir talaba o'quv materialini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida, o'zining tabiiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtidorli talabalarda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat paydo bo'ladi.

Nazorat uchun savollari:

1. Ta'lim - tarbiya maqsadining pedagogik mohiyati?

2. Ta'lim - tarbiya maqsadi nima?
3. Ta'lim - tarbiya maqsadi haqida sharq mutafakkirlarining qarashlarini o'ziga xosligi nima?
4. Ta'lim - jarayonida istiqbolli maqsad qo'yish texnologiyasi izohlab bering?
5. Yangi maqsadlar nima asosida qo'yiladi?
6. O'quv maqsadlarni shakllantirish usullari.
7. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari nima?
8. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini sanab bering?

12-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Texnologiyalar va loyihalashtirish - ijtimoiy zaruriyat sifatida.
2. Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari.
3. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga hos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: loyihalashtirish, rivojlanish bosqichlari, ilmiy jurnallar, texnologiya markazlari, Yaponiyada ta'lim texnologiyasi taraqqiyoti, AQSHda ta'lim texnologiyasi taraqqiyoti, zamonaviy texnologiyalar tasnifi.

1. Texnologiyalar va loyihalashtirish - ijtimoiy zaruriyat sifatida.

Har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or va axborot texnologiyalarini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimining asosi yaratildi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning

intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu borada ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda.

Bu boradaga asosiy vazifalar xususida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi¹⁷ning "Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish" bo'limida: "Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan taminlash rivojlanib boradi, televideniya va radioni ta'lim dasturlari intellektuallashuvi taminlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quvslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakillantiriladi"¹⁷ deb ko'rsatib o'tilgan.

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Sho'rolar tizumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistik mafkura qobio'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinadi va rad etiladi. Holbuki, har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan xoli emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham Burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot obektiga aylantirishning iloji yo'q edi. Bugun malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997 yil. 29 avgustda qabul qilingan. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. Sharq. 1997 yil.

Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi». 40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi. 60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961-yildan boshlab AQSHda «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology), 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» (Technology and programmed Learning). Yaponiyada esa 1965-yildan «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971-yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967-yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab «Pedagogik texnologiya jurnali» (Journal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQSHning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus «Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya»si (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan «Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar» (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumiyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mashur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferensiyalar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro konferensiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari «Pedagogik texnologiya jihatlari» (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi. Shu kabi ma'lumotlarni keltirishni o'arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq 1 – chizma bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o'ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi.

Taxlillarning ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muhokama qilinadi va rivojlantiriladi: birinchisi – o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnik vositalari), ikkinchisi – o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

2. Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari.

AQSh 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSh Assotsiatsiyasi”. Hozirgi kunda mamlakat bo'ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o'qitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliya 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtiri” (*Educational Technology progratted tearing*) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiya - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug'ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnal

va ingliz tilida yiliga ikki marta "Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar" jurnali nashr etiladi. Yaqinda "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha umumiyapon Markaziy kengashi" tashkil etildi, u muammolar bo'yicha xalqaro aloqalar o'rnatish bilan ham shug'ullanadi.

Italiya - 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz tashkil etildi va "Pedagogik texnologiyalar" jurnali nashr etiladi.

Vengriya - 1973 yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar

№	Mamlakatlar	Tashkilot nomi	Tash. top.yil	Jurnal nomi	Nashr et. yil
1	AQSH	Ta'lim kommunika-siyasi hamda assotsiyasi	1971	"Ta'lim texnologiyasi"	1961
2	Angliya	Pedagogik ta'lim milliy kengashi	1967	"Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim"	1964
3	Yaponiya	4 nomdagi ilmiy jurnallar	1965 1970	"Ta'lim texnologiyasi"	1965
4	Italiya	Milliy markaz tashkil etildi	1971	"Ta'lim texnologiyasi"	1971
5	Vengriya	O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi	1973	"Ta'lim texnologiyasi"	1971
6	Sobiq ittifoq	PFA qoshida maktab ta'limi tashkil etildi	1965	"Maktab va ishlab chiqarish"	1965

Shunday qilib, o'tgan asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida texnika rivojlanishi va chet elda ta'limning kompyuterlashtirilishi boshlanishi oqibatida "o'qitish texnologiyasi" va "pedagogik texnologiya" tushunchalari o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarish vositalari, metodlari sistemasi sifatida tushunila boshlandi.

3. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga hos xususiyatlari.

Zamonaviy bolalar bog'chasi – bola o'z rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sohalarda hamda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joy bo'lib, bunda bolalar o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi. Pedagog o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi; muassasa ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud bo'lib, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi. Hozirgi vaqtda bolalar bog'chasiga bolalar bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagog zarurdir. U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim.

Yangiliklar tashuvchisi bo'lgan pedagog –innovatsiyalar jarayoni tuzilishining elementi sifatida yangilikni idrok etish, o'zlashtirish va baholash, maqsad qo'yish va maqsadga erishish birligi jihatidan tavsiflanadi. Motivatsiya (istayman), nazariy (qila olaman), texnologik (qilaman) va natija (olaman) intilishi va tayyorligining jamuljamligi maktabgacha ta'lim pedagoglarining innovatsiya uquvliligi tizimini tashkil qiladi. Pedagogning yangilikka intilishi, innovatsion salohiyati va xulqi, yangilikni qabul qilishi kabi fazilatlar ham juda muhim. Yangilik kiritish fenomeni yangiliklarni joriy qilish, yuqori aqliy salohiyat, tanqidiy munosabat, muqobil yo'llarni izlashni o'ziga maqsad qilib qo'ygan pedagoglarda uchraydi.

V.A. Slastenin va L.S. Podimova jamoaning innovatsion salohiyatini yangiliklarni yaratish, qabul qilish va amalga oshirish, shuningdek eski, pedagogik samarasiz jihatlarni o'z vaqtida yo'qotish qobiliyati deb ta'riflagan.

Innovatsion salohiyatning qismi bo'lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorlik, muammo bilan tanishish, uni hal etishning mavjud yo'llarini tahlil qilish, yo'lini tanlash, qaror qabul qilish oqibatlarini qabul qilish bilan belgilanadi.

Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi.

Birinchidan, faoliyat mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish faoliyati ancha murakkablashadi, chunki uning texnologik asosi tez rivojlanadi. U pedagogning maxsus malakalari, ish usullari rivojlantirilishini talab etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyat sifatiga va uning mahsuliga qo'shimcha talablarni qo'ymoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shuki, pedagog markaziy o'rin tutgan an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu erda asosiy diqqat bolaga – uning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi.

Tarbiyachining muhim funksiyasi bolani o'z faoliyatida qo'llab-quvvatlash, uning olamdagi muvaffaqiyatli ilgarilama harakatiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma'lumotni o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi.

K. Rodjers, A.B. Orlov va S.Ya. Romashina jahon ta'limiy hamjamiyatida shu sababli yangi atama – fasilitator – o'qishga yordam beruvchi, osonlashtiruvchi, ko'maklashuvchi shaxs paydo bo'lib, ishlatilayotganligini qayd etganlar.

Uchinchidan, bilish materialini taqdim etish va tajribani berish yo'llari pedagog va bolalarning intensiv muloqotini ko'zda tutadi, pedagogning barcha bolalar bilan umumlashgan aloqasi ustuvor bo'lgan, lekin tarbiyachining alohida bolalar bilan o'zaro munosabati ancha kam bo'lgan an'anaviy ta'lim turiga nisbatan zamonaviy ta'limda ushbu ta'lim sub'ektlari o'rtasida ancha faolroq va qiziqarli o'zaro munosabatlar bo'lishini talab qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruriy shartlari pedagogning salohiyati va harakatlari, uning yangilikni sezishi, ochiqligi va fasilitatsiyasi bo'ladi.

Pedagogik innovasiyada R.N. Yusufbekova innovasion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovasiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M. Potashnikning innovasiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovasiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yio'indisi;

sub'ektiv tuzilma-innovasion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

sathiy tuzilma-innovasion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz;

- irradiasiya (aldanish) - zamonaviylashtirish;

boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish;

- tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;

tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi.

Nazorat uchun savollari:

1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini sanang?
2. Jahon ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni taro'ib qiluvchi jurnallar qachon, qaysi davlatlarda nashr qilingan?
3. Pedagogik texnologiyalar jamiyat taraqqiyotida qanday kuchga ega deb hisoblaysiz?
4. Ta'limda innovasion jarayonlarning o'ziga xosligi nimada?
5. Innovasion jarayonlarning bosqichlariga nimalar kiradi?
6. O'qituvchining innovasion faoliyati deganda nimani tushunasiz?
7. Faoliyat tuzilmasi nima?
8. Boshqaruv tuzilmasi nima?

13-mavzu: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari

Reja:

1. Muommoli ta'lim vazifalari.
2. Muommoli ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.

Tayanch iboralar: Muammoli ta'lim, rivojlanuvchi ta'lim, muammoli ta'lim maqsadi, vazifalari, vositalari, muammoli ta'lim darajalari, muammoli masho'ulot strukturasi.

1. Muommoli ta'lim vazifalari.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan foya yotadi. Muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni echish yo'llarini izlash;

• muammoning echimi;

Axborot texnologiyalari yoki postindustrial deb atalayotgan bugungi jamiyatda hayot shaxsdan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o'zgarayotgan sharoitlariga moslashishni talab qiladi. O'z navbatida hayotning bunday tarzi shaxs ma'lum sifatlarga ega bo'lishini talab qiladi. Xususan:

- zarur bilimlarni mustaqil egallashni, egallangan bilimlarni turli muammolarni echishda mahorat bilan qo'llashni;
- axborotlar bilan savodli ishlashni (ma'lum masalani tadqiq qilish uchun zarur faktlarni yig'ishni bilish, ularni tahlil qilish, muammolarni yechishga qaratilgan gipotezalarni taklif qilish, qonuniyatlarni aniqlash, yangi muammolarni aniqlash va yechish);
- olingan bilimlarning qayerda va qanday qo'llanishi mumkinligini aniq bilish va bu bilimlarni qo'llash sohasini anglay olish;

- mustaqil tanqidiy fikrlash, real dunyoda paydo bo'layotgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etishning optimal yo'llarini izlash;

- ijodiy fikrlash, yangi royalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish;
- turli ijtimoiy guruhlarda kirishimli bo'lish, birgalikda ishlashni bilish yoki nostandart vaziyatlardan chiqishni bilish;
- o'zining ma'naviyati, intellekti va madaniy salohiyati ustida mustaqil ishlash.

Yuqorida aytilgan sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga nafaqat ta'lim mazmuni, balki qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalari ham muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayoni o'qish va bilish faoliyatiga o'zgartirishning imkoniyatlaridan biri muammoli o'qitish texnologiyasini tatbiq etish. Chunki muammoli o'qitish jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni yechish uchun doim sinovdan o'tkazadilar. Bu jarayonda hosil bo'lgan ko'nikma va malakalar axborot jamiyati sharoitlarida yashash uchun zarur sifatlarni shakllantirishga olib keladi.

An'anaviy ta'lim tizimida tarbiyachi va darslik bilimning asosiy manbasi bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasi tarbiyachining rolini o'quvchilarning izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchi va yordamchi

sifatida ko'radi. Bu rol an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkabroq va tarbiyachidan yuqoriroq mahorat talab qiladi.

Muammoli o'qitishning tarixi.

Muammoli o'qitishning asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui (1859-1952) o'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shaxrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashrulotlar bolalarning fiziologik baloratiga qarab o'z- o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. Dj. Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalari. Bolalar o'yin va amaliy faoliyat- mehnatga jalb etilganlar. Bu maktabda qo'llangan o'qitishning yangi uslublari, yo'llari va tamoyillari nazariy asoslanmagan va kontsepsiya sifatida ifodalanmagan edi.

Dj. Dyui o'oyalari bo'yicha bola bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish spontan, boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. Dj. Dyuning fikricha o'qitish samaradorligi shartlari o'quv materialini muammolashtirish bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish ro'yasi va printsiplari S.L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V. Okon, I.YA. Lerner kabi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

S.L. Rubinshteynning «Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi» degan ro'yasi muammoli o'qitishning psixologik asosi sifatida qabul qilingan. 70-80 yillarda an'anaviy o'qitish shakllari samaradorligi pasayib ketganligi qayd etilganda, etakchi pedagoglar muammoli o'qitish nazariyasiga e'tibor qarata boshladilar. Chunki an'anaviy o'qitish shaklida asosiy diqqat tarbiyachi faoliyatiga qaratilgan bo'lsa, muammoli o'qitish kontsepsiyasida asosiy urfu o'quvchilar tomoniga ko'chadi. Muammoli o'qitish tamoyili bo'yicha bilim o'quvchilarga tayyor shaklda uzatilmaydi, balki ilmiy-tadqiqot jarayoniga o'xshatib, o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar tomonidan egallanadi. Hozirgi kunda bu sohadagi

izlanishlar dunyoning turli mamlakatlarida davom ettirilmoqda, umuta'lim fanlari bo'yicha, ham oliy ta'lim fanlari bo'yicha ham muammoli o'qitish texnologiyalarining majmuaviy ishlanmalari yaratilmoqda.

Muammoli o'qitish – o'quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro boo'lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchi ilmiy bilimning ob'ektiv zidliklari va ularning echimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi.

Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: "muammo" va "muammoli vaziyat" tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob'ektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko'rish mumkin.

Muammoli o'qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an'anaviy o'qitishdagiga nisbatan jadalroq bo'ladi. Lekin muammoli o'qitishning bu funktsiyasi oshishi uchun o'quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish etarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

2. Muommoli ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.

Muammoli o'qitishni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda tarbiyachi ilmiy va o'quv muammolar orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi– har ikkalasida ham ob'ektiv zidliklar mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali echilmagan, o'quv muammoda esa masala echilgan, uni echish yo'li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni o'quvchilar izlab topishi kerak. Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi – o'quvchilarni muammolarni ko'rish va echishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizm

lari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayoltdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bo'liq emas, lekin har - bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bao'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyliigi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat

shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda to'tgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar - «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

Pedagogik o'yinlar tasnifi:

1. Faoliyat sohasi jihatidan: jismoniy, intellektual, mehnat, sotsial, psixologik.

2. Pedagogik jarayon xarakteri jihatidan: ta'limiy, trening, nazorat etuvchi, umumlashtiruvchi, bilish (idrok etuvchi), tarbiyaviy, qiziqtiruvchi, reproduktiv, produktiv, ijodiy, kommunikativ, diagnostik, kasbiy, tashviqiy, psixologik.

3. O'yin metodikasi jihatidan: fanga xos, sujetli, rol ijrosi, tadbirkorlik, andozaviy, dramalashtirish

4. Fan sohasi bo'yicha: matematik, ximik, biologik, fizik, ekologik, musiqiy, teatr, adabiy, mehnat, texnikaviy, ishlab chiqarishga oid, jismoniy tarbiyaga oid, sport, harbiy-amaliy, sayoxatga oid, xalq o'yinlari, jamiyatshunoslik, boshqaruv, iqtisod, tijoratga oid.

5. O'yin muhiti jihatidan: jihozli va jihozsiz, stol, xona, ko'cha, mahalla o'yinlari, kompyuter, televizion, texnik vositalar, texnikaviy, harakat usullari yordamidagi o'yin turlaridan iborat.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan. Tadbirkorlik o'yinlarini

mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leonto'ev, P.Ya. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi. Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitatsion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

Nazorat uchun savollari:

1. Muammoli o'qitish texnologiyasini ta'rifi va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Muammoli o'qitishning maqsadga yo'nalishlarni aytib bering.
3. Muammoli o'qitishni konseptual qoidalarini aytib bering.
4. Muammoli vaziyatlarni yaratishning uslubiy yo'llarini tahlil eting.
5. Muammoli o'qitishda pedagog faoliyatini izohlab bering.
6. Muammoli o'qitishda talaba faoliyatini izohlab bering.
7. Muammoli o'qitishning asosiy shakllarni tushuntirib bering.
8. Muommoli texnologiyaning avzalliklari?

14-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedialardan foydalanish

Reja:

1. Multimedia so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi.
2. Maktabgacha ta'limda multimedialardan foydalanish.

Tayanch so'zlar innovatsiya, innovatsion ta'lim, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, hamkorlik ta'limi, loyiha ta'limi, hamkorlik, loyiha.

1. **Multimedia so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi.**
Multimedia vositalari (multimedia – ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar,

animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- Axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- Muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zlash shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "Inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari

bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Hatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim soxasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida jaxon valyuta fondi, umumjaxon banki, yevropa ittifoqi komissiyasi kabi nufuzli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch hosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir. O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim obyektiv

muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Hozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga talim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi. Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni o'zlashtirish kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi. Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar;
- videokonferensiyalar;
- ish stolidagi videokonferensiyalar;
- elektron konferensiyalar;
- ovoz kommunikatsiyalari;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ; - virtual borliq;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar; - bir tomonlama sputnik aloqa;
- televizion va radio ko'rsatuvlari;

- disketa va CD-ROM lar.

Avvalombor, distant uslubi asosida o'qitish, jugrofiy jihatdan o'zoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'zoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada distant uslubi asosida o'qitish, tez vaqt ichida ko'pgina maktablarda, tijoratchilar ichida va ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanila boshladi va o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Distant uslubi asosida o'qitishning Xalqaro kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, xozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQSH da shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda. Shunday qilib, ular milliy kadrlarni zamon talabi asosida tayyorlash va qayta tayyorlash uchun olga qadam qo'yishmoqda. Distant uslubining qo'yidagi afzalliklari mavjuddir:

a) o'qitishning ijodiy muxiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosida esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mexnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.¹⁸

b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish - boshlangich, o'rta, universitet, sirtqi - kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajadagi inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

v) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan xam ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun qulay sharoit

¹⁸ Multimedial vositalari va ulardan foydalanish https://www.tami.uz/matnga_qarang.php?id=581

yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta ro'l o'ynamoqda, ya'ni jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm o'pishi mumkindir.

g) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmokedaki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir.¹⁹

Multimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktora jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaoligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizing saytingiz kaliti ham bo'lishi mumkin. Ya'ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo'lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko'rib, kompaniya saytidan eng yangi ma'lumotni olish mumkin. Multimediali texnologiya Multimediali texnologiya (multi – ko'p, media – muhit) bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaolik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar. Kompyuter taqdimotlari (Kompyuter vositasida tayyorlangan taqdimotlar) Ma'ruza, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko'rgazmali namoyish etish vositasi sifatida plakatlar, qo'llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproyektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimediali proyektorning paydo bo'lishi ma'ro'zachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo'rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy

¹⁹ Multimediali vositalari va ulardan foydalanish https://www.tami.uz/matnga_qarang.php?id=581

jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi. Taqdimot nima uchun samarali So'nggi o'n yillik dunyoda kompyuter revolyutsiyasi davri bo'ldi. Kompyuterlar asosli ravishda hayotimizga kirib keldi. Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o'zgaruvchan dinamik turi bo'lgan biznes ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish (~80%) va eshitish (~15%) organlari orqali qabul qiladi (bu avvaldan aniqlangan va kino hamda televideniya undan samarali foydalaniladi). Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slyd-shou, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali insonlarning e'tiborini ko'proq jalb qilamiz. Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Videodan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, ya'ni interfaol bo'lishi mumkin. Multimediali taqdimot ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni ta'minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma'lumotlarni ko'radi va o'zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma'lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi. Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafikalarini o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining o'zoqligini ta'minlaydi.

2. Maktabgacha ta'limda multimedialardan foydalanish.

Shalva Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his


etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalarni ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tizimli-vositasida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi ta'limi tizimiga moslashtirilmay, aksincha ta'lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarni (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqil fikrlash va boshqalar)ni hisobga olgan holda, o'quvchiga uning o'ziga xosligi (individalligi)ni rivojlantirish imkonini berish va buning uchun sharoit yaratish lozim. Ta'limda o'quvchi shaxsiga yondashuv bu ta'lim tizimi kosepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs sub'ekti kategoriyasi erkinlikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglaniladi, o'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari-maqсад, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o'quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgach, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tadbiiq etiladi. Agar o'quvchi o'quv faoliyatini mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, tarbiyachi qo'ygan vazifani tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etilgan barcha hatti-harakatlar majburiyat ostida bo'lib, uning bilimlari rasmiy harakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim ularni amaliyotga tadbiiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. O'quvchining ruhiy hususiyatlari o'rganish, o'zlashtirilayotgan bilimlarning o'quvchiga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarurligi, aks holda ular shubxasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual tasavvur va shaxsiy fikrlar obyektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonining an'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllari (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik)ni talab etadi. Tarbiyachi o'z darsida shunday shart-sharoitlar yaratish lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab neytral bo'lgan obyekt kutilmaganda subyektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida o'quvchi tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlaydi, izlanadi va tarbiyachi o'quv maqsadlariga erisha boradi. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchi bilim faoliyatini tashkil etishi uchun va metodlari bilan uzviy bog'liq. Bu usullar: muammoli izlanish, tadqiqot, dialogik, munosabat metodlari (dialog, evrestik suhbat,

munozara, guruhli ish turlari va boshqalar). Ta'limni shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko'ra farq qiladi. Mashg'ulotning asosiy maqsadi-tafakkur jarayonini tashkil etishdir, bilim, ko'nikma, malakalar o'quvchi faoliyatini mahsuli sifatida vujudga keladi. Tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatdan yuqori turib, u shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish usuri tarzida naioyon bo'ladi, ijodis izlanishning natijasi kabi mazkur jarayonning o'zi ham o'ta muhim bo'lib, aynan u o'quvchi va tarbiyachining ijodkorlik quvonchiga, yangilik yaratishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faolyatni tashkil etishga undaydi. O'quvchini sub'ektivligini amalga oshiradi: bilim usulini mustaqil belgilash, muammo yechimini topishda o'z dunyo qarashi, tafakkur tarzidan kelib chiqish, xato qilish huquqi ta'minlanadi. Bunday mashg'ulotlarning qoidasi: o'zing bilganча bajar, o'z layoqating, qiziqishlaring va shaxsiy tajribangga asoslan, o'z xatoingni o'zing tuzat kabi ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi. Mualliflik texnologiyasi O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va tarbiyachilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:



Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovasion jarayonlarni hayotga choraladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el

pedagoglarning tajribasi yotadi. Ular - K.D.Ushinskiy, N.P. Pirogov, L.N. Tolstoy, J.J. Russo, Ya. Korchak, K. Rodjers, E. Bern, S.T. Shaskiy, V.A. Suxomlinskiy va boshqalardir.
Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:



Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o'qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqadi va hayotga tatbiq etdi:

Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari

- Bolning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi,
- Rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tuo'dirmoq
- Bolning qalbi va yuragini uluo'lamoq
- Boladagi bilishga bylgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish
- Keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tuo'dirmoq
- Ideal tarbiya - bu o'z-o'zini tarbiyalamoq

Sh.A. Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- Metodik usullari
- Insonparvarlik
- Shaxsiy yondoshuvlar
- Muloqot mahorati
- Oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyatlari
- O'quv faoliyati

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifatli baholashga uro'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baholash. O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi.

Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
 - O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
 - O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
 - O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi);
 - O'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bospalko).
- Hamkorlik pedagogikasi.

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80- yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Shatskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
 - dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
 - tarbiya konsepsiyasi;
 - atrof-muhitni ta'lim-tariyaga moslash;
- O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi.

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasini Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

V.F. Shatalovning maqsad - mo'ljali:

- bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;

•har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish;

•o'qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar:

ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o'rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, mo'ljaldagi asosini qo'llash;

shaxsni ko'zda tutish asosida yondashuv;

insonparvarlik;

zo'rlab o'qitmaslik;

o'quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har - bir o'quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo'lga solish), o'sish, yutuqlarga istiqbolni ochish;

o'qitish va tarbiyani boo'lash.

F. Shatalov metodining o'ziga xosligi:

materiallar katta hajmda kiritiladi;

materiallar bloklar bo'yicha joylashtiriladi;

o'quv materialiy tayanch sxema – konspekt ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tayanch konspekt ko'rgazmali sxemani tashkil etmoqda.

V.F.Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi.

Tayanch signal o'zaro uzviy boo'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir ma'noli mohiyatni almashtiradi. Tayanch konspekt - o'quv materiallari o'zaro boo'langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, o'oyalar tizimi o'rnida qo'llana oladigan ko'rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

V.F.Shatalovning xizmatlari shundaki, u masho'ulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta'minlovchi o'quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F.Shatalovning o'quv jarayoni texnologik sxemasi tablitsada ko'rsatilgan. V.F.Shatalov metodikasi 4

bosqichdan iborat bo'lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariyani sinfda o'rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo'r, ko'rgazmali qurol, TV bilan); bo'yalgan plakat – tayanch konspekt bo'yicha qayta tushuntirish; plakat bo'yicha qisqacha bayon qilish; o'quvchilarning o'z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo'yicha keng mustahkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt, darslik, ota - onalar yordami. o'quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda o'qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o'qi; o'qiganlaringni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so'zlab ber (kodlashtirish - dekodlashtirish); konspektni so'zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqing va namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash - konspektni o'zlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha o'quvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, o'qituvchi ularni ketma-ket tekshirib boradi; bir vaqtning o'zida «asta» va magnitafon orqali so'rab boradi; yozma ishdan so'ng oo'zaki so'rash boshlanadi.

4. Tayanch konspektni oo'zaki so'zlab olish - o'zlashtirishdagi tashqi nutq (oo'zaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o'zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro'yxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); o'zaro so'rash va o'zaro yordam; o'yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baholash. V.F. Shatolov o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashqi nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'z-o'zini baholash bilan boo'lash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yo'qligi, past bahodan qo'rqishning yo'qligi.

Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda

o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat, uy nazorati, o'z-o'zini baholash.

O'quvchi tomonidan olingan har - bir baho bilimlarni maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi, baholar esa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday tavsifnomaning qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, o'quvchi xohlagan vaqtda har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har - bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F. Shatalov, avvalambor, o'quvchida ijobiy e'tiborni qo'zo'atadigan vosita, turtki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi, o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi.

Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida «cho'milmoq», kitobdagi xatolarni topmoq, varaqchalarda misol-masala yechish, tanlov asosida misol-masala yechish, 4 qo'lda yechish, tajriba darslari, «miyaga» niqtash, quyidan yuqoriga qarab yechish, aytib berganni raobatlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish, keskinlikni yumshatish usullari (musiqqa, yoruo'lik, tanaffus va b.) va b.

V.F.Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktab o'quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi.

O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi.

Inge Unt, A.S. Granitskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:

- Pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
- Bir talaba faqat o'qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur'ati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondoshish deganda:

• Bu pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv – tarbiya ishlar jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish, individual xususiyatlariga asoslanish;

• O'quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;

• Barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har - bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik–pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O'qitishni individuallashtirish;

• o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, sur'atini tanlash talabani individual xususiyatlari bilan bo'lanadi;

• individual yondashuvni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma'muriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra o'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O'qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi;
- A.S. Grantsikayaning moslashuvchan o'qitish texnologiyasi;
- V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o'qitish texnologiyasi.

Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o'qitishni individuallashtirishning muhim shakli o'quvchilarning maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o'quv vazifalari, joriy o'quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo'llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S.Granitskaya o'zining moslashuvchan o'qitish tizimini sinfdars tizimida tashkil etish va unda o'qituvchi 60-80% vaqtini o'quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Granitskaya metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan o'ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

- **Birinchi qism** – barchani o'qitish;
- **Ikkinchi qism** – ikki parallel jarayon: o'quvchilarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va b.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko'ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi.

V.D.Shadrikov metodikasi asosini har - bir o'quvchining qobiliyatiga qarab o'qitishga imkon beradigan olti darajadagi o'quv rejasi, dastur va metodik qo'llanma tashkil etadi. Har - bir fanning murakkablik darajasiga ko'ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o'quvchilar sinfda tez - tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo'ldan chiqarmay birgalikda o'quv dasturini o'zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi, «ba'zan» uni amalga oshirib bo'lmaydi, chunki u sinfdagi o'quvchilarning tenglashish, o'quvchilarning qobiliyati holatiga bo'liq bo'ladi.

Batov tizimi. AQShda ishlab chiqilgan bu tizimda o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi:

Birinchi qism - butunicha sinf ishi.

Ikkinchi qism - individual mashg'ulotlar.

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan o'quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me'yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo'lishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Yuqori qobiliyatli o'quvchilar bilan o'qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullanadi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100 - 150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o'qituvchilar, professorlar ma'ruza o'qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlar esa ma'ruza materiallarini muhokama qiladilar, bahs yuritadilar. Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida o'tkaziladi. Ma'ruza mashg'ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg'ulot 20%, kabinet

va laboratoriyalardagi individual ishlarga 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo'q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

Nazorat uchun savollar:

1. Hamkorlik pedagogikasi texnologiyasining mazmuni va mohiyati qanday?
2. Shalva Amonashvilining inson shaxs tenalogiyasi nimalardan iborat?
3. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi nima?
4. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi?
5. Maktabgacha ta'limda multimedialardan foydalanish?
6. F.Shatalov metodining o'ziga xosligi?
7. Shalva Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi?

15-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyati.

Reja:

1. Bolalar dizayn konsepsiyasining mohiyati.
2. Bolalar dizayni texnologiyasi.
3. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar.

Tayanch so'zlar: texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, loyihalashtirish, milliy model, fanning maqsadi, fanning vazifasi, texnologik jarayon, texnologik yondashuv, ta'limni texnologiyalashtirish.

1.Bolalar dizayn konsepsiyasining mohiyati.

Bolalar ishtiyoq bilan kuylaydi va raqsga tushadi, haykaltarosh va rasm chizadi, musiqa va ertaklar bastalaydi, xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanadi. Ijodkorlik bolaga atrofdagi dunyodagi go'zallik va yaxshilikni ko'rishni o'rganishga yordam beradi, bolaning hayotini yanada boy, to'liq, quvonchli qiladi. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalarga mehr-oqibat, sabr-toqat, boshqalarga yordam berish istagini qanday o'rgatish kerak? Qanday

qilib unga ota-bobolarining intellektual boyligini yetkazish kerak? Bu qobiliyatni – farzandingiz bilan bir tilda – san'at tilida gaplasha olish qobiliyatini qanday yo'qotmaslik kerak? L.S. Vygotskiy shunday degan edi: Ijod faqat buyuk ijod qilgan daholarga xos emas san'at asarlari. Ijod, inson tasavvur qilgan, birlashtirgan, yangi narsalarni yaratgan joyda mavjud bo'ladi. L.S. Vygotskiyning bayonotlariga asoslanib, Bolalar dizayni katta salohiyat va rivojlanish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi ijodkorlik, fantaziya va tasavvur. Bolalar dizayni bolaning shaxsini, uning individualligini ochib berishga, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan, erkin, kattalar tomonidan bosimsiz, bolaning o'zini namoyon qilishi, o'zini o'zi rivojlantirishi, hamkorlik qilishi va birgalikda ijod qilishi, faqat insonparvarlik usullari va texnikasi, taqiqlarsiz va kategorik murojaatlarsiz. Dizayn san'atining dastlabki qadamlari shunchalik soddaki, ular boladan ko'p kuch talab qilmaydi. U materiya olamini kashf etishdan zavqlanadi. Asta-sekin tajriba keladi, ko'nikma shakllanadi va u katta, murakkab ishni o'zi osonlikcha yakunlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq uyg'unlikni shakllantirishga ehtiyoj bor rivojlangan shaxs. O'rganadigan, himoya qiladigan va rivojlanadigan shaxsiyat ma'naviy meros bizning xalqimiz. Bularning barchasi doimiy ahamiyatga ega: go'zallikni ko'rgan va qadrlashni bilgan odam uni saqlaydi va oshiradi, bunday odamlar axloqsiz harakatlarga qodir emas. Shuning uchun bizda bolalar bog'chasi Dizayn darslari - katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati shunchalik dolzarbdir. Bizning bog'imiz besh yildan beri dizayn bilan tanishish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ustida ishlamoqda. Qidiruvda noan'anaviy usullar va texnologiyalar, biz dasturlardan foydalanamiz: I. Lykova "Rangli palmalar", "Manbalar", Davydova G.N., Panteleeva G., I. Lykova tomonidan qo'llanmalar, "Rangli dunyo" amaliy jurnali. Dizayn faoliyati bilan tanishish bo'yicha ishda yangi yondashuvlarni ochamiz. Ular bolaning rivojlanishini kuchaytirishga qaratilgan. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni loyihalash faoliyati bilan tanishtirishning dastlabki jarayonini yaxshi asosda quramiz hissiy asos. Hayratlanish, hayrat, san'at bilan tanishishdan xursand bo'lish bolalarda

uyg'otilishi kerak bo'lgan tuyg'ulardir. Bolalar bilan ishlashda oldimizga qo'ygan asosiy maqsad - bolalarni voqelikni kuzatishga jalb qilish, eng muhimini rivojlantirish badiiy ijodkorlik ko'nikmalar, dunyoni rassomning ko'zlari bilan ko'rish, kuzatuvchanlik va e'tiborni shakllantirish, fikrlash erkinligini ta'minlash - bolaga ochiq, badiiy vositalar- uning dunyoga qarashi. Biz muzeylarga tashrif buyuramiz, taqdim etilgan eksponatlar bilan tanishamiz, o'rmonga, bog'ga, shaharga sayohat qilamiz, teatrga, ko'rgazmalarga tashrif buyuramiz, atrofimizdagi dunyoni kuzatamiz, bola uning barcha rang-barangligini kashf etadi, bu kashfiyotdan quvonch oladi va o'z imkoniyatlarini amalga oshiradi. uning qarashlarining timsolidir.

2. Bolalar dizayni texnologiyasi.

Dizayn - bu faoliyat maxsus turdagi turli xil ijod turlarini birlashtirgan badiiy faoliyat: chizish, modellashtirish, qo'llash, dizayn, badiiy ish. Bolalikda badiiy g'oyalar barqaror bo'lib, bola har qanday "rassom", "haykaltarosh", "dizayner" rolini o'z zimmasiga olishi mumkin. U material tanlashni rag'batlantirishga, kayfiyatni etkazishga, hissiy munosabat atrofdagi dunyoga. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ziyorat qilish uchun mashhur va suyukli qahramonlar keladi, bolalar rassomlar, haykaltaroshlar hayoti va ijodi bilan tanishadilar, suhbatlar, hikoyalar, fantastik hikoyalar o'tkazadilar, ishimizda musiqiy va she'riy obrazlardan foydalanadilar. Atamalar, tushunchalar va psixologik yengillik sifatida o'zlashtirilganligini tekshirish uchun biz o'yinlarni o'tkazamiz: "Yosh dizayner", "Kostyumni bezash", "Interyer haqida o'ylash", "Buyumlarni almashtirish", "Quvnoq rang", "San'at", "Salon" va boshqalar. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni dizaynda qo'llaniladigan turli xil yangi usullar va texnologiyalar bilan tanishtiramiz: "Scrapebooking", "Remake", "Decoupage", "Sandography". Biz kiyimni modellashtirish qobiliyatini o'rgatamiz, shu bilan birga estetik did, badiiy dunyoqarash, kiyim dizaynini tushunish, ijodiy jarayon, kiyim modellarini yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallash. Bolalar haqida bilim oladilar nazariy asoslar kostyum dizayni; qonuniyatlar haqida vizual idrok kostyumda. Biz arxitektura-badiiy dizayn va ob'ektlarni tartibga solish-bezaklar bilan modellashtirish bilan tanishamiz turli

materiallar. Biz bolalarni tushuntirish, mulohaza yuritish, solishtirish, to'liq javob berishga o'rgatamiz, bolalarimiz nima qilganini, qanday qilganini va natijada nima bo'lganini aytib berishdan xursand. Atrofimizdagi narsalar dunyosi juda xilma-xildir. Bizga uzoq vaqt xizmat qiladigan narsalar bor va keraksiz bo'lib qolganlar ham bor. Ular chiqindilar deb ataladi. Bu va turli xil plastik butilkalar, qopqoqlar, tiqinlar, qutilar shokoladli tuxum, yogurt idishlari, tugmalar, boncuklar, simlar va yana ko'p narsalar, biz kattalar ko'pincha ularni imkon qadar tezroq olib tashlashga va axlat qutisiga tashlashga harakat qilamiz. Ammo, agar siz ularda g'ayrioddiy narsalarni ko'rishga harakat qilsangiz, hatto keraksiz narsalar ham ikkinchi hayotga ega bo'ladi. Siz shunchaki orzu qilishingiz, tasavvuringizni yoqishingiz, buni bolalarimizga o'rgatishingiz kerak.

Tabiiy materialning xilma-xilligi (konuslar, boshqalar, shoxlar, urug'lar, o'tlar va boshqalar) va ishlov berish qulayligi uni maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda keng qo'llash imkonini beradi. Bolalar ijodini kuzatib, bolaning o'z "boyligiga" (toshlar, boncuklar, mato parchalari, tugmalar va boshqalar) qanchalik ahamiyat berishini ko'rish mumkin. Bizning fikrimizcha, bu keraksiz narsalar - axlat, axlat, lekin bolalar qo'lida ular haqiqiy "zargarlik" ga aylanadi - munchoq uzoqdan kelgan marvariddir. moviy dengiz, yamoq - malika libosi, o'rash - tropik kelebek. Aynan mana shu g'ayrioddiy narsalarni ko'rish qobiliyatidan biz bolalar dizayn darslarida foydalanamiz. Bog'da go'zallik burchagi (bolalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchilar yoki ota-onalar bilan birgalikda yaratilgan hunarmandchilik), bolalar asarlarining doimiy ko'rgazmasi, ijodiy burchaklar, rasmlar reproduksiyalari, san'at haqidagi kitoblar mavjud. Biz bolalarni turli tadbirlar, ularning xususiyatlari va tarixi bilan tanishtiramiz. O'qituvchilar, bolalar va ota-onalar uyushmasi qo'shma ish ijod dunyosi bilan tanishish ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash masalalarida pedagogik tayyorgarligini oshirishga imkon beradi, oila va bolalar bog'chasi o'rtasidagi hamkorlik shakllarini kengaytirishga yordam beradi. Bizning bog'imizda "Master klasslar", "Ota-onalar-dizayner" o'tkaziladi, ular "Teatr niqobi", "Kandlar mavsumi" loyihalarida ishtirok etadilar. bilan chiqindi materialdan kostyumlar yasagan

katta muvaffaqiyat "Bu dunyo naqadar go'zal" taqdimoti, turli materiallardan tayyorlangan qo'l san'atlari, kompozitsiyalar, bolalar va ota-onalar ishtirokida "Miss-2009", hududlarda "Rangli gulzor" bezaklari bo'lib o'tdi. Talabalarning ota-onalari bizga yordam berishdi. yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda ko'p. Ular bunga qiziqishadi va bo'sh vaqt guruhga keling va bizga yordam bering. Ota-onalar turli xil materiallarni tayyorlaydilar. Kiritilgan ijodiy loyihalar bog'imizda o'tkaziladi. Ular bolalar bilan o'rmon va parkga boradilar, tomosha qilishadi tabiiy hodisalar. Ular olingan bilim va ko'nikmalarni uyda ob'ektlar tasvirida mustahkamlaydi. Ular bola bilan "qiyin" texnikalarni ishlab chiqishadi. Ota-onalar yordamisiz natijaga erishmagan bo'lardik. Ijodiy faoliyat jarayonida kichkina usta ko'plab kashfiyotlar qiladi, shaxsiy yutuqlarga erishadi. Ob'ektiv ravishda u mutlaqo yangi, noma'lum narsalarni yaratmasa ham, uning ishining natijasi sub'ektivdir, chunki bu jarayonning o'zi bola uchun uning ustuvorligi yotadi. Natija birinchi va juda muhim qadamdir bolalar ijodiyoti. O'z qo'llaringiz bilan mahsulotlar yaratish universal ta'lim vositasi bo'lib, bir tomonlama intellektual faoliyatni muvozanatlashtira oladi. kichkina odam uni har tomonlama rivojlantirish. Dizayn faoliyatidagi mashg'ulotlar bolalarning ongiga, irodasiga, his-tuyg'ulariga ta'sir qilish, ularni ijodiy o'zini namoyon qilishga undash uchun mo'ljallangan. Ular psixologik muammoni ham hal qilishadi - farzandlarimiz hissiy qulaylik holatiga ega bo'lsin, bolalik quvonchini his etsin. Bu mavzu bugungi kunda dolzarbdir, shuning uchun bolalar bog'chasida bolalar bilan ishlashimiz shiori - his qilish, o'rganish, yaratish! Bolalar bog'chasi amaliyotida kontseptsiyalarning mazmuni ko'pincha chalkashib ketadi: "grafik faoliyat" (to'qimachilik bilan), "ijodiy dizayn" va "bolalar dizayni" ning haqiqiy faoliyati. Tabiiyki, bu cheklovlar shartli, lekin ayni paytda quyidagilarni ta'kidlash kerak: badiiy va didaktik mashg'ulotlardan so'ng bolalar mahsulotlari papkalar va qutilarga solinadi va keyin talab qilinmaydi - bu bolalar dizayni emas. Shunday qilib, bolalar ko'rgazmasi (interyer, dekor va ko'ngilochar bayramlar uchun liboslar (masalan, ularning ishtirokida yaratilgan) bolalar dizayni ob'ektlari bo'lishi mumkin (dekorativ va dizayn faoliyati). Shu bilan birga, professional dizayn bolalar dizayni bilan umumiy xususiyatlarga

ega, ya'ni vizual faoliyat va dizayn. Bular: ijodiy mahsulotning o'ziga xosligi va o'ziga xosligi; sensorli standartlar tizimi bilan tanishish, modulli dizayn printsiplari; rejani bajarishning birgalikdagi alohida tabiati; mavzu va fazoviy-dekorativ xarakterga ega loyiha faoliyati; shunga o'xshash materiallar va texnikalardan foydalanish; professional va "bolalar" san'atining badiiyligini baholashga umumiy yondashuv; o'z-o'zini ta'minlash bolalar ijodiy mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi (dizaynerni eksklyuziv izlash). Dizayn san'ati hayotga faol kirib bormoqda. Agar "bolalar uchun dizayn" tendentsiyalardan biri bo'lsa kasbiy faoliyat rassom-dizaynerlar, keyin "bolalar dizayni" bilan bog'liq dekorativ faoliyat bolaning o'zi uni o'rab turgan obekt-fazoviy muhitni yaxshilash bo'yicha. Bolalar atrofdagi o'zlariga yoqadigan yoki yoqtirmaydigan ob'ektlarga e'tibor berishadi, ularning rangi, shakli, o'lchami, nisbatlarining xilma-xilligiga e'tibor berishadi. Ular o'simliklar va minerallarni to'plashlari, qog'oz, matolar va foydalanishlari mumkin sintetik materiallar, hayotingizni bezash uchun ulardan aranjirovkalar (guldestalar, gerbariyalar, gulchambarlar) va majoziy kompozitsiyalar yaratish.

3. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar.

"Har qanday ishda ijodkorlikni joriy etish qobiliyatini tarbiyalash pedagogikaning asoslaridan biri bo'lib qoladi. Agar ijodiy mehnatga bo'lgan ehtiyoj shaxsning ajralmas mulkiga aylanmasa, u holda umumiy farovonlik va ish kunining tobora qisqarishi sharoitida odam to'yish, vayronagarchilik va ruhning falajlanishi xavfi ostida qoladi. Daniil Andreev "Dunyo guli" Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish erta bolalikdan, bola kattalar rahbarligida turli xil faoliyat turlarini, shu jumladan badiiy faoliyatni o'zlashtira boshlagan paytdan boshlab amalga oshirilishi kerak.

Ijodkorlikni ochish usullari va vositalari

- Rasm;
- stol ustida o'yinlari;
- mozaikalar, jumboqlar va konstruktorlar;
- tabiat va atrofdagi dunyo haqida suhbatlar;
- loy, plastilin, gipsdan modellashtirish;

- hikoyalar, ertaklar va she'rlarni o'qish;
- so'z o'yinlari;
- sahnalarni ijro etish;
- ilovalar;
- qo'shiq aytish va musiqa tinglash.

Bularning barchasi sezgi, tasavvur, fantaziya, aqliy hushyorlik va oddiy hodisalar va narsalarda nostandart topish qobiliyatini rivojlantiradi. Yangi narsalarni o'rganish qobiliyati va kashfiyotlarga bo'lgan intilish hayotda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarning normal rivojlanishi oilada va bolalar bog'chasida iliq va do'stona muhitsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Nazorat uchun savollari:

1. MTTlarida innovatsion jarayonlarning mazmuni qanday izohlaysiz?
2. MTTlarida innovatsion jarayonlarning qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat deb o'ylaysiz?
3. MTTlarida innovatsion jarayonlarga yondashuvlar haqida qanday fikrlarga ega bo'lasiz?
4. Bolalar dizayn konsepsiyasining mohiyati?
5. Bolalar dizayni texnologiyasi?
6. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar?
7. Katta yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish usullari?
8. Ijodkorlik nima va uning mohiyati?

II BOB. "MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH" FANIDAN AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

1-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish.

Amaliy ish rejasi:

1. Pedagogik faoliyat haqida tushuncha.
2. Pedagogik faoliyat turlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Pedagogik faoliyat haqida tushuncha berish, pedagogik faoliyat turlarini farqlashga o'rgatish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: "Kuzatish" metodi, "Blits so'rov" metodi, "True and False" o'yini.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, slayd, o'quv qo'llanmama, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladi.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1. Pedagogik faoliyat haqida tushuncha. Pedagogik faoliyat – bu jamiyatning ongli ravishda kelajak avlodni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, estetik maqsadlariga muvofiq tarzda tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy foydali faoliyatning o'ziga xos turi. O'qitish - pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilim va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Pedagogika mutaxassisligiga ega, bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, o'qituvchi ya'ni tarbiyachi

deyiladi. Pedagogik faoliyat maqsadi - bu ta'lim muhiti, bolalar faoliyati, o'quv jamoasi va bolalarning individual xususiyatlari, pedagogik faoliyatning maqsadini amalga oshirish o'quv muhitini shakllantirish, bolalar faoliyatini tashkil etish, o'quv guruhini yaratish, individual shaxsni rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'liq.

2. Pedagogik faoliyat turlari. Pedagogning mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi-ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir.

An'anaga ko'ra yaxlit pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning asosiy turlari o'quv va tarbiyaviy ishlardir. O'quv ishlari - bu shaxsning barkamol rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun o'quv muhitini tashkil etish va o'quvchilarning turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. O'qitish - bu asosan bolalarining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'quv faoliyatining bir turi. Umuman olganda, pedagogik faoliyat va ta'lim faoliyati bir xil tushunchalardir. Tarbiyaviy ish va o'qitish o'rtasidagi bog'liqlikni bunday tushunish ta'lim va tarbiyaning birligi haqidagi tezisning ma'nosini ochib beradi.

Ta'lim har qanday tashkiliy shakl doirasida olib boriladi, shunchaki dars emas, balki odatda qat'iy cheklovlar, aniq belgilangan maqsad va unga erishish yo'llari mavjud. Ta'lim samaradorligining eng muhim mezonini bu ta'lim maqsadiga erishishdir. Har qanday tashkiliy shakl doirasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar maqsadga to'g'ridan-to'g'ri erishishga intilmaydi, chunki u tashkiliy shakldagi vaqt doirasi bilan cheklangan muddatda amalga oshirilmaydi. Tarbiyaviy ishda faqat aniq maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni izchil hal qilishni nazarda tutish mumkin.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Loyiha - aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyihalash - boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Har qanday holatda ham loyihalash "g'oya - maqsad -


kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. MTTda tashkil qilinadigan mashg’ulotlar, aniqroq aytganda, ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayoni yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi.

Tarbiyalanuvchilar shaxsiga turlicha ta’sir ko’rsatadigan barcha shakldagi mashg’ulotlar, sayr va ekskursiyalar, tarbiyaviy va shaxslararo munosabatlar jarayoni o’zaro aloqador va uzviy bog’liqdir. Mazkur tashkiliy komponentlarning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi, birligi pedagogik jarayonning yaxlitligini ifodalaydi.

1-topshiriq. Jadvalda berilgan savollarga javob bering.

№	Savol	Javob
1	Pedagogik faoliyatga ta’rif bering.	
2	Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining pedagogik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?	
3	Loyiha nima?	
4	Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining pedagogik jarayonni loyihalashtirish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?	

2-topshiriq. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik faoliyati” ni noan’anaviy usulda ifodalang.



2-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalash faoliyatining texnologiyalari.

Amaliy ish rejasi:

- 1.Loyihalashtirish texnologiyasi hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi
- 2.Bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi.
- 3.Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usuli.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalash faoliyatining texnologiyalari haqida bilim berish, bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan ijod qilishining loyihalashdagi ahamiyati, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usullari to'g'risida talabalarga bilim berish.

Ta'lim metodlari: "Baliq skeleti" metodi, "Blits so'rov"metodi, "Klaster" metodi.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, slayd, o'quv qo'llanmma, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Maktabgacha ta'lim tashkilotida loyihalashtirish texnologiyasi amalga oshirishda hamkorlikni ahamiyati, bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usulini haqida bilimlarini amaliyotda qo'llash.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1.Loyihalashtirish texnologiyasi hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlarni rejalashtirishda pedagogik jarayonning loyihasi ya'ni modeli ishlab chiqiladi. Bunda tarbiyachi yillik va haftalik reja asosida berilgan mavzularni bolalarga mashg'ulotlar davomida o'rgatib boradi. Tarbiyachi oldida o'quv dasturda berilgan mavzularning bolalar

tomonidan o'zlashtirilishi va amaliy hayotda qo'llay olishiga erishish vazifasi turadi. Ammo bu vazifani amalga oshirishda tarbiyachi MTT pedagoglari psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, musiqachi, xareograf, ikkinchi til tarbiyachisi, logoped bilan hamkorlikda ishni olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonini hamkorlikda tashkil etish yuqori natijalarni beradi. Ya'ni, tarbiyachi tashkilotda faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ota-onalar, bolalar hamda xodimlar uchun turli xildagi tavsiya, mahorat maktablari, trening mashg'ulotlari, faoliyatlari davomida uchrashi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldini olish, ishlash uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha bir yillik reja tuziladi

2. Bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarakatrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.


“Bolani qanday sevish kerak?”, “Bola hayotida kitob”, “Bugun biz nima bilan shug'ullandik”, “Ota-onalar burchagi”, “Maslahat va tavsiyalar”, “Ko'chma papkalar va boshqalar”. Bundan tashqari ruhshunoslar tomonidan tashkil etilgan testlarga murojaat etish ham foydadan holi emas. Masalan, “Biz qanday ota-onamiz?” (Test) “Farzandimizning nihoyatda qiziquvchanligi”. (Test)

3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usuli.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda— ta'lim jarayonining asosiy ob'ekti bola bo'lib, uning shaxsi, qadr-qimmatini yuqori o'ringa qo'yadigan, asosiy e'tiborni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muammoli ta'lim, modul ta'limi dasturiy ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyalari,

interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual ta'lim, masofovaviy ta'lim, mustaqil ta'lim va innovatsiya ta'lim kabi turlari mavjud. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashgan 2-nashrida 4-bob aynan mana shu mavzuga bag'ishlangan. Rejalashtirish davlat o'quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismidir. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Rejalashtirish – o'quv dasturini yaratish va qo'llash jarayonining muhim qismi.

1-topshiriq. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarning o'zaro hamkorligini noan'anaviy usulda ifodalang.



2-topshiriq. "True and false" o'yini.

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri yaratildi. Mazkur dasturning "MTTning maqsad va vazifalari" noimli 2-bobi, 5-bandi "Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" masalariga bag'ishlangan.

2. Yil davomida uch marta ota-onalar bilan muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash.

3. Kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish ota onalar bilan ishlashning maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish vazifasiga kiradi.

4. Bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirishga topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash kiradi.

5. Ota-onalarni guruh va yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etishga rivojlantiruvchi muhitni

yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish kiradi.

3-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.

Amaliy ish rejasi:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bosqichlari.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha hosil qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullarini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: "Kuzatish" metodi, "Klaster" metodi, "Savol-javob", BBB metodi.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, slayd, o'quv qo'llanmma, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullarini mazmunini bilib oladi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullarini qo'llashga o'rganadi.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta'limiy faoliyatlar tizimida innovatsion texnologiyalar o'ziga xos o'ringa ega. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalar loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta'limga joriy qilish ularni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat –

pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Tarbiyachi innovatsion faoliyatning sub'yekti va tashabbuskori sifatida yangilikni yaratish, qo'llash va ommalashtirishda ishtirok etadi. Zero, tarbiyachi innovator sifatida muayyan fan asoslari, an'analariga xos o'zgarishlar mazmunini tahlil eta olishi kerak. "Innovatsion faoliyat" tushunchasi "innovatsiya", "innovatsion" jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bosqichlari. Loyihalash strategiyasi — loyihachi tomonidan rejalashtirilgan faoliyatning texnik vazifalariga muvofiq muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish tizimidir. Loyihalash strategiyalari: chiziqli, davriy, o'zgartirish, tarmoqlangan, moslashtirish va tasodifiy izlanish strategiyalaridan iborat. Loyihalashning chiziqli strategiyasi 1-bosqich, 2-bosqich va hokazo bosqichlardan iborat bo'lib, harakatlarning birinchidan to o'n beshinchigacha ketma-ket, qaytmasdan bajarilishini anglatadi. Strategiya o'qituvchi tomonidan faoliyatni muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish rejalashtirilganda (jumladan, o'quv jarayonini turli shaklda tashkil etish variantlari puxta o'ylanmasdan qulay standart vositalar qo'llanilsa) qo'llaniladi.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari. Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan hold, uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:


1. Mashg'ulotning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Mashg'ulot turini tanlash.
6. Mashg'ulotning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

No	Savollar	Javoblar
1	Innovatsiya atamasiga ta'rif bering.	
2	Innovatsion faoliyat deb qanday faoliyatga aytiladi?	

3	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining innovatsion faoliyati bosqichlari nimadan iborat?	
4	Mashg'ulotlarni tashkil etishda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin?	
5	Innovatsion texnologiyalarni loyihalashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?	

2-topshiriq. Tarbiyachi innovatsion pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlarini "Klaster" metodi asosida ifodalang.



3-topshiriq. "BBB" metodi asosida mavzuni mustahkamlash.

Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bilib oldim

4-Amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari

Amaliy ish rejasi:

- 1.Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni.
- 2.Pedagogik faoliyatni loyihalashning afzalligi.
- 3.Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashdagi kompetentligi.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Loyihaviy faoliyat texnologiyasini, uning pedagogikadagi o'rnini, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari tog'risida o'rgatish.

Ta'lim metodlari: "Kuzatish" metodi, "Blits so'rov"metodi, "True and False" o'yini.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, slayd, o'quv qo'llanmma, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Talaba loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlarini bilib oladi.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1.Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni. Tarbiyachining mashg'ulot jadvali asosida faoliyatlarga tayyorgarlik ko'rishida, quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega: tashxislash, bashoratlash loyihalashtirish (rejalashtirish).

- tashxislashda o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va aobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

- bashoratlash o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul

qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'lashdir.

- loyihalashtirish (rejalashtirish) tarbiyalanuvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

2. Pedagogik faoliyatni loyihalashning afzalligi. Pedagogik jarayonni loyihalash — loyiha-mazmun-faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir. Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir. Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning m a'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat, xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir

3. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashdagi kompetentligi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo'llay olinishi.


Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy kompetensiya
2. Shaxsiy kompetensiya
3. Umuminsoniy kompetensiya
4. Ma'daniy kompetensiya
5. Maxsus kompetensiya


Kasbiy pedagogik komponentlik pedagogik voqealikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. "Kompetentlik" va "kompetensiya" o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limga kompetentlik bilan yondashish, tarbiyalanuvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, klajakda ijtimoiy,

kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetentlik tarbiyachining mavzuni mazmun jihatidan to'la o'zlashtirish, o'rganish, mustahkamlash, qaytarish hamda mustaqil ish uchun materialni tanlashida, o'zining dunyoqarashini kengaytirish uchun o'zlashtiradigan bilimlar negizida ham namoyon bo'ladi.

1-topshiriq. "Baliq skeleti" metodi asosida pedagogik faoliyatni loyihalashning afzalligini ifodalang.



2-topshiriq. "Klaster" metodi asosida tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashdagi kompetentligini ifodalang.



5-Amaliy mashg'ulot: Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.

Amaliy ish rejasi:

1. Pedagogik faoliyatni loyihalash turlari.
2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda loyihalashning ahamiyati.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni loyihalash jarayoni.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Pedagogik faoliyatni loyihalash turlarini o'rgatish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishda loyihalashning ahamiyatini,

Ta'lim metodlari: "Kuzatish" metodi, "Diologik"metodi, "Ven" diagrammasi.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, slayd, o'quv qo'llanmma, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Zamonaviy MTT larda loyihalashtirish faoliyatini tashkil qilish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1.Pedagogik faoliyatni loyihalash turlari. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish va unga kreativ yondashuvi sanaladi. Tarbiyachining innovatsion faoliyati bu yaratuvchanligi va ijodiy faoliyati bo'lsa, kreativ yondashuvi esa ijodkorlidir. Demakki, tarbiyachining yangicha yondashuvidagi, ijodiy imkoniyatlari bilan aks etar ekan. U holda, tarbiyachi-maxsus pedagogik, didaktik loyihalashning zamonaviy turidir. Pedagogik texnologiya g'oyalari, tamoyillari asosida loyihalashning qator afzalliklari bor. Ammo qator zaif tomonlari ham bor. Didaktik loyihalashning tamoman yangi, original shakliga ko'ra ta'lim etaloni didaktik loyihalash vositasi sifatida o'rganilib, tahlil qilinadi. Yangi kompleks didaktik loyihalar o'quvchilarning tafakkuri hamda xotirasiga mo'ljallab tuziladi. Tarbiyachining innovatsion faoliyati bu yaratuvchanligi va ijodiy faoliyati bo'lsa, kreativ yondashuvi esa ijodkorlikdir.


Demakki, tarbiyachining yangicha yondashuvi, ijodiy imkoniyatlari bilan aks etar ekan.

2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda loyihalashning ahamiyati. MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda loyihalashning ahamiyati juda muhimdir. Nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish, balki tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirish, tarbiyalanuvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi motivlashtirish jarayonlarini tashkil etish, shuningdek, MTTdagi ta'lim-tarbiyaviy muhit hamda unda o'zaro ta'sir jarayonlarini keng qamrovliligida loyihalashning ahamiyatini ko'rish mumkin. MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tarbiyalanuvchilarning faolligini ta'minlash, ularni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish hamda erkin va mustaqil muloqotga kirishishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishning ahamiyati ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda o'z ifodasini topadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni loyihalash jarayoni. MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish tarbiyalanuvchilar dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishi va rivojlanishida o'z ifodasini topadi. Tizimli yondashuv asosida MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yaxlit tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda shaxsiy faoliyat yondashuvi ham zarur hisoblanib, pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra belgilangan vazifalarni bajarishga sub'ektlarni motivlashtirish yo'nalishi sifatida vujudga keladi. MTTda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda takomillashtirish, qo'yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ob'ektiv baholash

asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlash yo'nalishidagi tarbiyachi faoliyatining mazmun-mohiyati axborot-tahlil, rejalashtirish, nazorat-tashxis topadi.

1-topshiriq. "Venn" diagrammasi metodi yordamida mustaqillik yillaridagi va bugungi kun maktabgacha ta'lim tizimini o'xshash va farqli jihatlarini ifodalang.



2-topshiriq. "Dialogik metod"dan foydalangan holda mavzu asosida suhbatlashish.

6-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.

Amaliy ish rejasi:

1. Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni, qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirishni o'rganish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, "Insert" metodi, "Baliq skeleti" metodi, markerlar.

Kutilayotgan natija: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni, qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirishni o'ganish asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish -yasash ham matematika bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalarni o'yin jarayonida tinglansa "Menga yashil rang kerak", "Men yasagan uycha ikki qavatli", "Seniki kichkina, meniki esa kattakon", "Meni mashinamga 10 ta odam sig'adi" degan jummalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo'shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar.

Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin. Tajribalarga ko'ra, "lego" toifasidagi yig'ma o'yinchoqlarni bolalar yaxshi ko'rishadi. "Lego" ularga qanday qilib kichkina qismlardan katta va murakkab qurilmalarni yasash mumkinligini tushunib olishda ko'maklashadi.

1-topshiriq. "Aqliy hujum" metodi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari haqida umumiy tushuncha ayting?

2. Davlat va nodavlat makabgacha ta'lim tashkilotining farqi va o'xshashligi haqida fikringiz?

3. Maktabgacha ta'lim tashkilot binolarini qanday loyihalash lozim?

4. Nodavlat maktabgacha ta'lim bu?

2-topshiriq. "Baliq skeleti" metodi asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etishni va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalang.



3-topshiriq. "Insert" metodi.

Belgilar:	1-matn	2-matn	3-matn
"V" – tanish ma'lumot			
"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak			
"+" - bu ma'lumot men uchun yangilik			
"-" bu fikr yoki ma'lumotga qarshiman			

7-Mavzu: Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish.

Amaliy ish rejasi:

1. "Til va nutq" markazining MTT pedagogik jarayonidagi ahamiyati.
2. "Til va nutq" markazini tashkil etish va jihozlash.
3. Sanat markazi-tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirishning asosiy maskani.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Talabalarga "Til va nutq" markazining MTT pedagogik faoliyatidagi ahamiyatini o'rgatish, "Til va nutq" markazini tashkil etish va jihozlashni va "Til va nutq" markazida faoliyatlarni tashkil etish metodikasini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: "Sinkveyn" metodi, Klaster usuli, "True and False", "Aqliy hujum", "Guruhlarda ishlash", "Baliq skeleti" metodi.

Kutilayotgan natija: Talabalarga "Til va nutq" markazining MTT pedagogik faoliyatidagi ahamiyatini o'rganib oladi, "Til va nutq" markazini tashkil etish va jihozlashni va "Til va nutq" markazida faoliyatlarni tashkil etish metodikasini amaliyotda qo'llashga o'rganadi.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

1. "Til va nutq" markazining MTT pedagogik jarayonidagi ahamiyati.

"Til va nutq" markazida bola hayotidagi eng kerakli bo'lgan nutq rivojlanadi. O'qish, yozish malakalari rivojlanadi. Markazni shovqindan bir oz uzoqroqqa joylashtirsangi foydadan xoli bo'limaydi. Chunki qachon biz kitob bilan muloqot qilsak, do'stlarimiz bilan suhbatlashsak bizga sokinlik jimlik kerak bo'ladi. Agar markazimiz shovqin joyda joylashsa, bolalar tez chalg'iydilar, tanlagan markazlaridan boshqa markazga o'tishga harakat qiladilar.

Markaz boshqa markazlarga nisbatan juda boy bo'lishi kerak, chunki markazda qancha jihoz ko'p bo'lsa, bola ularni ko'rish, ular

haqida gapirish, do'stlari bilan muloqotga kirishish orqali so'z boyligi oshadi, nutqi rivojlanadi.

Markazdagi shkaflar bolalarning yoshiga mos bo'lishi, qo'li yetishi lozim. Qiynalmasdan kerakli jihozlarni olishiga imkoniyat yaratish. Ularni zararsizlantirish maqsadida artish mumkin bo'lishi, yorqin ranglardan foydalanilgan bo'lishi lozim. Markazga kirishdan oldin albatta tarbiyachi tomonidan markazdagi faoliyat albatta bolalarga yetkazilishi lozim. Markazdagi faoliyat jarayoniga aralashmaslik, bolalarning o'z xollariga qo'yish va kuzatish lozim. Kuzatish natijalarida Nutq o'stirish mashg'uloti ya'ni umumiy gurux bo'lib ishlash uchun mavzular topasiz. Iloji boricha bolalarni rivojlantirish markazlaridagi faoliyatlarini yozib boring, bu sizga bolalarni rivojlantirish xaritalaridagi indikatorlarni baholashingizda as qotadi.

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

2. "Til va nutq" markazini tashkil etish va jihozlash.

Jihozlar:

- stol (1), stullar (2-4);
- jihozlar va bolalar adabiyotlarini saqlash uchun ochiq javonlar;
- magnit doska;
- yumshoq bolalar mebellari (divan, kreslo);
- televizor yoki eshitish vositali audio markaz.

Materiallar:

- qirqiladigan rasmlar;
- pazllar;
- rasmlı kubiklar to'plami;
- loto;
- domino;
- juftli kartochkalar (xotira o'yinlari);
- bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq qoidalari bo'lgan boshqa stolbosma o'yinlari (yurish o'yinlari va h.k.);
- boshqotirma o'yinlari (masalan, tangram va boshqalar);
- alifbo plakati;

- magnitli alifbo;
- harfli va bo'g'inli kubiklar;
- qora va rangli qalamlar, flomasterlar;
- trafaretlar;
- lineykalar;
- qog'oz, konvertlar;
- yozish uchun mashq daftarlari, suv flomaster, latta;
- audioyozuvli disklar (ertaklar, hikoyalar);
- musiqali kompakt disklar;
- bolalar badiiy adabiyoti (katta, oddiy matnli, tasvirli kitoblar)
- bolalar uchun o'quv adabiyoti (ko'plab tasviriy materiallar bilan)

3.Sanat markazi-tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirishning asosiy maskani.

San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni mavjud. Bolaning ijodiy kobilyatlarini qo'llab quvvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik turlariga hamma uchun ham iqtidor berilmagan. Shuning uchun bu markazga kamroq bola qatnashi mumkin. Lekin markazga kerakli jihozlarni to'liq qo'yilsa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi.

San'at Markazda ishlash orqali bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bolalar suv olishlariga qulay bo'lishi uchun uni rakovina yaqiniga

joylashtirish ma'qul bo'ladi.

San'at markazi turli vazifalarni bajaradi, lekin birinchi navbatda u bolalarni qiziquvchanlik, tasavvur va tashabbuskorlikka o'rgatadi. San'at markazida bolalar turli xil vositalarni sinab ko'rishlari, molbertlarda chizish, barmoqlar bilan bo'yash, turli xil materiallardan foydalanishlari mumkin ya'ni tuz xamiri, plastilin, tabiiy materiallar, rangli qalam, qaychi va boshqa ko'plab asboblar va materiallar.

Psixologlar tabiatni idrok etishda bolalarda yorqin, unutilmas taassurotlar to'planishi va ularda tabiatdagi go'zallikni ko'rish va

qadrlash qobiliyatida namoyon bo'ladigan estetik moyillik asta-sekin rivojlanib borishini isbotladilar.

Shuning uchun san'at markazida tabiiy materiallardan tayyorlangan asarlar galereyasini yaratish kerak. Galereyani tashkil etishda bolalar bilan bir qatorda ota-onalarni jalb qilish kerak. Sanat markazida bolalarni tasviriy san'atning xilma-xil turlari va janrlari bilan tanishtirishni davom ettirish kerak. Shunda bolalarda ijodkorlik shakllanib boradi.

Bolalarni vizual faoliyatga o'rgatishning maqsadlaridan biri bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Mashg'ulotlar davomida bolalar turli materiallar bilan ishlashda bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, ularda bu ko'nikmalardan voqelik ob'ektlari va hodisalarini tasvirlash jarayonida ijodiy foydalanish qobiliyati rivojlanadi.

1- topshiriq. MTT rivojlantiruvchi til va nutq markazini dumaloq xarita texnologiyasi yordamida ifodalang.

2-topshiriq. "BBB" texnologiyasi

Mavzu savollari:	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1. Sahnalashtirish o'yinlari			
2. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi			
3. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari			
4. Ta'limiy-tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarlik qilish			
5. Nazorat qilish usullari			
6. Ota-onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari			

8-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari.

Amaliy ish rejasi:

1. Jismoniy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish usullari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalarini o'rganish. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish shakllari natijalarga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko'nikmalar hosil qilish o'quv faoliyatining maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi. Bola rasm chizish jarayoniga qiziqsa va chiroyli chizishga harakat qilsa, bunday jarayon o'yin yoki samarali harakat hisoblanadi. Lekin qachonki bola rasm mashg'uloti vaqtida o'z oldiga ma'lum maqsad qo'ysa, bu harakatlar ta'lim ko'rinishiga ega bo'ladi. Masalan, avvalgilardan yaxshiroq rasm chizish, tasvirni to'g'ri bo'yash yoki tekis chiziqlar chizish ham shunday harakat turlariga kiradi. Ta'lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldirilgan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko'nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko'rsatmalarini bajarish davomida o'zlashtiradi. Shuningdek o'yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko'nikmalarini kengaytirib boradi. Kattalarning bola bilan bo'lgan har xil uslubdagi muloqot negizida ta'lim yotadi. Ammo u

bolaning rivojlanishiga qarab sistematik xarakterga ega bo'ladi. Bolalar ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida muayyan dasturlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ta'lim oladilar. O'yin usullari va samarali topshiriqlardan foydalanish bunday hollarda muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga mashg'ulotlar vaqtida bolalarga tanish bo'lgan talablar qo'yiladi: to'liq va sifatli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, tarbiyachini tinglash va uning ko'rsatmalarini to'g'ri bajarish.

Mashg'ulotlar orqali bilim berish o'quv faoliyatini boshlang'ich qoidalarini egallashda muhim ahamiyatga ega. O'quv faoliyatini boshlang'ich qoidasi bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllanishini va o'rganish qobiliyatini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

Savollar	Javoblar
1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining lavozim talablarini aytib bering?	
2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining malaka talablariga nimalar kiradi?	
3. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining malaka talablariga ko'ra nimalarni bilishi lozim?	
4. MTTda ilg'or ish tajribasini ommalashtirishda Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'rni?	

2-topshiriq. "Sinkveyn" metodi asosida uslubchi shaxsisni yoriting.

№	Mavzu: Uslubchi
1	Mavzuni bitta so'z bilan ifodalang(ot so'z turkumi):
2	Mavzuni ikkita so'z bilan ifodalang(sifat so'z turkumi):
3	Mavzuni uchta so'z bilan ifodalang(fe'l so'z turkumi):
4	Mavzuni jumla bilan ifodalang:
5	Mavzuning sinonimini ayting.

3-topshiriq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubchining metodik ishlarga rahbarligini noan'anaviy usul yordamida ifodalang.

9-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari.

Amaliy ish rejasi:

1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish va pedagogik texnologiyalarning bosqichlari haqida tushunchalarini boyitish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekespert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish va pedagogik texnologiyalarning bosqichlari haqida bilimlarni egallash.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida bolalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;

•o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

•didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Amaliyotda tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leont yev, P.Ya. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion —tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Oilaviy tarbiya rehabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalami shakllantirishni ta'minlaydi.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish organlarini aytib bering.

2. Tarbiyachi MTTda qanday vazifalarni bajaradi?

3. Pedagogik kengashda markaz masalalari ko'riladimi.

4. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash shakllari?

2-topshiriq. MTTning pedagogik kengashi vazifalarini quyidagi jadvalda ifodalang.

10-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedialardan foydalanish. Multimedia so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi. Maktabgacha ta'limda multimedialardan foydalanish.

Amaliy ish rejasi:

1. Multimedia so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi.
2. Maktabgacha ta'limda multimediyalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyalardan foydalanishni o'rganish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekespert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: Maktabgacha ta'limda multimedialardan foydalanish. "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim – tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:
Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoevning 2016 yil 29 dekabr, "2017–2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son hamda 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son, 2018 yil 30 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjatlari yaratildi. Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasida "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bolishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq». Qarang, qanday bebaho,

oltinga teng so'zlar!" deya ta'kidlashlari har birimizning ko'nglimizdagi gaplar ekanligi shubhasiz quvontiradi.

Ushbu fikrlar maktabgacha ta'lim muassasalar (MTM)ga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ta'lim turlari sanab o'tilib, uning birinchi turi - "Maktabgacha ta'lim" ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi", - deyilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga uzluksiz ta'limga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, 3.3 bandida uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichi maktabgacha ta'lim ekanligiga e'tibor qaratilgan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. «Maktabgacha ta'lim» atamasi 1997 yilda YUNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tiziminining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu albatta quvonarli hol. Hozirgi davrimiz texnologiya asri bo'lganligi uvhun har bir tarbiyalanuvchining zamon bilan hamnafas qilib ostirish maqsadida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 9-moddasida "Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi", - deb aytilgan. Shuningdek YUNISEF tashkilotining «Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi»da MTMlarining ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan. Yuqorida bayon qilingan dalillar MTM bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari

tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida; 2) tovushda; 3) musiqada; 4) animatsiyada; 5) multifikatsiyada.

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTMLarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. MTMLarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar - kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTMLari ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video disk

multimedialning texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

MTMlarida multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta'lim o'yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTM tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimni baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o'yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari shart.

Xulosa qilib aytganda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilanganidek: «Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mehanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorlarni andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruchi kuchidir» deyiladi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi

asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTMLarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'satadiki, 80-90 % bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tas'virdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan.

1-topshiriq. Mavzuni "Dialogik metod" da savol-javob asosida yoritib bering.

2-topshiriq. "BBB" metodi asosida mavzuda o'rgangan bilimlarizni aks ettiring.

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

11-mavzu: O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.

Amaliy ish rejasi:

1. O'rta yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.
2. Katta yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.
3. O'rta yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.
4. Katta yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Faoliyatlarni loyihalashtirishni guruhlar kesimida o'rganish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash ,syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish asosida bolalarga ta'lim–tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni y Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol

qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir. Bolalar biror narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan, bolalar "paroxod" o'yinini o'ynamoqchi bo'lishdi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda avval g'oya paydo bo'ladi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga "bormoqchi" bo'lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, haydovchi, tarbiyachi, enaga, san'atkor va hokazo. Rolli o'yinlarda didaktik, qoidali - harakatli o'yinlardagi singari qat'iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z xayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, "raketa tushib oyga uchadilar", "paroxodda suzadilar", "kasalni davolaydilar". Ammo bolalarning xayollari bilan o'ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi, yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yaxshi biladilar. Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan, "doktor" rolidaga bola kasal to'g'risida qayg'uradi.

O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi. Rolli o'yinlarining mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shartlari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvalgi bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2-3 kishidan iborat bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar. O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'yinning tuzilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchoqning roli va

bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va h.k. Bog'cha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagi bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola qo'g'irchoqni va o'zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan, deb so'rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi. Yoki qizcha qo'g'irchog'iga ovqat pishirayapti. "Sen kimsan?"- degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi. Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uxlashga yotqizishadi, mashinada tortishadi. Yana ovqat berishadi va uxlatishadi. Yoki qo'g'irchoq kasal bo'lib qolsa, darrov uning qo'li, oyog'i bog'lanadi, yolg'ondakam dori beriladi. Uchinchi yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. "Men oyisiman", "Men - vrachman" deb bular birdaniga enaga, tarbiyachi, doktor bo'lib qolishi mumkin. Bola to'rt yoshga o'tganda syujetli-rolli o'yinlar ancha rivojlana boshlaydi. O'yinlar mavzui har xil bo'lib, boyib boradi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, MTMni, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar. Tevarak-atrofni kuzatish natijasida tasavvurlari kengayadi, bu ularning o'yin mazmuniga ta'sir etadi: bayramlar, magazin, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Ammo bu yoshda ular hayotdagi voqealar o'rtasidagi bog'liqliklarni hali tushunib yetolmaydilar. Bola besh yoshga qadam qo'yganda undagi kuzatuvchanlik tafakkuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o'yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanib borishi orqasida ertak va hikoyalar mazmuni bo'yicha murakkab bo'lmagan o'yinlarni o'ynashadi. O'yin mazmuni bilan bir qatorda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo'ladi. O'yin birinchidan, xursandchilik bilan hamohang kechadi. Ikkinchidan, bolalar kattalarning hislarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o'yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-hayajonlarini to'la qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'lim- tarbiyaning natijasi


yaqqol ko‘rinib, sezilib turadi. Bolalar kim bilan o‘ynashi to‘g‘risida va o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida o‘zaro kelishib oladilar. O‘yinlar uzoqroq davom etadigan bo‘lib boradi. Bitta o‘yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o‘ynash mumkin, bunda har gal o‘yinga yangilik kiritib boriladi. Uzoq davom etadigan o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarining yuqori bosqichi hisoblanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlariga to‘g‘ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga kelib, u o‘z an‘anasiga, o‘z qoidasiga ega bo‘ladi. Bolalarda birgalikda ijod qilish qobiliyati rivojlanadi, ular o‘rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, fikriga quloq soladigan bo‘lib boradi. Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtni talab etadigan murakkab ish. Bolalar o‘rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kela boshlaydi.

1-topshiriq. Mavzuni “Dialogik metod”da savol-javob asosida yoritib bering.


2-topshiriq. “BBB” metodi asosida mavzuda o‘rgangan bilimlarizni aks ettiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3-topshiriq. “Baliq skeleti” metodi asosida pedagogik faoliyatni loyihalashning afzalligini ifodalang.



4-topshiriq. “Klaster” metodi asosida tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashdagi kompetentligini ifodalang.



12-mavzu: Tayyorlov guruhlarida o‘yinlarni loyihalashtirish. Tayyorlov guruhlarida til va nutq markazidagi ish faoliyatini loyihalashtirish.

Amaliy ish rejasi:

1. Tayyorlov guruhlarida o‘yinlarni loyihalashtirish.
2. Tayyorlov guruhlarida til va nutq markazidagi ish faoliyatini loyihalashtirish.

Amaliy mashg‘ulot maqsadi: “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida o‘yinlarni loyihalashtirish

Ta’lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta’lim vositalari: Tayanch matn, O‘quv qo‘llanmalar, ekespert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir. L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N.Leont yev o'yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija

(tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoni"ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni

shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida bolalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

1-topshiriq. Mavzuni afzalliklari va kamchiliklarini izohlang.

Afzalliklari	Kamchiliklari

2-topshiriq. "Insert" usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qoyib chiqing: V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

13-mavzu: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatini loyihalashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalari

Amaliy ish rejasi:

1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatini loyihalashtirish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalari

Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalar bilan tanishib chiqish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatini va ijodiy rivojlanish texnologiyalarini "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida loyihalashtirish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:


Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug'unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

1-topshiriq:

1. Ilm-fan va tabiat markazi uchun o'yinchoq yasab kelish.

2. Markazga oid mashg'ulot ishlanma tuzish.

2-topshiriq. Mavzuni o'ziga xos xususiyatlarini "Klaster" metodida ifodalang.



14-mavzu: Tayyorlov guruhlarida nutq, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodlari. Tayyorlov guruhlarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari.

Amaliy ish rejasi:

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasi qarori

Amaliy mashg'ulot maqsadi: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tanishib chiqish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekespert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija: "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim -tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:


Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

1-topshiriq:

1. Til va nutq markazi uchun o'yinchoq yasab kelish.
2. Markazga oid mashg'ulot ishlanma tuzish.

2-topshiriq:

"Nima uchun?" texnikasi



15-mavzu: Tayyorlov guruhlarida ijtimoiy-xissiy (emotsional) rivojlanishiga doir faoliyat turlarini loyihalashtirish

Amaliy ish rejasi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar.

2. Tayyorlov guruhlarida ijtimoiy-xissiy (emotsional) rivojlanishiga doir faoliyat turlarini loyihalashtirish.

"Amaliy mashg'ulot maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalarni o'rganish.

Ta'lim metodlari: BBB metodi, Klaster usuli.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, O'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, markerlar.

Kutilayotgan natija "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Bajariladigan ishning mazmuni:

Kichik ma'ruza:

— Dastur) — Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturi (keyingi o'rinlarda asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashi lozim.

Dastur — muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar.

Dastur majburiy qism va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zarur tarkibiy qism hisoblanadi.

Dasturning majburiy qismi barcha beshta ta'lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Dastur tarbiyachi (mutaxassis) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratayotganini ko'rsatib berishi lozim.

Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:

maqsadli — bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim;

mazmunli — bu Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;

tashkiliy — bu Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

Dastur maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashida muhokama qilinadi va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

2. Mundarija sahifalar ko'rsatilgan holda Dasturning barcha qismlari, paragraflar, bo'limlar nomi, adabiyotlar va ilovalar ro'yxati, matnda mavjud bo'lgan barcha sarlavhalarni o'z ichiga oladi. Ularning ta'rifi ish mazmuniga to'liq mos kelishi, qisqa, aniq va izchil bo'lishi hamda uning ichki mantiqiy qonuniyatlarini aniq ifodalashi lozim.

3. Maqsadli bo'lim tarkibiga tushuntirish xati kiradi va unda Dastur ishlab chiqilishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil qilishning turli shakllari, metodlari va yo'llari ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, quyidagilar ham ta'riflanishi lozim:

Dastur bo'yicha ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarning yoshga oid, ruhiy va individual xususiyatlari;

Dasturning maqsadi;

Dasturning vazifalari;

Dasturni amalga oshirish muddati;

asosiy tamoyillar;

bola shaxsining asosiy tavsiflari.

Dasturning maqsadli yo'nalishlari ta'rifi maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi hamda O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablarining maqsadli yo'nalishlariga mos kelishi lozim.

4. Mazmunli bo'limga bola rivojining beshta ta'lim sohasi yo'nalishlariga mos ravishdagi ta'lim faoliyatining ta'rifi kiradi: ta'lim sohasining vazifalari, ta'lim faoliyatining mazmuni, ta'lim faoliyatining natijalari, mintaqaviy tarkibiy qism (komponent), ta'lim sohasini amalga oshirish bo'yicha ta'lim faoliyatini tashkil qilish shakllari.

Kompleks-mavzuli rejalashtirish (barcha beshta ta'lim sohasini amalga oshirishni hisobga olgan holda).

Mazkur kichik bo'limning ta'rifi integrativ modelni ko'zda tutadi va u hafta mavzusini faoliyatning turli ko'rinishlarida, shakllarida, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan birgalikda ochib beradi. Dasturda ifodalangan kompleks-mavzuli rejalashtirishning tarkibiy qismi jadvallar ko'rinishida taqdim etilishi

mumkin. Kompleks-mavzuli rejada Dasturdagi bo'limlar va mavzularni o'rganish ketma-ketligi ochib beriladi. Ta'lim faoliyatining taqsimoti, bolalar bilan ishlash shakllari va yakuniy tadbirlar ko'rsatiladi.

5. Tashkiliy bo'lim.

Mazkur bo'limda kun tartibi, o'quv yili tuzilmasi, ta'lim faoliyati jadvali (normativ hujjatlarga muvofiq), yoshni hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual xususiyatlari, ularning ta'lim ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda Dasturni amalga oshirishining turli shakllari, metod va vositalarining qisqacha ta'rifi beriladi. SHuningdek, turli xil faoliyatning o'ziga xos ruhiy-pedagogik xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro hamkorlik turlari ifodalanishi mumkin.

6. Dasturni amalga oshirish shartlari:

moddiy-texnik ta'minot;

o'quv-metodik ta'minot (dasturlar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-metodik va o'quv-metodik adabiyotlar, bolalar, ota-onalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar, internet-resurslar, ta'limiy CD-disklar, didaktik materiallar, hujjatlar).

7. Foydalanilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

8. Dasturga ilovalar, ularda quyidagi materiallar (hujjatlar to'plami) berilishi mumkin:

mashg'ulotlar ishlanmalari, hordiq, bayramlar ssenariylari va h.k;

tarbiyachi ishining chuqurlashtirilgan yo'nalishi bo'yicha ish dasturi (rejasi);

o'yinlar va o'yinli mashqlar ta'rifi;

pedagoglar va ota-onalar uchun mahorat maktabi ssenariylari;

har bir yosh bo'yicha ilova qilinadigan metodik jild-to'plamlar;

ota-onalar uchun tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan hamkorlikning turli shakllari ssenariylari (maslahatlar, davra suhbatlari, treninglar, praktikumlar, seminarlar).

1-topshiriq. Jadvalda berilgan savollarga javob bering.

№	Savol	Javob
1	Pedagogik faoliyatga ta'rif bering.	
2	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining pedagogik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?	
3	Loyiha nima?	
4	Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining pedagogik jarayonni loyihalashtirish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?	

2-topshiriq. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik faoliyati" ni noan'anaviy usulda ifodalang.

III. MAVZULARGA DOIR TESTLAR VA GLOSSARIY TESTLAR

1....bu shaxsning barkamol rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun o'quv muhitini tashkil etish va o'quvchilarning turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

A) Rivojlanish *B) O'quv ishlari C) Intelakt

2. Shaxsning pedagogik dizaynini qo'llab-quvvatlagan va u shaxsning rivojlanishi va uning individual sozlash dasturida pedagogik faoliyatning maqsadini ko'rdi. Bu tarif kimga tegishli?

A) L.N.Tolstoy B) K. D.Ushinskiy *C) A.S.Makarenko

3. O'qitishning jarayonini tashkil etishda bir muncha keng tarqalgan yondashuvlarni belgilang.

*A) Individual, guruhli, frontal

B) Izohli-tasvirli, texnologik, ijodiy

C) Stapionar, erkin-eksternat

4. Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda nima muhim ahamiyat kasb etadi?

*A) Individual va yoshga doir xususiyatlari

B) Yosh xususiyati va oilaviy sharoiti

C) MTT

5. Kommunikativ kompetensiya –.....

A) Hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari

B) Bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish

*C) Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish

6. Boshlang'ich ma'lumotlarga asosanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat?

A) Loyiha *B) Loyihalash C) Rejalashtirish

7. "G'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish" qanday bosqich?

*A) Loyihalash B) Pedagogik faoliyat C) O'qitish

8. Obro' orttira olish qobiliyati ko'rsatilgan qatorni toping?

*A) O'quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish va obro' orttira olishidir.

B) O'quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish.

C) To'g'ri muomala qila bilish qobiliyati.

9. Mahorat bu –

*A) Yuqori darajadagi va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat.

B) Tug'ma talant yoki nasldan naslga o'tuvchi xususiyat.

C) O'qituvchilar uchun standart ish usuli

10. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarini izohi qaysi javobda ko'rsatilgan?

*A) Metodika - bu o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi;

pedagogik texnologiya – pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shahsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy-pedagogik hatti-harakatlar majmuasi;

B) Pedagogik texnologiya metodikaning tarkibiy qismiga kiradi

C) Metodika – metod va usullar majmui, texnologiya esa ta'lim tamoyillari va qonuniyatlaridir.

11. Innovatsion faoliyat bu- ...

*A) Pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakli va vositalarni egallashga oid ijodiy yondashuvi

B) Tarbiyachining ijodiy imkoniyatlari

C) T.y.j.

12. O'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat qanday talqin qilingan?

*A) Ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar yig'indisi

B) Ijodiy yondashuv

C) Pedagogik jarayon

13. Innovatsiya so'zining ma'nosi?

*A) Yangilik kiritish B) O'zgartirish C) Intilish

14. Pedagogik texnologiyalar necha asosiy yondashuvga asoslanadi?

*A) 2 B) 3 C) 4

15. Ta'lim sohasidagi yangiliklarni kelib chiqish joriy etish sinovdan nazorat va baholash jarayoni bu ...

*A) Pedagogik innavatsiya B) Ta'limga yondashuv C) Innavatsion texnologiya

16. Loyihalash strategiyasi nima?

*A) Loyihachi tomonidan rejalashtirilgan faoliyatning texnik vazifalarga muvofiq muayyan ketma – ketlikda amalga oshirish tizmi.

B) O'quv mashg'ulotini loyihalash

C) T/j.y.

17. Innavatsion pedagogik texnologiyaning bosqichlari nechta ?

*A) 8 B) 6 C) 10

18. Ta'limdagi innavatsiyalar qaysi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi?

A) Ta'lim jarayoni demokratlashtirish

B) Ta'lim tarbiyaning samaradorligini oshirish

*C) A va B to'g'ri

19. Loyihalash strategiyasining mohiyatiga qaysilar kiradi?

A) Nazariy tajriba, ta'lim metodlarini tanlash

B) Vositalar tizimi, loyihani rasmiylashtirish

*C) Hammasi to'g'ri

20. O'quv mashg'ulotlarida nimalar aniqlanadi?

*A) Har bir kichik modulda foydalanilgan didaktik materiallarning turi va joyi

B) T/j.y.

C) Didaktik materiallar

21. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qaysi yosh davriga kelib o'zgarar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi?

*A) 2-3 yoshga kelib B) 6-7 yosh C) 4-5 yosh

22. Bola necha yoshiga to'lganda jismoniy rivojlanish nisbatan sekinlashadi?

*A) 3 yosh B) 4 yosh C) 7 yosh

23. Qaysi yoshdagi bolalarning nutqi ravon xotirasi ancha teran mustaqil fikrlash darajasi bir qancha rivojlangan bo'ladi?

*A) 4 yosh B) 3 yosh C) 5 yosh

24. Qaysi yosh davrida bollarni matematik tafakurini hisoblash ko'nikmalar rivojlanishi dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi?

*A) 6 yosh B) 5 yosh C) 4 yosh

25. Bolalarda qachon gigienik malakalar shakllana boshlaydi?

*A) 7 B) 6 yosh C) 5 yosh

26. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligini tashkil etish to'g'risidagi qaror qachon qabul qilingan?

*A) 2017- yil 30- sentyabr B) 2016-yil 29 -dekabr C) 2018-yil 6-iyul

27. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qaror qachon tasdiqlangan?

*A) 2016-yil 29-dekabr B) 2012-yil 8-iyul C) 2019-yil 17-avgust

28. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim tarbiya jarayoni nimalar asosida rejalashtiriladi?

*A) Davlat talablari va ilk qadam B) Mashg'ulotlar setkasi
C) Rivojlanish xaritasi

29. İlk qadam davlat o'quv dastur asosida nechta faoliyat markazi yuritiladi?

*A) 5 B) 7 C) 10

30. Atrof olam va badiiy adabiyot qaysi faoliyat markazining kichik sohasi hisoblanadi?

*A) Til va nutq B) Ilm fan va tabiat C) San'at

31. Muayyan o'quv jarayoni loyihasini ishlab chiqish nechta bosqichdan iborat bo'ladi?

*A) 8 ta B) 7ta C) 5 ta

32. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'ngi bosqichi berilgan qatorni tanlang?

*A) Yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi, ta'limning yakuniy darajasi samaradorligini o'rganadi.

B) Ta'lim jarayoning eng muhim bosqichi bo'lib mashg'ulotning shakli metod va vositalarni tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

C) Ta'lim jarayonini loyihalashning bu bosqichi ta'lim maqsad va vazifalarga tayanilgan holda o'quv jarayonning mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

33. Quydagi qaysi bosqichda o'quvchilar tomonidan bilim ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun yetarli deya belgilangan vaqt hajmi yani o'quvchilarda muayyan mavzu yuzasidan tushuncha ko'nikma malakalarning qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi?

*A) O'quv mashg'ulot jarayonini ishlab chiqishning 4 bosqichi
B) O'quv mashg'uloti jarayonini ishlab chiqishning 3 bosqichi

C) O'quv mashg'uloti jarayonini ishlab chiqishning 5 bosqichi

34. Pedagogik texnologik xaritaga mos javobni tanlang?

*A) Pedagogik texnologiya qayta takrorlanadigan o'qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlardan iborat

B) Har bir mavzu o'zlashtirish uni o'rganishdagi o'quv maqsadini to'g'ri qo'yishdan iborat

C) O'quv faning umumiy maqsadini o'rnatish.

35. O'quvchilarning o'zlashtirish bo'yicha qobiliyatlari nechta guruhga bo'linadi?

*A) 3 B) 4 C) 2

36. Pedagogik texnologiya tizimida AQSH tajribasida birigada individual ta'lim qachon keng qo'llanila boshladi?

*A) XX asr 60-yil B) IX asr 70-yil C) XX asr 50-yil

37. Ta'lim maqsadi va metodikasi o'quvchilarning qaysi xusiyatiga qarab belgilanadi?

*A) Qobiliyati o'zlashtirish darajasi

B) O'rab turgan tashqi muhitga qarab

C) A va B to'g'ri

38. O'quv mashg'uloti jarayonining loyihasi nechda bosqichdan iborat ?

A) 8 bosqich B) 7 bosqich C) 6 bosqich

39. Pedagogik texnologiyalarning didaktik maqsadidan farqi?

*A) Diagnostika asosida maqsad qo'yilishi B) Maqsad qo'yish
C) Hammasi to'g'ri

40. Hamkorlikdagi o'qishni tashkil etish usullariga qaysi biri kirmaydi?

*A) «Aqliy hujum» B) «Birgalikda o'qiymiz» C) «Arra»

41. Qaysi yillarda pedagogik texnika tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi?

A) 40-yillarda B) 30-yillarda C) 50- yillarda

42. Yaponiyada pedagogik texnologiyalar muommolari bilan nechta ilmiy tashkilotlar shug'ullandi?

A) 3 B) 5 *C) 4

43. Nechanchi yilda pedagogik texnologiyalar bo'yicha "milliy kengash" tashkil etildi?

*A) 1967-yil B) 1971-yil C) 1975-yil

44. Qaysi davlatda 1973-yili o'qitish texnologiyasi davlat markazi tashkil etildi?

A) Italiya B) Yaponiya *C) Vengriya

45. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari nechta?

A) 6 *B) 8 C) 9

46. Pedagogik innavatsiyada kim innavatsion jarayon tuzilmasining 3 blokini farqlaydi?

*A) R.N. Yusufbekova B) K.Radjes C) A.B. Arlov

47. Pedagogik texnologik xarita -....

A) O'quv fanining umumiy maqsadini o'rgatuish

*B) Pedagogik texnologiya qayta takrorlanadigan o'qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlardan biri

C) O'quv fanini to'la o'rganishdagi mavzuning ahamiyati

48. Qaysi yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi?

A) 30 – 40 B) 50 -60 *C) 40-50

49. Pedagogik ta'lim milliy kengashi tashkiloti qaysi davlatda?

*A) Angliya B) Italiya C) AQSH

50. AQSHda "Ta'lim texnologiyasi" jurnali qachon tashkil topgan?

A) 1962-yil *B) 1971-yil C) 1967-yil

51. Muommoli talim vazifalari qaysi qatorda?

A) Muommoli vaziyat B) Muommoni yechish yo'larini izlash
*C) Hammasi to'g'ri.

52. Muommoli o'qitishning asosida kimning g'oyalari yotadi?

*A) D.J. Duyi B) C.L. Rubenshteyn C) V. Akon

53. Kimning "Tafakkur muommoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muommoli o'qitishning psixologik asosi sifatida qabul qilingan?

A) D.J. Dyui *B) S.L. Rubinshteyn C) I.YA. Lerner

54. L.S. Ligotiskiy o'yinni qanday ta'riflaydi?

*A) Bolaning ichki ijtimoiy dunyosi ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi

B) O'yinga shaxsning hayotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari hayolan amalga oshirish

C) O'yin shaxsga xos bo'lgan ichki inamentsifik xulqi shaklidir

55. O'yinlarning muhim qirralari kim tomonidan yoritilgan?

A) A.N. Leantev B) S.L. Vigodiskiy *C) S.A. Shumakov

56. Multimedia so'zining ma'nosi?

A) Axborotning xilma-xil turlari

B) Muayyan vaqtdagi ish

*C) Multimedia vositalari

57. Multimediali ta'limot -...

*A) Bugungi kunda axborot taqdim etilishning yagona va eng zamonaviy shakli

B) O'qitish va ta'lim olishning yangi va unimli vositasi

C) Mustaqil ta'lim olishning imkoniyati

58. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning nechanchi yillarida rivojlana boshladi?

*A) 80 -yillar B) 30-yillar C) 60-yillar

59. Hamkorlik pedagogikasi nechta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi?

A) Tarbiya konsepsiyasi

B) Atrof muhitni ta'lim tarbiyaga moslash, tarbiya konsepsiyasi

*C) Atrof muhitni ta'lim tarbiyaga moslash, tarbiya konsepsiyasi, dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua, shaxsga inson shaxs sifatida yondashuv

60. Sh.A. Amonashivilining asosiy maqsadlari?

- A) Bolaning shaxsiy sifatlarini namoyish qilish
- B) Rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq
- *C) Barchasi to'g'ri

GLOSSARIY

Aqliy rivojlanish – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi

Axloqiy ong – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bilim – bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir.

Diagnostika (tashxislash; yun. "diagnostikos" – "aniqlashga qodirlik", "aniqlashga imkon berish") – tegishli sohalarda mavjud muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, nuqson va muammolarni bartaraf qilish yo'li, usul va tamoyillarini o'rganish.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'orpedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

Guruh – tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi

Hamkorlik – tarbiyalovchi vaziyatning o'zaro harakati bo'lib, unga ko'ra sub'ektlardan biri ikkinchisining ruhiy-jismoniy holatini to'la xis etadi va voqelikka, masalaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini o'zgartirgan holda, vaziyatning rivojlanishi va ijobiy tus olishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamkorlik asosida sherigi bilan o'zaro harakat qilish, kayfiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning osoyishtaligi haqida qayg'urish yotadi.

Intellekt – insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma'nosini anglatadi.

Inklyuziv ta'lim (ing. "inclusion" – o'z ichiga olish, kiritish, uyg'unlashtirish) davlat siyosati bo'lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli (tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, turli hil kasalliklarga chalingan ijtimoiy himoyaga muhtoj mayda millat bolalari) maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Interfaol –so'zi inglizcha so'z bo'lib, "inter" – o'zaro va "act" - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Interfaol usul - bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi.

Integratsiya – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

Korreksiya (yun. "correctio" – tuzatish; pedagogikada – pedagogik tuzatish) – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi.

Konvergent tafakkur - (lotincha convergere- "bir yo'ldan") tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

Kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir.

Ko'nikma - u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo'yilgan maqsadga qaratadi.

Ko'rsatkich (lot. "indicator" – ko'rsatkich) – aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezon). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan

o'lchov, chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'lumot - kishi sezgi a'zolari, asboblari va boshqalar yordamida qayd etiladigan, tashqi olamdan olingan belgilar to'plamidir.

Metod (qad. yun. "μέθοδος" - yo'l, usul; yun. "methodos" - tadqiqot yo'li, usuli) - muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash; ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo'li, usuli; doimiy ravishda rivojlanib va shaklan o'zgarib boradigan usul yoki uslublar, usullar va qadamlar, harakatlar. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi. Jumladan, 1) faoliyat usuli; 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui; 3) harakat usuli yoki ko'rinishi; 4) harakat tizimi; 5) ta'sir ko'rsatish yo'li; 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Nazorat (ta'lim jarayonida) - ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Oila - kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oila tarbiyasi - ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oilaviy munosabatlar - ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

"Pedagogik diagnostika va korreksiya" - maqsadi pedagogik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o'quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali

tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat o'quv fani.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogik diagnostika (yunoncha - "bilish", "aniqlash" ma'nosini anglatadi) - bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm.

Pedagogik kreativlik - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy xal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro tavsiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o'zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi.

Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llabquvvatlash usuli.

Reaksiya - materialga nisbatan qanday operatsiyani qo'llash natijasi.

Refleksiya (lot. "reflexio" - ortga qaytish, aks etish) kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida faoliyati, shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'yxayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash, o'z-o'zini tahlil qilishi.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'yektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim jarayoni - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» - tizim) - ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim metodlari - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) – tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta‘sir etish usullari.

Tashhis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta‘lim – tarbiyalanuvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta‘lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

“Texnologiya” so‘zi (“texnos” - xunar va “logos” - fan) hunar, san‘at fani ma‘nosini anglatadi.

“Texnika” (hunar san‘at-grekcha) - usul va vosita elementlarning yig‘indisi, uning tarkibi - muloqot va munosabatdan iborat.

Uzluksiz ta‘lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini, davlat ta‘lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

O‘lchash – qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni.

O‘qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma‘lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me‘yoriy hujjat.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Sh.A. Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N. Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R. Qodirova. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur 2019

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Sh.M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T 2017 y.
5. Sh.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T 2016 y.
6. Sh.M. Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" T 2016 y.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.
8. Sh. Nurmatova, Sh. T. Xasanova, D. E. Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Toshkent 2010. Chulpon nashriyoti.
9. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.: 2001.
10. O. Hasanboyeva va boshqalar. Oila pedagogikasi. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
11. D. R. Jurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T.: UzPFITI 2015
12. Djanpeisova, B. Xodjimuratova. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
13. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T.: BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) 2018.
14. N. U. Bikbayeva, Z. I. Ibragimova, X. I. Qosimova. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" T. "O'qituvchi", 1995.
15. D. R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi xuzuridagi "Intelektual mulk agentligi". - T.: 2020 yil. (electron darslik).
16. F. R. Qodirova "Nutq o'stirish metodikasi" UUM. 2012 йил. (elektron).

17. F.Xujayev, K.D.Rahimqulov, B.B.Nigmatov "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" Cho'lpon nashriyoti Toshkent 2011 y

18. A.Abdullayeva, Sh.Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institute, 2005 yil - 300 b.

19. A.N.Liviyskiy "Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi" Toshkent: 1995 yil - 500 b.

20. F.Xujayev, K.D.Rahimqulova, B.B.Nigmatov "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" TDPU nashriyoti Toshkent 2008 y.

Axborot manbalari

1. www.tdpu.uz
2. www.Pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish” fanining nazariy asoslari	
I.1 Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish.....	6
I.2 Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining texnologiyalari.....	13
I.3 Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.....	20
I.4 Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari.....	25
I.5 Zamonaviy Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.....	42
I.6 Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo’yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.....	48
I.7 Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o’yinlarni loyihalashtirish.....	56
I.8 Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish.....	62
I.9 Tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini loyihalashtirish.....	69
I.10 Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari.....	73
I.11 Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o’ziga xos xususiyatlari.....	85
I.12 Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o’ziga xos xususiyatlari.....	95
I.13 Maktabgacha ta’limda muammoli ta’limni tashkil etish bosqichlari.....	103
I.14 Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedialardan foydalanish.....	109
I.15 Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning dizayr faoliyati.....	125

**Quchqorova Nargiza Mamajonovna
Bekchanova Feruza Marimboy qizi
Durdliyeva Mohinur Adilbek qizi**

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH

Darslik

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.10.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 11,2. Shartli bosma taboq 11,5.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10



Bekchanova Feruza Marimboy qizi 1995-yil Xorazm viloyati tug'ilgan, millati o'zbek, oilali, 2 nafar farzandi bor. 2015-yil Urganch davlat universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi kunduzgi bo'limiga o'qishga qabul qilindi. 2019-yil o'qishni tugatib UrDU "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" (Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi magistraturasiga o'qishga qabul qilingan va 2021-yil tamomlagan. 2019-2021-yil Urganch tumani 28 DMTT tarbiyachisi, 2021-2023-yillarda UrDU Pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi, 2023-yildan UrDPI Pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi lavozimlarida ishlab kelmoqda.

Ilmiy faoliyati davomida 30 ta ilmiy va uslubiy maqolalar nashr etilgan bo'lib, ulardan 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yhatidagi jurnallarda, 10 ta xorijiy jurnallarda, 18 ta xorijiy va respublika ilmiy-ama... afrensiyalarida chop etilgan. Bundan tashqari 1 ta uslubiy qo'llanmasi nashr etilgan.

